



# ILM-FAN MUAMMOLARI TADQIQOTCHILAR TALQINIDA

KITOB

RESPUBLIKA ILMIY KONFERENSIYASI

ILM

TADQIQOT

TAHLIL

FAN

TA'LIM


YANGI O'ZBEKISTON

MAKTAB

INNOVATSIYA

BUYUK KELAJAK

UCHINCHI RENESSANS



@TALQINVATADQIQOTLAR



## KONFERENSIYA QATNASHCHILARI:

- ✓ TALABALAR
- ✓ MAGISTRANTLAR
- ✓ DOKTARANTLAR
- ✓ YOSH OLIMLAR
- ✓ O'QITUVCHILAR

Aniq fanlar  
Tabiiy fanlar  
Tibbiyot fanlari  
Texnika fanlari

Ijtimoiy-gumanitar fanlar  
San'at va madaniyat fanlari  
Jismoniy tarbiya va sport

Iqtisod fanlari  
Filologiya fanlari  
Pedagogika fanlari  
Psixologiya fanlari



TALQINVATADQIQOTLAR.UZ



+99891-152-93-14


Ushbu ilmiy konferensiya “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ilm-fan va ta’lim sohasini rivojlantirishga qaratilgan tegishli qarorlarida ko‘zda tutilgan vazifalar ijrosini ta’minlash, talabalar, magistrantlar, doktorantlar va yosh olimlarning ilmiy tadqiqot natijalarini keng yoritish maqsadida “Talqin va tadqiqotlar” ilmiy-uslubiy jurnali tahririyati (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikasiyalarni rivojlantirish agentligining 1540-sonli Guvohnoma, ISSN 2181-3035, [talqinvatadqiqotlar.uz](http://talqinvatadqiqotlar.uz) veb-sayti) tomonidan tashkil etib boriladi.



# “Ilm-fan muammolari tadqiqotchilar talqinida” mavzusidagi respublika ilmiy konferensiyasi

## MATERIALLARI TO‘PLAMI

10-dekabr, 2024-yil



Google Scholar



**“Ilm-fan muammolari tadqiqotchilar talqinida” mavzusidagi  
respublika ilmiy konferensiyasi  
tahrir kengashi:**

**Abdukarimov Jamoliddin Ahmadaliyevich**

*Xo‘jand davlat universiteti dotsenti (Tojikiston)*

**Djo‘rayev Mabruk Ma‘murjon o‘g‘li**

*O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi*

*Davlat adabiyot muzeyi*

**Masharipova Gularam Kamilovna**

*Falsafa fanlari doktori, professor*

*Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti*

**Qozoqov Tohirjon Qodiraliyevich**

*Namangan davlat universiteti, tarix fanlari nomzodi, dotsent*

**Zokirov Sanjar Ikromjon o‘g‘li**

*Farg‘ona politexnika institutining “Intellectual muhandislik tizimlari” kafedrasida katta*

*o‘qituvchisi, fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori*

**Idrisov Xusanjon Abdujabborovich**

*Farg‘ona davlat universiteti mevalilik va sabzavotchilik kafedrasida mudiri*

*q.x.f.f.d (PhD)*

**Berdieva Lobar Norqobulovna**

*Qashqadaryo viloyat Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish*

*Milliy Markazi “Pedagogika, psixologiya va ta‘lim texnologiyalari”*

*kafedrasida o‘qituvchisi*

**Xamraqulov Serobjon Soliyevich**

*Qo‘qon davlat pedagogika instituti, PhD*

**Raximova Zuxraxon Maxmudovna**

*O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti*

**Baymenova Kamshat Saparbayevna**

*Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti*

**Bazarov Otabek Odilovich**

*Qo‘qon davlat pedagogika instituti, PhD*

**G‘ulomova Nargiza Sa‘dullayevna**

*Navoiy VXTXQTMOHM Tillarni o‘qitish metodikasi katta o‘qituvchisi*

**Djumaniyozova Enajon Kutimovna**

*Toshkent arxitektura qurilish instituti xorijiy tillar kafedrasida katta o‘qituvchisi*

**Urazmetova Shoira Azatbayevna**

*Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalar universiteti*

*Urganch filiali o‘qituvchisi,*

*pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori*

## **O‘ZBEKISTON MADANIY JAMIYATDA MILLIY QADRIYATLAR VA UNGA MUNOSABATNI SHAKLLANTIRISHDA SHAXS OMILINING O‘RNI**

**Ahatova Dilshoda Bahodir qizi**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Filologiya fakulteti talabasi

**G‘afforova Dilnavoz Almatovna**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Filologiya fakulteti talabasi

**Annotasiya:** Mazkur ilmiy maqola O‘zbekiston madaniyatidagi milliy qadriyatlar va ularga munosabatni shakllantirishda shaxsiy omilning rolini tahlil etishga bag‘ishlangan. Maqolada O‘zbekistonda milliy qadriyatlarning shakllanishi, ularning jamiyatda o‘rni va ahamiyati, shuningdek, bu qadriyatlarning shaxsiy ong va tarbiya orqali qanday rivojlanishi ko‘rib chiqiladi. Shaxsning o‘ziga xosliklari, tarbiyasi, psixologik holati va madaniy an‘analarga munosabati orqali milliy qadriyatlar qanday ifodalanishi, qanday qilib shaxsning jamiyatdagi yuksak axloqiy va estetik normalarni qabul qilishi tahlil qilinadi. Maqolada shaxs omilining jamiyatdagi milliy qadriyatlarni mustahkamlash va ularga ijobiy munosabatni shakllantirishdagi ahamiyati ta’kidlanadi. O‘zbek madaniyatining rivojlanishiga shaxsning bevosita ta’siri, milliy o‘zlikni saqlashda va unga yangi zamonaviy qiymatlar kiritishda qanday muhim rol o‘ynashi muhokama qilinadi. Maqolada ilmiy yondashuvda milliy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirish yo‘llarini aniqlashda muhim metodologik asoslarni taqdim etadi.

**Kalit so‘zlar:** Aksiologiya, qadriyatshunoslik, milliylik, qadrsizlanish, umuminsoniy, asrab-avaylash, yoshlar, ong, jamiyat.

**Annotation:** This scientific article is dedicated to analyzing the role of the personal factor in shaping the national values in the culture of Uzbekistan and the attitude towards them. The article examines the formation of national values in Uzbekistan, their place and significance in society, and how these values develop through personal consciousness and upbringing. How national values and expressed through an individual's characteristics, upbringing, psychological state, and attitude

towards cultural traditions and explored, as well as how an individual's acceptance of high moral and aesthetic norms in society occurs. The article emphasizes the importance of the personal factor in strengthening national values in society and forming a positive attitude towards them. It discusses the direct impact of an individual on the development of Uzbek culture, the preservation of national identity, and the introduction of new contemporary values. The article provides important methodological foundations for identifying ways to preserve and develop national values.

**Keywords:** Axiology, value studies, nationalism, devaluation, universality, conservation, youth, consciousness, society.

**Абстракция:** Данная научная статья посвящена анализу роли личностного фактора в формировании национальных ценностей в культуре Узбекистана и отношения к ним. В статье рассматривается формирование национальных ценностей в Узбекистане, их место и значение в обществе, а также как эти ценности развиваются через личное сознание и воспитание. Исследуется, как национальные ценности выражаются через индивидуальные особенности, воспитание, психологическое состояние и отношение к культурным, традициям, а также, как происходит принятие высоких моральных и эстетических норм в обществе. В статье подчеркивается важность личностного фактора в укреплении национальных ценностей в обществе и формировании к ним позитивных отношений. Обсуждается прямое влияние личности на развитие узбекской культуры, сохранение национальной идентичности и введение новых современных ценностей. Статья предоставляет важные методологические основы для определения способов сохранения и развития национальных ценностей.

**Ключевые слова:** Аксиология, наука о ценностях, национальность, девальвация, универсальность, консервация, молодежь, сознание, общество.

Qadriyat (aksiologiya ) atamasi nimani anglatadi? Aksiologiya (yunoncha axio – qadriyat va logos – fan, ta’limot) – qadriyatshunoslik, ma’naviy hodisalardan biri bo’lgan qadriyatlar sohasini o’rganadigan, uning qonun va kategoriyalarini tadqiq qiladigan ilm yo’nalishi, qadriyatlar haqidagi fan. Qadriyatlar haqidagi ta’limot yaqinda vujudga kelgan deb hisoblash odat tusini olgan. Ammo bu noto’g’ri fikrdir. Falsafa tarixida ildizlari falsafiy tizimlarga borib taqaluvchi ancha kuchli qadriyatlarga doir an’anaga duch kelish mumkin Xususan,uyg’onish davri adabiyotida ham O’rta Osiyo ilm-fan namoyandalari Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Rumi ijodida insonparvarlik va hur fikrlilik qadriyatlari birinchi o’ringa chiqqan. Qadriyatlar tushunchasi insonning dunyoga bo’lgan munosabatining alohida jihatini namoyon etadi. Xususan, O’zbekiston hududida Sovet hukumati tomonidan o’tkazilgan ba’zi chora tadbirlar natijasida, avvalambor, inson qadri qadrsizlana boshladi. Keyinchalik, 1926-yilga kelib, Sovet hukumati tomonidan Navro’z bayramini nishonlash taqiqlandi. Lekin mamlakatimiz o’z milliy qadriyatlariga sodiq qolgan holda bu bayramni o’zlarining uylarida nishonlashga harakat qilishdi. 1989-yil 29- fevralda Navro’z bayramini nishonlash to’g’risida qaror qabul qilindi. O’sha davrdan boshlab qadriyatlar tushunchasi eng oliy tushuncha sifatida qaralgan. Lekin, afsuski, hozirgi kunda ba’zi qadriyatlarlarimizning yo’qolib borayotganligi sir emas. Qadriyatlarning yo’qolib borayotganligiga asosiy sabab bu-texnologiyalarning shiddat bilan rivojlanib borayotganligi. Bunga misol qilib aytadigan bo’lsak, ilgari kichik bolalar yoki nabiralar yoshi qari insonlarning ya’ni bobo-buvilarining uyiga borishar edi. Ular hech qachon bu holatdan zerikishmagan. Lekin hozirgi kunda bu holatni deyarli kuzatmaymiz, ular telefon orqali bobo-buvilarining hol-axvollarini so’rashadi ba’zilari esa hattoki buni qilmaydi ham. Bu yo’qolib borayotgan qadriyatlarimizdan bittasi. Bundan tashqari, mehr -muhabbat tushunchasi kamaymoqda bunga asosiy sabab insonlar hayotining asosiy mazmunini pul deb tushunishmoqda hatto mana shu pul orqali aka-ukasidan, opa-singlisidan, do’st-og’aynisidan, farzandlar ota-onasidan voz kechmoqda bu qadriyatlarimizning yo’qolib borayotganligidan darak emasmi? Pul hayotning mazmuni emas, undan muhimroq narsalar bor. Yana muhim qadriyatlarimizdan biri bu milliyligimizni

qadrsizlanayotganligi. Afsuski, hozirgi kunda yoshlarimiz Yevropa uslubida kiyinishga harakat qilishadi ular nazarida bu kiyimlar ular uchun qulay va zamonaviy. Lekin milliylikimizga nima yetsin. Milliy liboslarimiz bizga o‘zgacha tarovat bag‘ishlashi hammaga ma’lum-ku. O‘zbek do‘ppisi, xon atlas, chaman do‘ppisi chopon bular axir bizning qadriyatlarimiz emasmi. To‘g‘ri bu kiyimlarni har kuni ham kiyish noqulay lekin bayramlarda, sayllarda, turli tadbirlarda, biz o‘zligimiz o‘zbegimizni ko‘rsatish uchun kiysak yaxshi-ku. Yosh avlod 18 yoshga yetgandan so‘ng, o‘zlarini mustaqil his etishadi. Ular kattalarning, keksalarning gapiga quloq solishmaydi, bu ham bizning yo‘qolib borayotgan ijtimoiy qadriyatlarimizdir. Mahallaga, Vatanga, Oilaga bo‘lgan muhabbat bizni yetuk va barkamol, aqlimizni teran qiladi.

Qadriyatlarimizning namoyon bo‘lishida umuminsoniy, an’anaviy, milliy liboslar, marosimlarning o‘rni kattadir.

Hozirgi kunda milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylash borasida bir qator chora tadbirlar olib borilmoqda. Xususan, Surxondaryo vohasida Boysun bahori har yili o‘tkazilib kelinmoqda. Tadbirdan ko‘zlangan asosiy maqsad yoshlar ongida milliylikni uyg‘otish, ularni an‘analarga bo‘lgan munosabatini yanada yaxshilash va qadriyatlarni qayta tiklashdir. Boysun bahori tadbirida milliylikimizni aks ettiruvchi liboslar: atlas, chaman do‘ppi, chopon, iroqi do‘ppilar ko‘rgazmasi bo‘ladi. Yosh yigit-qizlar milliylikimizni tarannum etuvchi liboslarda bo‘lishadi. Ayniqsa do‘mbira, tor jo‘rligida qo‘shiqalar aytishib, raqsga tushishadi. Milliylikimizni aks ettiruvchi taomlar ko‘rgazmasi ham bo‘lib o‘tadi. Ko‘rgazmada O‘zbekistonning eng mashhur va milliy ovqatlar (osh, somsa, chuchvara, manti) namoyish etiladi. Tadbirda turli davlat vakillari ishtirok etishadi. Ular O‘zbek xalqining an‘analarini ko‘rishadi. Tadbirning eng qizg‘in tarafi shundaki, yigit va qizlar milliy o‘yinlarimizni (chillak, varrak uchirish, oq terakmi ko‘k terak, ko‘pkari, boychechak) o‘ynashadi. Tadbir davomida eng qiziq o‘yinlardan bittasi ko‘pkari o‘yini o‘ynaladi. Bu o‘yin qadimiy o‘yinlarimizdan bir bo‘lib kelmoqda. Hozirgi kunda ham voha tomonlarda bu o‘yin muntazam ravishda o‘ynalib kelinmoqda. Boysun bahori ham Navro‘z bayrami kabidir Milliylikimizni anglash uchun bu bayram ham Navro‘z bayrami singari har

yili nishonlanib kelinmoqda. Bayramning uzoq muddat davom etishi xorijlik mehmonlar uchun juda yaxshidir. Ular bizning xalqimiz va milliy urf-odatlarimiz haqida o‘zgacha tasavvurga, taassurotga ega bo‘lishadi. Umuminsoniy qadriyatlar jamiyat hayotida muhim ahamiyatga egadir. Qadriyatlarni qadrlash orqali inson nafaqat o‘zligini balki millatni ham anglab oladi. Qadriyatlar mazmuniga qarab, butun jamiyat haqida hukm chiqarish mumkin. Qadriyatlarimizni asraylik, bu qadriyatlarni yosh avlodga yetkazish bizning muhim vazifalarimizdan bittasidir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abdug‘aniyev,A (2017). O‘zbekiston milliy qadriyatlari va ularning jamiyatdagi o‘rni. Toshkent: Yozuvchilar uyushmasi.
2. Kamilov, Sh (2015). O‘zbekiston madaniyati va ijtimoiy taraqqiyot. Toshkent: O‘zbekiston Universiteti nashriyoti.
3. Sharipov,I (2018).Milliy qadriyatlar va zamonaviy ta’lim.Toshkent: Falsafa instituti nashriyoti.
4. Yo‘ldoshev,A (2020). O‘zbek xalqi madaniyati va an‘analari. Toshkent: O‘zbekiston akademik nashriyoti.
5. Sulstonov, D (2019), Shaxsiy omil va milliy qadriyatlarni shakllantirishdagi roli. Toshkent: Ta’lim va ilmiy tadqiqotlar nashriyoti.
6. Khamdamov,M (2014), Milliy qadriyatlar va ijtimoiy taraqqiyot. Masalalar va yechimlar.Toshkent: Iqtisodiyot va Madaniyat nashriyoti.
7. Akhmedov,A (2016), Jamiyat va shaxs. Milliy qadriyatlar shakllanishidagi muhim omillar. Toshkent: O‘zbekiston fanlar akademiyasi.
8. Turgunov,F (2017), Zamonaviy dunyo va milliy qadriyatlarni saqlash.O‘zbekisto tajribasi. Tashkent: O‘zbekiston fanlar akademiyasi.
9. Ziyodullayev,M (2021), Psixologiya va tarbiya.Milliy qadriyatlar shakllanishi.Toshkent: Psixologiya va Ta’lim nashriyoti.
10. Sayfullayev, B (2014),Shaxs va jamiyat.Milliy qadriyatlarni rivojlantirishdagi roli. Tashkent: Inson va jamiyat nashriyoti.

## **AMARANT O‘SIMLIGIDA UCHROVCHI TO‘DA HOSIL QILMAYDIGAN ZARARLI CHIGIRTKALAR MAJMUASINING BIOEKOLOGIYASI VA ULARGA QARSHI MIKROBIOLOGIK PREPARATLARNING SAMARADORLIGI**

**Saidganiyeva Shahodatxon Talatbek qizi**

O‘rmon xo‘jaligini rivojlantirish innovatsiya markazi kichik ilmiy hodimi

**Annotatsiya:** Ushbu maqol O‘tkazilgan tajribada Novakrid n.kuk. 0,025-0,04 kg/ga sarf-me‘yorida qo‘llanilgan har ikki variantda 1-3-5-kundan keyin biologik samaradorligi juda kam bo‘lganligi qayd etildi. Ammo, 7-kundan keyin 34,7-36,3%, 9-kundan keyin esa 55,3-59,0% biologik samaradorlik olindi. Tadqiqotning 11-kunida 84,3-89,0%, 15-kunida esa 88,4-93,6% biologik samaradorlik qayd etildi

Andoza variantida Novakrid n.kuk. preparati 0,05/ga sarf-me‘yorda qo‘llaganda 1-3-5-kundan keyin mikrobiologik preparatning biologik samaradorligi juda kam, 7-kuni 42,7%, 9-kunga kelib 66%, 11-kunga kelib 91,2%, 15- kunga kelib esa 95,1 % biologik samaradorlikka erishildi. Nazorat variantida esa to‘da hosil qilmaydigan zararli chigirtkalarining yoppasiga nobud bo‘lishi kuzatilmadi.

Amarant o‘simligining dominant zararkunnadasi hisoblangan to‘da hosil qilmaydigan zararli chigirtkalar majmuasining biekologiyasi va ularga qarshi qo‘llanilgan mikrobiologik preparatning samaradorligi keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** amarant, chigirtkalar, mikrobiologik preparat, biologik samaradorlik.

Ma’lumki, dunyoda va Respublikamizda har qanday oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish va tayyorlashda ekologik tozaligiga e’tibor qaratish har vaqtlarda ham asosiy o‘rinda turgan vazifalardan bo‘lib kelmoqda. Xuddi shunday amarant o‘simligidan ham mo‘l va jahon standartlariga mos ekologik sof, raqobatbardosh, sifatli urug‘ hosilini olishda ilmiy asoslangan mikrobiologik kurash chora-

tadbirlaridan foydalanish o‘simliklarni zararkunandalardan himoya qilishda asosiy usul hisoblanib, ular sonini kamaytirishda beqiyos o‘rin tutadi.

Lavlagi uzunburuni, chigirtkalar va tunlamalar oilasiga kiruvchi hasharotlar kabi zararkunandalar amarant yetishtiradigan barcha mamlakatlarda ham keng tarqalgan zararkunandalardan hisoblanadi. Ushbu zararkunandalar amarant urug‘ining sifatiga va barglariga jiddiy zarar yetkizmoqda. 2021-2023 yillarda amarant ekilgan tajriba maydonlarda to‘g‘riqanotli hasharotlar turkumiga mansub, to‘da hosil qilmaydigan zararli chigirtkalarining bir nechta turlari uchraganligi qayd etildi. Bular orasidan eng ko‘p tarqalgan turi marokash chigirtkasining to‘da hosil qilmaydigan shakli uchraganligi kuzatildi. Bu turdagi chigirtkalarga o‘z vaqtida kurash chora-tadbirlari o‘tkazilmasa, o‘simliklarning barcha qismini zararlab jiddiy talofat keltirishi kuzatiladi.

Marokash chigirtkasi. (*Dociostaurus maroccanus* Thunberg). Dunyo – hayvonlar (Animals), kenja dunyo-ko‘p xujayralilar, tip-bo‘g‘imoyoqlilar (Artropoda), kenja tip-traxeyalilar (Tracheata), sinf-hasharotlar (Insecta), turkum-to‘griqanotlilar (Orthoptera), oilasi- *Dociostaurus* ga mansub hasharot hisoblanadi.

Marokash chigirtkasi to‘da hosil qiluvchi chigirtka bo‘lib, barcha qishloq xo‘jalik o‘simliklarini zararlaydi. Jumladan, arpa, bug‘doy, oq jo‘xori, tariq, makkajo‘xori, tamaki, beda, g‘o‘za va poliz ekinlariga ayniqsa katta zarar yetkazadi. Yoppasiga ko‘paygan yillarda mevali daraxtlarning barglari bilan ham oziqlanadi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, marokash chigirtkasi lichinkalari tuxumdan erta bahordan chiqishi adabiyotlarda ko‘rsatilgan bo‘lib, tuproqning ustki qatlami harorati +10°C ga yetganda tuxum ko‘zachalaridan lichinkalar chiqishni boshlaydi. Bahor sovuq kelgan yillarda esa aprel oyining o‘rtalarida tuxumdan chiqadi. Tuxumdan chiqqan lichinkalar 3-6 kun mobaynida mavsumiy efemer o‘tlar bilan, yoshi ulg‘aygan sari boshqa turdagi efemer va efemeroid o‘simliklar bilan ham oziqlanadi. Marokash chigirtkasining lichinkalik davri 25-28 kun davom etadi, ayrim hollarda, ya‘ni o‘ta qurg‘oqchilik yillarda u 20 kun davom etishi mumkin. Lichinkalar yosh jihatdan kattalashgan sari ular egallagan maydoni ham kengayib boradi. Bunday holat ayniqsa qurg‘oqchilik yillarda kuzatiladi. Besh yoshni o‘tagan lichinkalar yetuk zotga

o‘tadi va zo‘r berib oziqlana boshlaydi. Marokash chigirtkasi qanot chiqargandan so‘ng 6-10 kun o‘tgach urchiy boshlaydi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, urg‘ochi chigirtkalar 25-30 kun mobaynida uch uch dona tuxum ko‘zacha qo‘yadi. Urchigan erkak chigirtkalar bir necha kunda tabiiy nobud bo‘ladi. Tadqiqot maydonida chigirtkalar unib aprel oying ikkinchi dekadasidan to iyul oyiga qadar uchradi. Chigirtkalar o‘simlikni unib chiqish davridan gullash davriga qadar ko‘p zararlaganligi qayd etildi.

O‘tkazilgan tadqiqotlarda marokash chigirtkasining to‘da hosil qilmaydigan shakli Andijon viloyati, Marhamat tumanida uchraganligi qayd etildi. 2021-2023 yillar tadqiqot yillari kesimida to‘da hosil qilmaydigan zararli chigirtkalarining dala maydonida uchrashi va o‘simliklarni zararlash holatlari o‘rganildi. Ko‘zachalar hasharotning yosh lichinkalarining tashqi muhitga chiqishi aprel oyining 2-dekadasidan dala maydonlarida kuzatildi. Chigirtkalar amarant o‘simligi bilan oziqlanishi aprel oyining 3-dekadasida yaqqol sezildi. Tadqiqot yillari kesimida olganimizda zararli chigirtkalar bilan o‘simlikni zararlanishi ko‘proq 2023-yilgi ilmiy tadqiqotlarimizda aniqlandi.

Zararkunandalarning eng ko‘p dala maydonida uchrashi va zararlashi may oyining 2-dekadasida kuzatilib, shu oyda ularga mikrobiologik preparatlar bilan ishlov berildi. Ishlov berish natijasida zararli chigirtkalarining soni va o‘simliklarning zararlash darajalari oylik dekadalarda asta-sekin kamayganligi kuzatildi.

### 1-jadval

#### **Amarant o‘simligida uchrovchi marokash chigirtkasiga qarshi mikrobiologik preparatining biologik samaradorligi**

Andijon vil. Marhamat tumani Andijon tajriba-ko‘rgazma maydoni

Variantlar	Sarf-me‘yor, kg/ga	1m <sup>2</sup> maydondagi zararkunandalarning o‘rtacha soni, dona							
		Ishlovgacha zararkunandalar soni/dona	Ishlovdan n kundan keyin						
			1	3	5	7	9	11	15
Novakrid n.kuk. (andoza)	0,05	10,3	10,2	10,1	9,4	5,9	3,5	0,9	0,5
Novakrid n.kuk.	0,025	12,1	12,1	11,9	11,2	7,9	5,4	1,9	1,4

Novakrid n.kuk.	0,04	11,0	11,0	10,8	10,1	7,0	4,5	1,2	0,7
Nazorat	-	11,9	11,9	11,7	11,1	10,9	10,7	10,5	10,0
Biologik samaradorlik, %									
Novakrid n.kuk. (andoza)	0,05	10,3	0,9	1,9	8,7	42,7	66,0	91,2	95,1
Novakrid n.kuk.	0,025	12,1	0,0	1,6	7,4	34,7	55,3	84,3	88,4
Novakrid n.kuk.	0,04	11,0	0,0	1,8	8,1	36,3	59,0	89,0	93,6
Nazorat	-	11,9	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0

O‘tkazilgan tajribada Novakrid n.kuk. 0,025-0,04 kg/ga sarf-me’yorida qo‘llanilgan har ikki variantda 1-3-5-kundan keyin biologik samaradorligi juda kam bo‘lganligi qayd etildi. Ammo, 7-kundan keyin 34,7-36,3%, 9-kundan keyin esa 55,3-59,0% biologik samaradorlik olindi. Tadqiqotning 11-kunida 84,3-89,0%, 15-kunida esa 88,4-93,6% biologik samaradorlik qayd etildi

Andoza variantida Novakrid n.kuk. preparati 0,05/ga sarf-me’yorda qo‘llaganda 1-3-5-kundan keyin mikrobiologik preparatning biologik samaradorligi juda kam, 7-kuni 42,7%, 9-kunga kelib 66%, 11-kunga kelib 91,2%, 15-kunga kelib esa 95,1 % biologik samaradorlikka erishildi. Nazorat variantida esa to‘da hosil qilmaydigan zararli chigirtkalarining yoppasiga nobud bo‘lishi kuzatilmadi.

**Xulosa.** Tajribalar natijasiga ko‘ra, Novakrid n.kuk. mikrobiologik preparati to‘da hosil qilmaydigan shakldagi zararli chigirtkalarga qarshi 0,025 kg/ga sarf-me’yoriga ko‘ra, 0,04 kg/ga sarf-me’yorida qo‘llanilganda yuqori biologik samaradorlikni ko‘rsatdi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Tufliyev N.X., Gapparov F.A., Xaytmuratov A.F. Zararli chigirtkalar monitoringi va bioekologiyasi // Agro ilm jurnali. –Toshkent. - №4 (36). -2015. –B. 60.

2. Gapparov F.A., Nurjanov A.A., Tufliyev N.X. O‘zbekistonda zararli chigirtkalarni ekologik monitoringi va ularga qarshi kurash tizimini modernizatsiya qilish (oralik) // Hisobot.- Toshkent, 2009. – B. 4-25.

3.Хо‘jaev Sh.T. Insektitsid, akaritsid, biologik aktiv moddalar va fun-gitsidlarni sinash bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar. / (qayta ishlangan va to‘ldirilgan II nashr). – Toshkent: «KO‘HINUR», 2004. – B. 3-16.

4. <https://ru.wikipedia.org/>

5.Саидганиева Ш.Т., Туфлиев Н.Х “Виды основных вредителей растения амарант и степень их встречаемости” международная научно-практическая конференция по теме “Инновационные технологии защиты растений в продуктовой безопасности” 2021 год (2) с 240.

6. Nodirbek, T., & Kizi, S. S. T. (2021). Cultivation of the medicinal plant amaranth and its entomofauna. *Universum: химия и биология*, (11- 2 (89)), 70-73.

7. Саидганиева, Ш. Т., & Туфлиев, Н. Х. (2021). Биологические свойства растения амарант и его значение в сельском хозяйстве. *Вестник аграрной науки*, 1, 85.

8. САИДГАНИЕВА, Ш. АКТУАЛЬНЫЕ ТРЕНДЫ В НАУКЕ И ОБРАЗОВАНИИ. Наука и Просвещение (ИП Гуляев ГЮ) КОНФЕРЕНЦИЯ: АКТУАЛЬНЫЕ ТРЕНДЫ В НАУКЕ И ОБРАЗОВАНИИ Пенза, 08 января 2024 года Организаторы: Наука и Просвещение (ИП Гуляев ГЮ).

## **KASB-HUNARGA YO`NALTIRISH BUGUNGI DAVR TALABI**

**Anvarbekova Dildora Iqboljon qizi**

Andijon viloyati Jalaquduq tumani MMTB ga qarashli

14-maktab amaliyotchi psixologi

**Annotatsiya:**Yosh avlodni kelajakda yetuk mutaxassis bo`lib yetishishi uchun ularni kasb-hunarga to`g`ri yo`naltirish, yo`nalishni to`g`ri tanlashlariga ko`maklashish yoshlarni kelajagida muhim o`rin tutadi.

**Kalit so`zlar:** Kasb-hunar, kasbiy tanlov, ijtimoiy-kasbiy moslashuv, mas`uliyat, mehnat, oila, jamiyat.

Har qanday jamiyat, jamiyatning kichik bo`g`ini bo`lmish-oilaning taraqqiyoti, boyligining manbayi, insoniyat tomonidan moddiy va ma`naviy boylik yaratishning asosiy omili mehnatdir. Jamiyatning ijtimoiy shakli qanday bo`lishidan qat`i nazar, mehnat moddiy va nomoddiy ne`matlar ishlab chiqarishda zarur faoliyat bo`lib qoladi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta`kidlaganidek, iqtisodiy islohotlar va ijtimoiy o`zgarishlarning samarasi, birinchi navbatda, aholining moddiy ahvoli va farovonligiga, uning hayot darajasi hamda sifatiga qay darajada ta`sir ko`rsatayotgani bilan o`lchanadi. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabrda Oliy Majlisga va O`zbekiston xalqiga Murojaatnomasida ta`kidlaganidek, odamlarimizni kasb-hunarli qilish, ularning biznesiga keng yo`l ochish, haqiqiy mulkdor bo`lib, daromad topishi uchun zarur sharoitlarni yaratish davlatning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Buning uchun yosh avlodni ta`limning eng quyi pog`onalari-maktabgacha va maktab ta`limi jarayonida kasb-hunarga to`g`ri yo`naltirish lozim. O`quvchilarni kasb-hunarga yo`naltirish tizimi kasbiy targ`ibot va tashviqotni o`z ichiga olgan kasbiy ma`rifat (kasbiy axborot); u yoki bu soha, kasbga bo`lgan shaxs qiziqish va qobiliyatlarining birlamchi kasbiy tashxisi, kasb tanlashda mutaxassislar tomonidan individual, guruh yordam ko`rsatishga qaratilgan kasbiy maslahatlar, ko`proq muvofaqqiyatga erishishi

mumkin boʻlgan kasbni tanlab olishga qaratilgan kasbiy tanlov, ishlab chiqarish amaliyoti jarayonida amalga oshiriluvchi ijtimoiy-kasbiy moslashuv, tanlangan kasbni oʻrganish jarayonida burch, masʼuliyat, kasbiy or-nomus hislarini oʻquvchilarda shakllantirishga qaratilgan. Undan koʻzlangan maqsad oʻquvchilarga kasblar olami, kasblarning belgi va xususiyatlari, kasb klasifikatsiyasi, kasblar professiogrammasi, hududning qaysi kasblarga ehtiyoji borligi toʻgʻrisidagi axborotlarni berishdan iborat boʻlib, ular asosida oʻquvchi oʻzini qiziqtirgan, jamiyat uchun zarur boʻlgan kasbni tanlaydi. Bugungi kunda Prezidentimiz tomonidan mamlakatimizni rivojlantirish uchun kelajagimiz poydevorlari boʻlgan yosharimiz oldiga juda katta maqsadlar qoʻyib, ularga yuksak ishonch bildirilmoqda. Oldimizga qoʻygan buyuk maqsadlarimizga, orzu-niyatlarimizga erishishimiz, jamiyatimizning yangilanishi, hayotimizning taraqqiyoti va istiqboli amalga oshirilayotgan islohatlarimiz, rejalarimizning samarasi taqdiri – bularning barchasi, avvalambor, zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongli mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan chambarchas bogʻliqligini barchamiz anglab yetmoqdamiz. SHu bilan birga, hammamiz yana bir haqiqatni anglab yetmoqdamiz. Faqatgina chinakam maʼrifatli odam inson qadrini, millat qadriyatlarini, bir soʻz bilan aytganda, oʻzligini anglash, erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida oʻziga munosib, obroʻli oʻrin egallashi uchun fidoyilik bilan kurashishi mumkin.

Ijtimoiy taraqqiyotni roʻyobga chiqarish uchun mamlakatda yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash va ularni jahon standartlari darajasiga koʻtarmoq lozim, fan va texnikaning bugungi kun taraqqiyotiga javob berish uchun keng saviyali, bilimdon, oʻz kasbining fidoiy kishisini kamol toptirish orqali davlatimizda bozor iqtisodiyotiga bardosh beradigan, raqobatbardosh mahsulotlar yaratuvchi kasb egalarini shakllantirish joiz. Toki ular davr talablariga ogʻishmay javob beradigan, qiziqishi keng, malakasi mustahkam, xotirasi barqaror, fikr yuritishi puxta, izlanuvchan, mehnatsevar, vatanparvar, iymon-eʼtiqodli, barkamol insonlar boʻlib voyaga yetishadi. Buning uchun uzluksiz taʼlim tizimining barcha jabhalarida oʻquvchilarni kasbga yoʻnaltirishning ahamiyati kattadir. Aytish mumkinki, barkamol

insonning shakllanishi, uning munosib kasb-hunarni egallashi, jamiyat taraqqiyoti uchun baholi qudrat o‘z hissasini qo‘shib, yashashi va shu orqali jamiyatda o‘zligini namoyon etishi, ya’ni shaxs sifatida kamol topishi nazarga olinadi. Komillik sari intilish shaxsning kasbiy shakllanishi bilan birgalikda yaxlit holda kechadigan va deyarli bir umr davom etadigan murakkab jarayondir. Keng ma’noda kasbiy shakllanish deganda insonning o‘z aqliy qobiliyatlari, jismoniy imkoniyatlari, u yoki bu sohaga bo‘lgan layoqatlari, qiziqish va intilishlari, shuningdek, qadriyat va dunyoqarashlariga ko‘ra biron-bir kasb sohasida ta’lim olishi, keyinchalik shu sohaga kirishib, moslasha borishi va nihoyat yillar davomida yetuk va malakali mutaxassis bo‘lib etishishi tushiniladi. Haqiqatdan ham bu cheksiz murakkab, orqaga qaytarilmaydigan, muhim jarayon bo‘lib, undan inson manfaatlari yo‘lida unumli foydalanishni tashkil etish, bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir. Agar inson bu murakkab jarayonda to‘g‘ri qabul qilish orqali o‘zi uchun eng munosib kasbni tanlasa va ushbu kasbning yetuk mutaxassisi bo‘lib yetishsa, ham o‘zi uchun, ham jamiyat uchun har tomonlama foydali bo‘ladi. Chunki, inson qachonki o‘z sevgan kasbi bilan shug‘ullanar ekan uning ish faoliyatida samaradorlik shunchalik yuqori bo‘ladi. Aks holda, inson ish faoliyati hech qanday samaradorlik va yutuqlarga erisha olmaydi. Shu bilan birgalikda, inson umri davomida faqatgina moddiy manfaatlarini ko‘zlab, o‘zi uchun qiziq bo‘lmagan kasb bilan shug‘ullanishi uning ruhiy holatiga ham salbiy ta’sir qilmasdan qolmaydi. Aynan shunday muammolar yuzaga kelmasligi uchun farzandlarni bolalik chog‘idanoq ota-onalar ularning qiziqishlari qaysi sohaga ko‘proq moyilligiga e’tibor berib, ulardagi bu qiziqishni yana rivojlanishiga yordam berishlari lozim. Keyinchalik bu qiziqishlarga maktabda turli trening va metodik o‘yinlar yordamida bolaning ustozlari tomonidan yanayam aniqlik kiritilib, bolaning o‘zi uchun maqul kasbni tanlashiga yordam berilib, kelajagi uchun eng muhim bo‘lgan kasb-hunar tanlashdagi qarorni to‘g‘ri qabul qilishiga yordam berishlari, bolaning kelajakdagi o‘z kasbi yoki hunarining yetuk mutaxassisi bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Har tomonlama yetuk va malakali mutaxassislar esa jamiyatimiz taraqqiyoti uchun juda ham zarur. Shunday ekan yoshlarni kasb-hunarga yo‘naltirish masalasiga jiddiy e’tibor qaratish lozim

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. 2019-yilning 29-aprel.
2. A.Zokirov, K.Farfieva, G.Burxonova, S.Alimxodjaeva. Kasb-hunarga yo‘naltirish jarayonida o‘quvchi shaxsini o‘rganish metodikalari.- T: 2006 yil
3. V. Karimova “Psixologiya” Toshkent. 2002 yil
4. M.Abdullajonova, M.Isoqova, M.Zokirova, S.Isroiljonova Ijtimoiy psixoloik trening prktikum. – Farg‘ona: “Farg‘ona” nashriyoti, 2003 yil
5. Y.Asadov. “O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirishda qo‘llaniladigan psixologik-pedagogik tashxis metodikalari”. Toshkent. 2010 yil

### **ELEKTRON TA’LIM RESURSLARI**

1. <http://www.edu.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi portali.
2. <http://www.uzedu.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi portali.
3. [http:// www.rtm.uz](http://www.rtm.uz) – Respublika ta’lim markazi sayti

## ZULFIYA QALAMIGA MANSUB SHE’RDA UCHRAGAN BADIY SAN’ATLAR TAHLILI

**Abduvohidova Farangiz Vahob qizi**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti 3-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** xalqimizning iste’dodli shoirasi Zulfiya davlatning yuqori lavozimlarida faoliyat olib borgan. Bundan tashqari, nashriyot sohasini gullab-yashnashiga ham o‘z hissasini qo‘shgan. She’rlarida erk va ozodlikni tarannum etgan. Shunday she’rlaridan biri bu “bugun tunda kelarmish bahordir. Uning biz yoshlar uchun qilgan xizmatlari va ma’daniy merosi beqiyos. Shoira qizlarimiz uchun shu nomdagi davlat mukofoti ham ta’ sis etilgan.

**Kalit so‘z:** Zulfiya, bahor, tashbeh, tazod, tanosub.

Xalqimizning ardoqidagi suyuqli shoira, sadoqatli ayol timsolida gavdalanadigan Zulfiya Isroilova 1915-yilning 1-martida tavallud topgan. Uning otasi Ismoil ota temirchilik bilan oila tebratgan. Taniqli adiba 1922-1931-yillarda ilk tahsilini ola boshlagan. Keyingi 3 yil davomida esa qizlar bilim yurtida tahsilini davom ettirdi. Shoira 1935-1938-yillarda Til va adabiyot instituti aspertanturasida o‘qigan. Uning ilk she’ri 1931- yilda “Ishchi” gazetasida chop etilgan. 1932- yilda “Hayot varaqalari” she’rlar to‘plami bosib chiqarilgan. Shundan so‘ng uning “Temiroy”, “She’rlar”, “Qizlar qo‘shig‘i” kabi she’riy kitoblari e’lon qilinadi. Shoiraga eng katta muvaffaqiyatni “Uni Farhod der edilar”, “Hijron kunlarida”, “Hulkar” nomli to‘plamlari keltirgan. Turmush o‘rtog‘i Hamid Olimjonning bevaqt vafoti sababli shoira ancha tushkun kayfiyatga tushib qoladi. Ammo shunga qaramay, Zulfiya 1950-yillarning ikkinchi yarmida Osiyo, Afrika yozuvchilarining tinchlik va xalqaro birdamlik shoiri ostida o‘tgan harakatida faol qatnashib, jahonning ko‘pgina mamlakatlariga safar qiladi. “Mushoira”, “ O‘g‘lim sira bo‘lmaydi urush”, “Qozog‘iston o‘lanlari”, “Men chizolmagan surat” singari she’rlari Zulfiyaga katta shuhrat olib keldi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Bolalarga bag‘ishlab

“Lolaqizg‘aldoq” turkum she’rlarini yaratdi. “Semurg‘ yoki Parizod va Bunyod” dostoni asosida qo‘g‘irchoq teatri uchun “Semurg” pyesasi hamda “Zaynab va Omon” opera librettosini yozgan. Uning ko‘pgina asarlari dunyo yuzini ko‘rgan. Zulfiya xalqaro Javaharlal Neru (1968), “Nilufar”(1971) mukofotlari va Hamza nomidagi O‘zbekiston Davlat mukofoti (1970) laureati bo‘lgan. A. S. Pushkin, N. A. Nekrasov, M. Voqif, E. Ognetsvet, Mustay Karim, Amrita Pritam kabi bir qator yozuvchilarning asarlarini o‘zbek tiliga o‘g‘irgan. Uning xizmatlarining naqadar beqiyosligini ko‘rsatish maqsadida Zulfiya nomidagi davlat mukofoti ta’sis etilgan. Shuningdek, bahor fasliga atab ko‘p she’rlar bitgan. Ulardan biri “bugun tunda kelarmish bahor” she’ridir. Bu she’r shoironing bahorga munojoti tarzida yaratilgan. Naqarot sifatida esa “bugun tunda kelarmish bahor” jumlasidan foydalangan. Misralarda ko‘pgina badiiy san’atlardan mohirona foydalangan. Masalan, 1-bandni tahlil qilsak:

Derazangdan mo‘ralab asta,  
Gul yuzingdan bo‘lib shikasta,  
Uzun qishga siltab qo‘lini,  
Ham qalbingdan boshlab yo‘lini,  
To‘qqiz oyki, yelarmish bahor,  
Bugun tunda kelarmish bahor...

Ushbu misralarda tashxis – jonlantirish san’atidan unumli foydalanilgan. Bu yerda bahorning derazadan mo‘ralashi, qishga qo‘lini siltashi, yo‘lni boshlashi kabi o‘xshatishlar inson harakatini jonsiz predmet-hodisalarga ko‘chirilishi natijasida yuzaga kelgan. Gul yuzidan shikasta bo‘lish tasviri orqali esa biz-biriga zid holatlar nazarda tutilgan. Ya’ni, chiroyli yuzni ko‘rishi oqibatida shikasta bo‘lgan, shikastlangan deyilmoqda.

Qor-u muzni suvga g‘arq qilib,  
Izg‘irinni butkul tark qilib,  
Eshitgandek mening nolamni,  
Guldastaga o‘rab olamni-  
Tushda boshing silarmish bahor,

Bugun tunda kelarmish bahor...

Ushbu baytlarda faqat tashxis emas, balki tashbeh hamda tanosub san’atlaridan ham samarali foydalangan. Qor – muz – suv kabi soʻzlar mazmunam barchasi suyuqlikning tabiatda uchraydigan har xil holatlaridir. Bir-biriga yaqin soʻzlarning qoʻllanishi tanosub san’atini yuzaga chiqaradi. Soʻng tashbeh – oʻxshatish san’atini ham bu badda koʻrish mumkin. Eshitgandek soʻzidagi -dek qoʻshimchasi oʻxshatish uchun vosita boʻlgan. Har bir misrasida tashxis san’ati mavjud.

Hissiyotga toʻldirib dilni,  
Kengaytirib kichik koʻngilni,  
Duolarga ijobat yetib,  
Tabiatni jamanzor etib,  
Baxtimizdek kularmish bahor,  
Bugun tunda kelarmish bahor...

Bu misrada tashxis san’atidan tashqari, tazod – qarshilantirish va tashbeh – oʻxshatish san’atlari ham namoyon boʻlgan. Keng – kichik soʻzlari koʻngilning hajmi sifatida kelgan va bir-biriga zidlangan. Baxtimizdek soʻzidagi –dek qoʻshimchasi yordamida tashbeh san’ati vujudga kelgan.

Bu she’rda bahor sogʻinchi, bahor kelsa baxt kelishiga oʻzgacha bir umid bordek tasvirlangan. Bahor bu – yangilanish, yasharish, koʻklam fasli. Qishdan ozor chekkan qalblar bahorni intiqlik bilan kutgan. Va nihoyat, ular kutgan kun kelgani sababli oʻz shodliklarini izhor qilishyapti. balki, bu misralardagi “bahor”da ramziylik bordir? Balki, xalq qiyin hayot tarzidan, zugʻum va mustamlaka davlat zulmidan ozod boʻlish uchun bu faslni chorlayotgandir. Bahor bu hayotning davom etaverishiga ishoradir. Shoira bu orqali mustaqillik, erkinlik baxtini yurti tomon chorlamoqda. Zulfiya vafoli yor, mehribon ona va yaxshi hamkasb boʻlgan. Ijod sohasida ham koʻp yutuqlarga erishgan. Biz keyingi maqolalarimizda ham shoira ijodini tahlil qilishda davom etamiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

- 1)6-sinf adabiyoti.”Ma’naviyat”.:Toshkent – 2017
- 2)10-sinf adabiyoti. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashri.:Toshkent – 2017.
- 3)m.aniq.uz
- 4)uz.m.wikipedia.org

## **МАСОФАВИЙ ЎҚИТИШНИНГ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДАГИ УСТУНЛИК ЖИХАТЛАРИ ВА УНИНГ ЎҚУВ ЖАРАЁНИДАГИ АХАМИЯТИ**

**Ботирова Нигорахон Шухратжон қизи**

Тошкент ахборот технологиялари университети, Информатика асослари  
кафедраси ассистенти

E-mail: n.botirov88@gmail.com

**Аннотация:** Ушбу мақолада масофавий таълимнинг ўзига хос хусусиятлари ва устунлик жихатлари келтирилган бўлиб, ҳозирги кунда электрон ўқитишнинг канчалик аҳамият касб этилиши ёритилган.

**Калит сўзлар:** масофавий таълим, масофавий модел, электрон таълим ресурслари.

Сўнгги йиллар мобайнида анъанавий таълим шакллари билан биргаликда масофавий таълим технологиялари жадаллик билан кенг жорий этилмоқда. Бу ҳозирги ёшларнинг, яъни янги авлоднинг кўпчилиги шахсий компьютердан эркин фойдалана олиши ва ҳозирги кунда ҳар бир таълим муассасаси, ҳар бир шахс Интернет тармоғи ва ундаги маълумотлардан моҳирлик билан фойдаланишига боғлиқ бўлиши мумкин. Ушбу мавзуга киришиш жараёнида аввал, масофавий таълим бўйича халқаро мавжуд тажрибаларга тўхталиб ўтиш ва унинг асосий дидактик тушунчаларини кўриб чиқиш мақсадга мувофиқдир. Жумладан, кўпинча электрон ўқитиш, масофавий таълим технологиялари ва шулар каби тушунчалар санаб ўтилишини учратамиз. Бу тушунчалар ўхшашми, улар орасида фарқлар борми, улар бир бирининг ўрнини босадими, уларни бирлаштириш мумкинми деган саволларга атрофлича жавоб топишга ҳаракат қиламиз.

Масофавий таълим. Масофавий таълим технологиялари — бу таълим олувчи ва педагог ходимнинг тўлиқ ёки қисман масофадан ўзаро фаолиятида

асосан ахборот ва телекоммуникация технологияларини қўллаб амалга ошириладиган таълим технологиялари тушунилади.

Масофавий таълим соҳасида нуфузли назарий ишланмалар мавжудлигига қарамасдан, таълим жараёнини ташкил қилиш шакли сифатида ҳозирда масофавий таълим технологияларидан фойдаланиш кенгроқ ҳисобланади. Масофавий таълим технологияларини қўллашда таълим оловчи машғулотда қатнашмайди, лекин топшириқларни бажаради ва тьютор билан электрон почта орқали мулоқот қилади ёки тьютор таълим оловчиларга дарсдан ташқари вақтда блог ёки сайт орқали консультация беради.

Масофавий ўқитиш жараёнини амалга оширишда интерфаолликни таъминлаш мақсадида асосан ахборот-коммуникация технологиялари воситалари, интернет технологияларидан кенг фойдаланган ҳолда ўқитишнинг барча компонентлар мақсад, мазмун, метод, шакл, воситаларини амалда қўллаш назарда тутилади. Бунда, албатта, ўқитиш технологияларини ва ўқитиш моделларини аниқлаштириб олиш мақсадга мувофиқдир.

Масофавий модель таълим жараёнида тьюторлар ва таълим оловчилар масофа ва вақт бўйича ажралган бўлишидан иборат. Масофавий ўқитишни тьютор билан таълим оловчилар орасидаги муносабатлар масофадан туриб амалга ошириладиган ва ўқув жараёнига хос бўлган интернет технологияларининг специфик воситалари ёки интерфаолликни кўзда тутадиган бошқа воситалар билан амалга ошириладиган барча компонентлар мақсад, мазмун, метод, шакл, воситаларини ўзида акс эттирадиган таълим шакли ҳисобланади.

Масофавий ўқитиш асосланадиган технологиялар турли босқичлардан ўтиб келмоқда, жумладан, телефон, факс, оддий почта, телевидение ва бошқалардан фойдаланилади. Ҳозирги кунда масофавий таълим модели интернет-технологияларга асосланади.

Юқоридаги таъкидланган барча фикрлардан келиб чиқиб, масофавий ўқитишнинг таълим тизимида устунликлари қуйидагилардан иборат:

- масофавий ўқитиш очик ҳисобланади, ҳамма хоҳлаганларга таълим олиш имкониятларини беради;
- масофавий ўқитиш турли хил даражадаги ўқув дастурларидан фойдаланиш имконини беради;
- масофавий ўқитиш таълим олувчининг билим олишга бўлган эҳтиёжини қондиришга, уларнинг интеллектуал салоҳиятини оширишга хизмат қилади;
- масофавий ўқитиш индивидуаллашган ва дифференциациялашган ўқитишнинг вазифаларини ечишга имконият яратади;
- масофавий ўқитиш таълим олувчига яшаш жойини ўзгартирмасдан, ишдан ажралмаган ҳолда ўқиш имкониятини яратади;
- масофавий ўқитиш кадрларни тайёрлашдаги устунлиги, тьюторнинг касбий маҳорати даражасини оширишга имконият яратади, ходимларнинг етишмаслигини компенсация қилиш ва ўқув курсининг даврли такрорланишини қисқартириш имконини беради;
- масофавий ўқитиш маҳаллий ва хорижий электрон таълим ресурсларидан кенг фойдаланиш имкониятини яратади;
- узлуксиз таълим тизимининг барча бўғинлари ва ҳаёт муаммоларини ҳал қилишга ёрдам берадиган билимларни узлуксиз эгаллаш имкониятини беради;
- ўзига қулай бўлган вақтда ва исталган жойда мустақил равишда ўрганишини ташкил этиш ва ўзига зарур бўлган таълим воситаларини эркин танлаш, олиш имкониятини яратади;
- ўқув жараёнини мустақил равишда узлуксиз ёки вақти-вақти билан таълим олиш эҳтиёжини бошқариш имкониятини беради;
- таълим олувчининг қандай ёшда бўлишига қарамасдан, турли хил таълимга оид манбалардан чексиз фойдаланиш имконияти яратилади;
- таълим муассасаларида шакллантирилган ноёб ўқув дастурларини бирлаштириш имкониятини беради;
- таълим сифати ва жамиятнинг таълим олиш даражасини ошириш имконини яратади;

Таълим олувчиларни билимини мустахкамлаш мақсадида мавзуга оид видео, аудио ва бошқа интерфаол материалларни ўрганиш жараёнида ўзлаштиришни текшириш учун вақти-вақти билан онлайн сўровлар ёки тест синовлари ўтказиши мумкин. Бу таълим олувчиларнинг ўқув материалларини ўзлаштиришда ноаниқ фикрларни аниқлаш ва маърузаларни қайта кўриш имкониятини беради.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги Қонуни // Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. – Тошкент: Шарқ
2. Ўзбекистон Республикаси Кадрлар тайёрлаш миллий дастури // Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. – Тошкент: Шарқ
3. Mavlonova R.A., Rahmonqulova N.H., Matnazarova K.O., Shirinov M.K., S.Hafizov. Umumiy pedagogika. -T.: «Fan va texnologiya», 2018

## **BUXORO XALQINING ARAB ISTILOSINING DASTLABKI BOSQICHLARIGA QARSHILIGI (BO‘LAT SOLIYEVNING ASARLARI ASOSIDA)**

**Quvvataliyev Ubaydulla**

Termiz davlat universiteti tuzilmasidagi Qatag‘on qurbonlari  
xotirasi muzeyi direktori

**Annotatsiya:** Maqola Bo‘lat Soliyevning “Buxoro tarixi” asarining ikkinchi bobiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda arablarning VII asrda Buxoro va Movarounnahrda bosqini, mahalliy aholi qarshiligi va istilodagi oqibatlar batafsil tahlil qilinadi. Qutayba ibn Muslimning harbiy strategiyasi, siyosiy manevrlari va Buxoro istilosi jarayoni yoritiladi. Maqolada arab bosqini Buxoro tarixiga, siyosiy va ijtimoiy hayotga ta‘siri, shuningdek, mahalliy aholi madaniyati va an‘analariga ta‘siri ko‘rib chiqiladi.

**Kalit so‘zlar:** Bo‘lat Soliyev, Buxoro tarixi, arab bosqini, Qutayba ibn Muslim, Movarounnahr, istilo, mahalliy qarshilik, VII asr, Buxoro, siyosiy tarix, harbiy tarix, madaniy tarix.

Naxshab, Kesh va Faryob shaharlari ham arablar qo‘liga o‘tadi. Faryob shahri arablar tomonidan vayron qilinadi va “Faryob al-Fariq” deb ataladi. Nasr ibn Sayyor Xuroson valisi bo‘lgan davrida Faryob valisi Yusuf Hakim ibn Sayyor lavozimidan chetlashtiriladi. Xalifa bu haqda Xuroson voqealarini bilganlardan so‘raydi va Faryobning boyligi haqida ma‘lumot oladi. 89-hijriy yilda Qutaybaning Buxoroni qamal qilishi muvaffaqiyatsiz yakun topadi. Hajjoj Qutaybaga xabar yozib, tavba qilishni buyuradi. Keyingi qamal ham juda og‘ir sharoitda o‘tadi va bir necha oy davomida Qutaybaning ahvoli markazga ma‘lum bo‘lmaydi. Hajjoj bu holatdan juda qo‘rqadi va masjidlarda ibodatlar qildirish, qurbonliklar qilish va Qutaybaning g‘alabasi uchun duo qilishni buyuradi.

Buxoroga turklar, sugʻdlar va fargʻonaliklar yordamga kelishadi, ammo bu safar arablar gʻalaba qozonadi. Sugʻd xoni Qutaybaning hiylasiga tushib, urushni tark etadi va bu Buxoro magʻlubiyatiga sabab boʻladi. Buxoro aholisi arablar tomonidan qoʻyilgan shartlarga rozi boʻlishga majbur boʻladi: shaharning yarmini arablarga berish, hammomlar daromadining yarmini arablarga topshirish, arab askarlari uchun oziq-ovqat yetkazib berish, xalifaga va Xuroson valisiga soliq toʻlash va uyda qurol saqlamaslik. Buxoro xoni boʻlgan xotin bu shartlarga majburan rozi boʻladi. Buxoro arablar tomonidan bosib olingandan soʻng, uning mustaqilligi saqlanib qolgandek koʻrinish beriladi va Buxoro xoni boʻlgan ayol hokimiyatda qoladi. Biroq, aslida barcha hokimiyat arab valiysi qoʻlida boʻladi. Qutayba ibn Muslim Buxoroni zabt etgach, Sugʻd va Fargʻonani ham boʻysundiradi va keyinchalik Terak dovoni orqali Qoshgʻargacha yurish qiladi. Sugʻdliklar oʻzlarining rahbarlari Tarxunni asirga olib, Qutaybaga jizya toʻlashga rozi boʻlishadi. Sharqiy Turkistondagi xonliklarga Jungʻoriya tomonidan yordam kelgan boʻlsa ham, bu yordam samarali boʻlmaydi. Qoshgʻarni bosib olganidan keyin, xalifa Volid ibn Abdulmalikning vafoti haqidagi xabar Qutaybani orqaga qaytishga majbur qiladi.

Boʻlat Soliyevning “Buxoro tarixi” asarining ikkinchi bobi arablarning Oʻrta Osiyoga, xususan Buxoro hududiga bosqini haqida hikoya qiladi. Asarda keltirilgan maʼlumotlarga koʻra, arablarning hujumlari Xalifa Umar davridanoq boshlangan va Amudaryo boʻylariga yetgan, ammo birinchi arab fotihlari daryoni kesib oʻtishga urinmagan. 82-hijriy yilda (milodiy VII asr boshlari) Qutayba ibn Muslim Xuroson valisi etib tayinlangunga qadar, Ubaydulloh ibn Ziyod, Said ibn Usmon, Xoris ibn Noʻmon, Robiya ibn Xoris kabi arab sarkardalari Xuroson va Movarounnahrda bir necha marta yurishlar qilishgan.

Ular Buxoro, Poykand, Nasaf, Kesh kabi shaharlarni istilo qilishgan, ammo bu yurishlar izchil strategiyaga ega boʻlmagan, koʻproq talon-taroj qilishga qaratilgan edi. Arablarning doimiy hujumlariga qarshi turish maqsadida, avval oʻzaro nizolashib kelgan mahalliy hokimlar birlashishga urinishlari kuzatiladi. Ammo bu ittifoqlar uzoqqa bormaydi va arablarning qudratli armiyasi oldida ojiz qoladi. Arablarning Movarounnahrda hujumlari davrida Turk xoqoni bir necha bor mahalliy aholi

yordamiga kelgan, Shosh, Farg‘ona va Sug‘d xalqlarini birlashtirishga harakat qilgan, ammo bu ham samara bermaydi. Mahalliy hokimlar o‘rtasidagi kelishmovchiliklar va birdamlikning yo‘qligi ularni arablarga qarshi turishda ojiz qoldiradi. Ummaviy xalifalardan Volid ibn Abdulmalik davrida Hajjoj ibn Yusuf al-Saqafiy Movarounnahrni butunlay bo‘ysundirishga qaror qiladi. U 755-yilda Qutayba ibn Muslimni Xuroson valisi etib tayinlab, Movarounnahrni fath qilish bo‘yicha ko‘rsatmalar beradi.

Qutayba Balxga yurish qilish vaqtida Tolixonga yetib keladi va Balx aholisi uni qarshi oladi. Sog‘oniyon podshosi ham Qutaybani ko‘p sovg‘alar bilan kutib oladi. Movarounnahrning qadimiy markazlaridan biri bo‘lgan Boykand esa, turklarning yordami bilan ham Qutaybadan qarshilik ko‘rsatishiga qaramay, fath etiladi. Qutayba Boykandda qarshilik ko‘rsatgan barcha jangchilarni o‘ldiradi. Bo‘lat Soliyevning asari arab bosqini haqidagi voqealarni faktlarga tayanib, xoloslik bilan bayon qiladi. Uning asari arablarning harbiy kuchidan foydalanib, Movarounnahrni bo‘ysundirish jarayonini, mahalliy aholi qarshiligining sabablarini va natijalarini batafsil tasvirlaydi. Biroq, asar arab bosqini haqidagi voqealarni faqat harbiy jihatdan emas, balki siyosiy va ijtimoiy oqibatlarini ham hisobga olgan holda yoritadi. Bo‘lat Soliyevning “Buxoro tarixi” asarining ikkinchi bobida arablarning Movarounnahrni zabt etish jarayoni davom ettiriladi. Avvalgi muvaffaqiyatsizliklardan so‘ng, Qutayba ibn Muslimning qo‘shinlari Boykand shahriga yurishlar qiladi.

#### **Fodalanilgan adabiyotlar:**

1. Soliyev.V. Buxoro tarixi. (بوخارا تاريخى). Moskva: Гос.из-дат, 1923
2. Бартольд, В. В. Сочинения: в 9 томах Т. VI: Работы по истории ислама и арабского халифата / Академия наук СССР, Институт народов Азии; редактор И. Н. Винников. Москва: Наука, 1966. — 784 с.
3. Германов. В. А. Профессор Пулат Салиев и его время : (Жизнь и трагедия Основателя Узб. ист. шк.) : Акад. наук Респ. Узбекистан. Ин-т истории. - Ташкент : Фан, 2002. - 64 С
4. Quvvataliyev. U. Buxoroda qiymatli asarlar. // Imom Buxoriy saboqlari jurnali. 2024, № 2.P 26-28

## **GRAMMATIK ME’YOR VA IJODIY QONUNIYATLARNING BIRIKUV USULLARI**

**Abdullayev Davronbek**

QQDU, O‘zbek tilshunosligi kafedrası dotsenti, f.f.f.d., (PhD)

Ma’lumki, har qanday frazeologik birlik grammatik me’yorni izchil ta’minlashga xizmat qiladi, uning asosida shakllangan leksik ma’no bayondagi ifoda va tasvir bo’shliqlarini to’ldiradi, biroq ibora inson tomonidan anglangan voqelik qirralarini to’liq tasavvur qilishga imkoniyat yarata olmaydi, balki predmet, borliq, xususiyat, vaziyat va holatga xos ma’no tarmog‘ini ifodalanish bilan cheklanadi. Mohiyatan kontsept va tushuncha ham ma’no, ham ong hosilasi sanaladi, unda anglash va idrok qorishib ketadi. Inson tana a’zolari bilan bog‘liq somatik frazemalar ma’rifati tafakkur ehtiyoji va cheklangan til lug‘aviy zaxirasining to‘qnashuvidan shakllanadi. Ba’zi hollarda frazema lug‘aviy muqobil shakliga ega bo’lsa ham, uslubiy munosabat ifodasida o‘zaro farqlanadi. Frazeologiya, umuman, barqaror birliklar (maqol, matal, aforizmlar ham) – tilning tengsiz, muqobilsiz xazinasini hisoblanadi.

Nutqda namoyon so‘z birikmalari intizomida grammatik qoida murakkab birikuv tizimiga ega iboralar, garchand, mushohada mantig‘i nazoratiga tayansa-da, yaxlit birliklar sanaladi, ayni paytda, frazeologik konstrukt u yoki bu qirrani oydinlashtiradi yohud yaratilmaydi, balki nutqda yaxlit tarzda voqe bo‘ladi. Xususan, «tilga kirmoq» iborasi, yosh xususiyatiga dahldor ravishda matnda real salmoq kasb etasa (go‘dakning tilga kirishi fiziologik jarayon; kam gap insonlarga nisbat berilganda, iboraning ma’no ifodasi kengayadi), «me’dasiga tegmoq», «ko‘ngli aynidi» iboralarida nimaga nisbatlanishiga ko‘ra farqlanadi (ovqat yoqmay qolmoq, organizmi qabul qilmay qo‘ymoq; ovqatdan boshqa narsa – harakat-holatdan bezmoq kabi). Solishtiring: «Paxta yig‘imi davrida makaron va mosh talabalarning me’dasiga tegadi-da, o‘rtoq. // O‘n-o‘n besh kundan beri bir xil ish, bu rosa me’daga tegdi-da, endi cho‘ponlikka bo‘lsa ham, boshqa ishga o‘taylik. Shunday ekan, ibora tarkibidagi lug‘aviy birliklararo munosabat frazema tabiatini belgilaydi va har qanday

frazeologik birlik komponentlarini ijodiy birikuv qonuniyatlari grammatik me'yor talabidan chetga chiqmaydi. Ba'zi olimlar «frazeologizm» istilohini soʻz birikmalari tasavvuri bilan bogʻlashadi.<sup>1</sup>

Frazani shakllantirish jarayonida inson omili muhim oʻrin tutadi. Negaki, jamiyat, tabiat va koinot munosabatlari bevosita va bilvosita inson faoliyati – aloqasi bilan bogʻliq. Shaxs manfaat va qiziqishlari, talab va ehtiyojlari dunyoni anglashga yoʻnaltirilgan. Shu nuqtai nazardan, kommunikativ munosabatda somatik ifoda shakllanadi. Aslida til antropomorfizmi tafakkur madaniyatini shakllantiradi. Oʻz navbatida, tafakkur madaniyati milliy oʻlchamining til nominatsiyasini hosil qiladi.

Nafaqat frazeologik birliklar, balki tildagi barcha lisoniy birliklar antropotsentrik nuqtai nazardan tahlilga tortilsagina kerakli natijaga erishiladi. Shu jihatdan iboralar tizimi ham har bir xalqning milliy boyligi, oʻzida katta ma'naviy boylik, xalqning yoʻqotishi mumkin boʻlmagan qadriyatlarini saqlab qolishda katta ahamiyatga ega boʻlgan nomoddiy mulkidir.

Oʻzbek tilidagi koʻp ma'noli iboralar tizimini antropotsentrik paradigma doirasida oʻrganishda ularning lingvokul'turologik, kognitiv, sotsiolingvistik, etnolingvistik, lingvopoetik jihatlariga ham e'tibor qaratishni, shuningdek, iboralar mustaqil soʻzlarning obrazli turgʻun birikuvi boʻlishidan tashqari milliy mentallik, etnomadaniy, etnosotsiologik, kognitiv, krayetiv, akkumulyativ, aksiologik, estetik, emotiv vazifalarni bajarishini nazardan soqit qilib boʻlmaydi. Bular ayniqsa, somatik iboralarda koʻproq namoyon boʻladi.

Yuqorida keltirilgan «toʻgʻri kelmoq» polisemantik iborasining birinchi, ikkinchi va oltinchi ma'nolari bir xil vaziyatni, sharoitni ifodalaydi, qolgan ma'nolar ana shu uch ma'noga semantik jihatdan bogʻlanadi. Iboraning uchinchi va beshinchi ma'nolari birinchi ma'noga, toʻrtinchi ma'nosi esa ikkinchi ma'noga semantik jihatdan yaqin turadi.

OʻTIOʻLda ham «toʻgʻri keldi» polisemantik iborasi ma'nolari OʻTFLdagi kabi oltita deb belgilangan: 1) muvofiq boʻldi, mos boʻldi, yaradi; 2) bir vaqtda boʻldi; 3) yoʻliqdi, uchradi; 4) taqsimlaganda tegdi; 5) qulay boʻldi; 6) lozim boʻldi, zarur

<sup>1</sup> Шанский Н.М. Лексикология современного русского языка. – М, 1972. (бет кўрсатилиши керак)

bo‘ldi [O‘TIO‘L, 55]. «To‘g‘ri kelmoq» iborasi QO‘RFLda o‘z aksini topmay qolgan. Bunday farqlanishlar frazemaning ma‘no qirralarini belgilashda jiddiy qiyinchiliklar keltirib chiqaradi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, polisemantik iboralar, ayniqsa uch va undan ortiq ma‘noli frazemalarni lug‘atlarda izohlash, ularning bosh, yetakchi ma‘nolarini aniqlab, qolgan ma‘nolarning o‘zaro bog‘lanishi, tadrijiy taraqqiyot usullarini belgilash o‘zbek leksikografiyasi va frazeografiyasi oldida turgan murakkab muammolardan biridir. Bu masalani to‘g‘ri hal etish tilimizning frazeologik boyligini lug‘atlarda to‘la aks ettirish imkonini beradi. O‘z navbatida, ijodiy yaratish qolipidp millat mintalitetiga xos ifoda madaniyati va nutqiy malakaning aks etishini inobatga olsak, masala mohiyati yanada oydinlashadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари, Тошкент: Фан, 1985. - 214 б.
2. Бердиёров Ҳ., Йўлдошев Б. Ўзбек фразеологиясига доир библиографик кўрсаткич, Самарқанд, СамДУ нашри, 1977. - 38 б.
3. Бердиёров Ҳ. Фразеологик луғатлар тузиш масаласига доир // Вопросы фразеологии, материалы межреспубликанской конференции, Самарканд, СамГУ, 21-26-бетлар.
4. Abdullayev, O., & Rajabova, G. (2023). ABDULLA QAHHORNING “ANOR” QISSASIDAGI FRAZEOLOGIZMLARNING TAHLILI. *Ilm-fan va ta'lim*, 1(14).
5. Okhunjon, A. (2023). THE PLACE AND SIGNIFICANCE OF NEW ADJECTIVES IN THE LEXICON OF THE UZBEK AND KHRAKALPAK LANGUAGES. *INTERNATIONAL JOURNAL OF EUROPEAN RESEARCH OUTPUT*, 2(2), 84-90.

## **ESKI MASJID TEATR STUDIYASINING SHAKLLANISHI VA UNING IJODIY QIYOFASINI BELGILASHDA REJISSYORLIK TENDENSIYALARI**

**Xoliqov Mirjalol Raxmatulla o‘g‘li**

K.Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti, o‘qituvchi

Da-vinchi9391@mail.ru

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Eski masjid teatr-studiyasining shakllanishi. Teatr-studiyasida shakllangan ijodiy jarayonlar, teatr-studiyaning ijodiy salohiyatini dunyoga tanikishda o‘z ijodi bilan ulkan hissa qo‘shgan rejissyorlar hamda ularning rejissorlik tendensiyalari haqida ma’muotlar keltirilgan.

**Annotation:** In this article, the formation of the theater-studio of the old mosque. Creative processes formed in the theater-studio, directors who have made outstanding contributions to the world in recognizing the creative potential of the theater-studio, as well as their directing trends are presented.

**Kalit so‘zlar:** Eski Masjid, Avliyoquli Xojiquliev, Farrux Qosimov, Barzu Abdurazzoqov, teatr-studiya, tendensiya, sahna, tafakkur, g‘oya, rejissyor, doston, sahna bezaklari, erkinlik, o‘zbek, spektakl.

**Keywords:** Old mosque, Avlioculi Khojikuliev, Farrukh Kasimov, Barzu Abdurazzakov, Theater-Studio, trend, stage, contemplation, idea, Director, epic, stage decoration, freedom, Uzbek, performance.

Eski masjid teatr studiyasining shakllanishi va uning ijodiy qiyofasini belgilashda rejissyorlar Barzu Abdurazzoqov, Farrux Qosimov va Avliyoquli Xojiqulievlarning o‘rni.

Buyuk maqsadlar sari dadil qadam tashlayotgan O‘zbekiston Respublikasida jamiyatni yangilash sohasida olib borilayotgan islohotlar bilan bir qatorda ma’naviyatni yuksaltirishga ham alohida e’tibor berilmoqda. Prezidentimiz Islom Karimovning tashabbus va sa’y-harakatlari bilan xalqimiz ma’naviy qadriyatlariga hurmat-ehtirov bilan munosabatda bo‘lish, ularni asrab avaylash va rivojlantirish,

muqaddas dinimizni, urf-odatlarimizni, bebaho tarixiy merosimizni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Shu o'rinda, san'atshunos A.Rahimovning “Izlanish davom etadi” nomli maqolasida Georgiy Tovstagaonovning “Rejissyorlik kasbi dunyoda eng og'ir kasb hisoblanadi. Rejissyor aktyor mahorati orqali tomoshabinlar qalbini larzaga solib. Ularni chuqur o'yga tortib fikrlarga tortuvchi inson. U mohir ruhshunos bo'lib har bir tomoshabinning his-tuyg'ularini uyg'otib, asar muallifi va o'zining asosiy maqsadlarini ruyobga chiqaradi. U insoniyat va jamiyat oldida ko'p narsaga javobgar shaxs.”

Dramaturgik asardagi jamiki voqealar, to'qnashuvlar asosan so'z orqali o'z yechimini topayotgan bo'lsa, demak spektakllarning hayotiyliigi, ta'sirchanligi, tomoshabin dilidagi tuyg'ularini quzg'atuvchi, tasavvurlarin uyg'otuvchi asosiy qurol bu so'zdir. Sahnalashtirilgan har bir spektakl uchun mas'ul shaxs bu rejissyor va rassom ekan, demak, har bir aytilgan so'zning va sahnada qurilgan dekoratsiyaning to'g'ri yoki noto'g'ri, jonli yo jonsiz ijro etilayotganligi va asar badiiy yechimiga to'g'ri javob berayotganligi uchun ham javobgardir. <sup>2</sup>

Teatr studiyasi o'z faoliyatini Tojikistonlik mashhur rejissyorlar Borzu Abdurazzoqov va Farrux Qosimovlar, shu bilan birga avval Turkmaniston ayni paytda o'zbekistonda ijod qilib kelayotgan Avliyoquli Xo'jaquliev singari tajribali va iste'dodli rejissyorlar ijodi va imkonini o'zida aks ettira oldi. Bu esa tez fursatda teatr studiyasining dunyo san'atida o'z o'rni va yuqorida aytilgan rejissyorlarning ham ijodiy imzosiga ega qildi.

Avvalo, ushbu teatrda an'anaga aylangan turli rejissyorlar bilan hamkorlikda ishlash printsepi bu birinchidan aktyorlar maxoratini yuksaltirgan bo'lsa, ularni yangidan-yangi qirralarini ochishga yordam bergan bo'lsa, ikkinchidan tajribali rejissyorlarning jaxonning eng mashhur asarlarini yangicha va milliylikka yo'g'rilgan xolda talqin etish imkonini yaratdi. Bu esa teatr studiyasining o'ziga xos ijodiy yo'lini belgialb berdi, desam mubolag'a bo'lmaydi.

---

1. Toshkent haqiqati “Xalq teatri” 1965 yil

Abdunabi Bobojonov, Isoq To'raev, Oygul Xalilova, Botir Qurbonov, Gulnoza Rahmatova, havaskor sozanda va xonandalar truppa asosini tashkil etgan. «Eski masjid» teatrining birinchi asari «Mehribonginam» (Sh.Shomanadze asari) spektaklidayoq truppaning muhim ijtimoiy muammo-larni yangi uslubdagi teran sahnaviy talqinlarda yorqin va ta'sirchan ijrolarda aks ettirishga bo'lgan intilishi ko'rindi. Spektakl «Navro'z-95» festivalida 1-o'rinni oldi. Teatr yangicha fikrlaydigan novator rejissyorlarni taklif etib, shu paytgacha hech kim e'tibor bermagan manbalar asosida murakkab sahna asarlari yaratish, yangi talqin uslubi va vositalar izlab topish, tomoshabinni voqealarni ishtirokchisiga aylantirish yo'lidan bordi. 1995 yilda rejissyor Farrux Qosimov Farididdin At-torning «Mantiq ut-tayr», Navoiy-ning «Lison ut-tayr» asarlari asosida «Shayx San'on» va «Tarso duxtar»ni sahnalashtirdi. 1998 y. Ukrainaning Xarkov shahrida o'tgan «Sharq ekspressi» xalqaro teatr festivalida «Ayol alvasti yoki haroratli ishq» spektakli 1-o'rin oldi. 1999 yilda Ch. Aytmatovning «Asrga tatigulik kun» asari asosida sahna-lashtirilgan «Nayman ona qissasi» spektakli «Navro'z — 99» respublika festivalida alohida sovrin, Bishkek (Qirg'iziston)da o'tgan «Ch.Aytmatov va teatr» xalqaro festivalida eng oliy sovrin — Gran-prini qo'lga kiritdi. Shuningdek, «Qobil va Hobil», «Raqsu samo'» kabi spektakllar ham turli mukofotlarga sazovor bo'ldi. «Chiyali bozordagi hangoma», «Mo''jizaviy daraxt», «Manqurtlarga bermang dunyoni» kabi teatrlashgan tomoshalari ham muvaffaqiyat qozondi.<sup>3</sup>

“Eski masjid” teatr studiyasi 2013 yilda bo'lib o'tgan “Seni kuylaymiz zamondosh” O'zbekiston teatrlarining 2-respublika ko'rik-tanlovida ham muvaffaqiyatli ishtirok etdi. Professional teatrlari o'rtasida o'tkazilgan bo'lishiga qaramay, teatr studiyasining yosh ijrochilari tomonidan yuksak mahorat bilan ijro etildi.

Teatr-hayot nusxasi emas, balki uning badiiy in'ikosidir. Aslida ham teatr san'ati tomoshabinga kuchli ta'sir kursatuvchi ma'naviyat quroli hamdir. Uni to'g'ri yo'llay olmasang, inson qalbini zabt eta olmasan, uning qalbidagi chirkinlik va yovuzlikni otib o'ldira olmasan. Teatr studiyasi esa ana shu ta'sir kuchini o'zining

<sup>3</sup> QUDRATOVA F. Qashqadaryo viloyat musiqali drama teatrida rejissura masalalari 2021yil

nooadtiy sahnaviy ko’rinishlari orqali ifoda etish imkonini yaratib bera oladi. Masalan, Amir Temur davridagi tarixiy obidalarning yaratilish tarixi va tarixiy voqealarni aks ettirish uchun, butun boshli oqsaroy yoki registon dekortsiyasini qurish shart emas, balki uning bir g’ishti bo’lagi misolida ham bu davr qiyinchilik yoki bunyodkorlik mashaqqatlarini aks ettira olish mumkin.<sup>4</sup>

“Eski masjid” teatr studiyasi bugun zamonaviylik va milliy urf-odatlarimiz, an’analarimiz va qadimiy tariximizni bir nuqtada, ya’niki, g’oyaviy maslakdoshlik zamiriga birlashtirishga xarakat qilib kelmoqda. Bu esa, teatr studiyasining bu ijodiy izlanishlarini dunyo san’atida o’ziga xos xususiyati bo’lganligi bois, dunyo bu teatr studiyasi izlanishlari samarasi bilan katta qiziqish bilan qarayotganligiga sabab bo’lmoqda. U qisqa davr ichida o’zining ta’sirchan, qiziqarli spektakllari bilan keng jamoatchilik e’tiboriga tushdi. Teatr repertuaridan o’rin olgan Fariddiddin Attor va Alisher Navoiy dostonlari asosida yaratilgan “Shayx San’on”, Chingiz Aytmatovning “Asrga tatigulik kun” romani asosida “Nayman ona”, Jon Bayronning “Kain” dramasi asosida “Qobil va Hobil”, A.Shamanedzining “Katta peshayvonlik kichik xonadon” p’esasi asosida “Mexribonginam” kabi spektakllarining har biri bugun dunyo bilan yuzlashdi. Ushbu asarlar o’zining chuqur falsafiyligi, dolzarb ma’naviy-axloqiy muammolarga qaratilganligi bilan aloxida e’tiborga molik. Teatr studiyasi o’z faoliyatini Tojikistonlik mashhur rejissyorlar Borzu Abdurazzoqov va Farrux Qosimovlar, shu bilan birga avval Turkmaniston ayni paytda o’zbekistonda ijod qilib kelayotgan Avliyoquli Xo’jaquliev singari tajribali va iste’dodli rejissyorlar ijodi va imkonini o’zida aks ettira oldi. Bu esa tez fursatda teatr studiyasining dunyo san’atida o’z o’rni va yuqorida aytilgan rejissyorlarning ham ijodiy imzosiga ega qildi.

Tomoshabin bilan o’zaro ijodiy muloqot va boshqa teatr tajribasi vakillari bilan hamkorlik teatr studiyasining zamonaviylik unsurini kashf etilishiga sabab bo’ldi. Unda saxnalashtirilgan spektakllar obrazli yechimi va zamonaviy fikrlashga intilishi bilan qiziqarlidir. Rejissyorlarning samarali izlanishlari esa aktyorlarning maxorati bilan belgilanadi. Bu esa, teatr studiyasida O’zbekiston san’at arbobi Isoq To’raev va O’zbekistonda xizmat ko’rsatgan artist Oygul Xalilova ijodi ham bu teatr

<sup>4</sup> A. Tairov. Rejissyorning eslatmalari, 331-sahifa.

studiyasining o'ziga xos mashhurlik mezonini ta'min etdi. “Eski masjid” teatr studiyasida saxnalashtirilgan spektakllar juda kamchilikni tashkil etadi. Biroq, o'zbek teatr san'ati bitiklarini ushbu spektakllarsiz zarxal xarflar bilan bitib bo'lmaydi. Ushbu teatr studiyasining faoliyati studiyachilik faoliyatining xarakati nechog'lik zaruriyligi va samarali bo'lishidan dalolat berib turibdi. Bugunning tomoshabiniga teatr studiyalari o'tmish va kelajakning bog'lovchi ko'prik sifatida g'oyaviy maslakdosh bo'lishini ta'min etuvchi muqaddas masjidligicha qolaveradi.<sup>5</sup>

Barzu Abdurazzoqov- gruzin adibi A.Shamanedzining “Katta peshayvonlik kichik xonadon” p'esasi asosida “Mexribonginam” spektaklini saxnalashtirgan. «Eski masjid» teatrining birinchi asari «Mehribonginam» (Sh.Shomanadze asari) spektaklidayoq truppaning muhim ijtimoiy muammolarni yangi uslubdagi teran sahnaviy talqinlarda yorqin va ta'sirchan ijrolarda aks ettirishga bo'lgan intilishi ko'rindi.

Ushbu spektaklda oilaviy majorolar, muxabbat tuyg'usi, orzu-havasning tirikchilik qiyinchiliklari yo'lida paymol bo'lib qolayotganligi sahnaviy manzaralarida yaqqol aks ettiriladi. Spektakldagi aktyorlar ijrosining har birida qaxramonlarning hayratlanarli kayfiyatlari ham yasamalik bilan emas, xayotiy ijroga egaligi bilan tomoshabinni maxliyo qilib qo'yadi. Rejissyor har bir kayfiyat va holatni aktyorda aynan o'ziniki qilib olguncha, me'yoriga yetguncha ko'rsatishga erishgan. Bundan tashqari asarni o'zbek mentalitetiga moslashtirilganligi va sharqona axloqiy fazilatlarning yuksak e'tirofga loyiqligini to'laqonligicha ifodalay olgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:**

1. Toshkent haqiqati “Xalq teatri” 1965 yil
2. QUDRATOVA F. Qashqadaryo viloyat musiqali drama teatrida rejissura masalalari 2021yil
3. (V. Meyerxold. Maqolalar, xatlar, nutqlar, suhbatlar. 2 jildda. T. 2. M., san'at, 1968, 47-sahifa).
4. A. Tairov. Rejissyorning eslatmalari, 331-sahifa.
5. N. Gorchakov. Vaxtangovning rejissyorlik darslari, 98-sahifa.

<sup>5</sup> N. Gorchakov. Vaxtangovning rejissyorlik darslari, 98-sahifa.

## SAID AHMAD ASARLARIDA QO‘LLANILGAN FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING KOMPONENT TAHLILI

**Shomurodova Sabohat Avulfaiz qizi**

Termiz davlat universiteti Lingvistika: o‘zbek tili ta’lim yo‘nalish

1-bosqich magistr talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tilshunoslik sohasining asosiy bo‘limlaridan biri bo‘lgan frazeologik hamda paremiologik birliklarning kelib chiqish tarixi hamda tilshunoslik sohasidagi o‘rni va lingvistik ahamiyati borasidagi qarashlar ilgari surildi. Shuningdek, frazeologik hamda paremiologik birliklarning badiiy matnlarda qo‘llanilishdagi ahamiyati ochib berildi. Maqolada taniqli o‘zbek yozuvchisi Said Ahmad asarlarida uchraydigan frazeologik hamda paremiologik birliklarning tarkibiy qismlari komponent tahlil metodidan foydalanilgan holda tadqiq qilindi. Ishda frazeologizmlarning semantik va stilistik jihatlari yoritilib, har bir frazeologik birligida mavjud bo‘lgan komponentlarning ma’nosi va o‘ziga xosligi keng ko‘lamli tahlilga tortildi.

**Kalit so‘zlar:** frazeologik birlik, ibora, paremiologik birlik, maqol, component tahlil, semantika, stilistika, tilshunoslik, kontekst, yozuvchi uslubi.

Frazeologik birliklar va paremiologik birliklar har bir tilning ajralmas qismi bo‘lib, uning til va adabiyotdagi o‘rni nihoyatda muhimdir. Frazeologik birliklar juda qadimiy bo‘lib, til taraqqiyotini rivojlantiradi va uni bir avloddan ikkinchi avlodga yetkazish bilan xarakterlanadi. Jahon tilshunosligida frazeologik birliklarni o‘rganish bo‘yicha salmoqli ishlar amalga oshirilgan. Frazeologiyaning o‘rganilishidagi dastlabki izlanishlar rus hamda fransuz tilshunosligining frazeologik olimlari tomonidan amalga oshirilgan. Frazeologizmlarni o‘rganishda buyuk fransuz frazeolog olimi Sharll Ballni e’tirof etamiz. U o‘zining "Fransuz stilistikasi" (1909) asarida so‘z birikmalari, ularning tadqiq etuvchi vositalari haqida qimmatli fikrlarini bayon qilgan.

O‘zbek tilshunosligida frazeologizmlarga bo‘lgan e‘tibor XX asrning o‘rtalarida kelib jadal tus olib boshladi. O‘zbek tilshunosligida frazeologiya sohasini A. Sa‘diy, V. Abdullayev, U. Tursunov, A. G‘ulomov, N. Mallayev, Sh. Rahmatullayev kabi olimlar o‘rganishdi va bu sohaga doir fikrlarni rivojlantirib, tilshunoslik bo‘limi sifatida frazeologiya haqida ko‘plab ishlarni amalga oshirishdi.

Shu jumladan, bu davrda S.N. Muratovning “Turkiy tillarda turg‘un so‘z birikmalari” nomli ishi bilan turkiy til iboralarini yoritishga kirishgan. Badiiy matnlarda frazeologik hamda paremiologik birliklardan unumli foydalanish asar tili tasviriylik, ta’sirchanlik orqali to‘la ochib beriladi va stilistik jihatdan mukammal qiladi. O‘zbek adabiyotida mazkur birliklardan salmoqli foydalangan so‘z ustalaridan biri Said Ahmaddir. U o‘z asarlarida frazeologik birliklarni faqat ma’lum bir zamon yoki voqealarni tasvirlashda emas, balki o‘z uslubini yaratishda, tilni boyitishda ham muvaffaqiyatli qo‘llagan. So‘z ustasi bo‘lgan Said Ahmad deyarli barcha asarlarida qahramonning ruhiy holatini tasvirlashda frazemalardan foydalangan. Biz ana shu nuqtai nazardan Said Ahmad qo‘llagan frazemalarni komponent tahlil metodiga tayangan holda tahlilga tortdik. Avvalambor, mazkur tahlil metodi haqida atroflicha to‘xtaladigan bo‘lsak, **komponent tahlil metodi** bu metod strukturaviy semasiologiya sohasiga xizmat qiladi. Buning maqsadi ikki tomonli til birliklarini aniqlashdirki, birinchidan, ularning mazmunidagi eng kichik birliklarni ajratish, ikkinchidan, ulararo qonuniy aloqa va munosabatlarni topish.

Said Ahmad asarlarida uchraydigan frazemalarda ko‘z, quloq, og‘iz, bosh, qo‘l kabi komponentlar faol ishtirok etgan. Shular bilan bir qatorda mavhum otlar ishtirok etgan frazeologik birliklarga ham ko‘p duch kelamiz. Ushbu frazemalarni birma-bir tahlil jarayonimizda ko‘rib o‘tamiz.

#### **Ko‘z komponentli frazemalar:**

G‘afur aka tizzasiga qog‘oz qo‘yib, **ko‘z ochib yumguncha** nimalarnidir yozib qo‘limga berdi.

Ushbu gapda ko‘z ochib yumguncha iborasi qo‘llanilgan. Ushbu ibora payt ma’nosidagi ibora bo‘lib, **vaqt tez o‘tib ketmoq, shiddat bilan o‘tmoq** degan ma’noga teng.

Qobiljonning **ko‘zlaridan o‘t chaqnab ketdi**. Direktorning boyagi. “Ishni eplayolmay yotibsiz, bo‘shatishga to‘g‘ri keladi” degan gaplari esiga tushdi.

Yuqoridagi misolda yozuvchi qahramon holatini ifodalash uchun **ko‘zidan o‘t chaqnamoq** frazemasidan foydalangan. Ushbu frazema **jahllanish, ajablanish, to‘satdan aytilgan xabardan esankirash** ma‘nolariga teng.

#### **Og‘iz komponentli frazemalar:**

Bahri. Dadangiz jikkilamagandilar. Hamma vaqt serkning otidek gijinglab turardilar-ku! Nazmi. Kech qoldim, deb yugurib, **o‘pkam og‘zimga keldi**.

Ushbu parchada Nazmi tilidan olingan, **o‘pkam og‘zimga keldi** idiomasi qo‘llanilgan. Ushbu ibora charchamoq, holdan toymoq so‘ziga sinonim bo‘la oladi. Ushbu ibora orqali nutqiy emotsionallik yuqori bo‘lgan.

Xulosa shuki, Said Ahmad asarlarida frazeologik birliklarning komponent tahlili asar stilistikasi kengaytiradi va ta‘sirchanlik darajasini orttiradi. Yozuvchi frazeologizmlarni maqsadga muvofiq, aniq va o‘zgacha tarzda ishlatgan bu esa, asarning ruhiy atmosferasi to‘g‘ridan to‘g‘ri kitobxon qalbiga ko‘chgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Бегматова Г. Х. Ўзбек миллий корпусида идиомалар базасини яратиш. Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD)... дисс. Термиз, 2021.
2. Rahmattulayev Sh. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1978.
3. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. Darslik. Toshkent: Universitet, 2006.
4. Said Ahmad. Tanlangan asarlar II jild. Toshkent: Sharq, 2000.
5. Shomatov O.N. Filologiyaning ilmiy tadqiqot metodlari. Toshkent: 2009.

## **O‘ZBEK TILIDA ZAMONAVIY LEKSIKANING QO‘LLANILISHI VA AHAMIYATI**

**Norqo‘chqorova Gulsora**

QQDU, Noshirlik ishi yo‘nalishi talabasi

Ma‘lumki, dunyo tillari orasida sof tilning o‘zi yo‘q. Tilning sofligi uning o‘z til so‘zlari hisobiga yashashi bilan belgilanmaydi. Tillarning o‘zaro integratsiyasi, birining ikkinchisiga ta’sir etib borishi til jarayonining harakatdagi barqaror qonuniyatlaridan biri hisoblanadi. Bu hodisaning rang-barang tillarda me‘yoriy, me‘yordan past va me‘yordan ortiq ta’siri ko‘zga tashlanib, so‘z o‘zlashishining me‘yordan past va me‘yordan ortiq darajada harakatlanish holati til tizimida ma‘lum bir salbiy oqibatlarni yuzaga keltirishi mumkin<sup>6</sup>.

O‘zbek va qoraqalpoq tili leksikasi bugungi kunga qadar til taraqqiyoti natijasida doimiy o‘z ichki imkoniyatlari asosida so‘z yasash, o‘zga tillardan so‘z olish, eskirgan so‘zlarning chiqib ketishi kabi ma‘lum bir o‘zgarishlar hisobiga tarixiy taraqqiyot bosqichlarini bosib o‘tmoqda. Leksik qatlam taraqqiyoti jamiyat taraqqiyoti bilan bog‘liqdir. Xalqlarning o‘zaro madaniy, siyosiy, iqtisodiy aloqalari tillarning integratsiyalashish holatiga sabab bo‘ladi.

Qoraqalpoq tili leksik qatlami taraqqiyotini ham jamiyatdagi muhim o‘zgarishlarni hisobga olgan holda ma‘lum bir davr bosqichlari asosida o‘rganish mumkin. Shu sababli ham tillarning o‘zaro ta’siri, ularning aholi turmushida birgalikda, yonma-yon faoliyat ko‘rsatishi uchun shu tillar bilan aloqa qiluvchi til egalarining iqtisodiy, siyosiy, madaniy sohalarda va kundalik hayotda aloqa qilishlari zarur deb hisoblanadi.

Qoraqalpog‘iston shaharlarida aholi aralash yashaydi. Ammo, so‘z o‘zlashish jarayoni har xil millat vakillarining hamda mahalliy millat vakillarining hisobiga to‘g‘ri keladi. Qoraqalpog‘istonda aholi individual xarakterga ega ikkitilli shaxslardir. Ularning ikkitilliligi ona tili zaminida yuzaga kelgan ikkitillilik bo‘lib, u

<sup>6</sup> Shoabdurahmonov Sh.va b. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – T., O‘qituvchi. 1980. 127-b.

doim tarjimaga muhtoj bo‘ladi va ona tili asosidagi fikrlashga ekvivalent topilganidagina o‘zaro va shaxslararo tushunish yuzaga keladi. So‘nggi bir necha yil davomida qoraqalpoq tiliga rus tilining ta’siri birmuncha susaydi. Rus tili orqali ifodalanadigan so‘zlar o‘rniga qoraqalpoqcha variantdagi so‘zlar qo‘llana boshlandi. Ammo, rus tili susayishi bilan qoraqalpoq tilida yangi leksemalar o‘zlashtirilishi boshqa tillardan ko‘plab kirib kela boshladi. Asosan, ovqatlanish shahobchalari, savdo obyektlari va shunga o‘xshash bir qator inshootlarga nom berish chet tilidan kirib kelayotgan yangi (zamonaviy) leksemalar orqali amalga oshirilmoqda<sup>7</sup>.

Aynan shunday so‘z o‘zlashishining me’yordan ortiqlik darajasi til taraqqiyotining salbiy oqibatlarini keltirib chiqarishi mumkin. O‘rni kelganda shuni ham aytish lozimki, til omuxtalishishidan chetda qolgan, so‘z o‘zlashishining me’yordan past darajasida bo‘lgan, globallasuv, madaniy, siyosiy, iqtisodiy, sport aloqalaridan uzilgan tilda ham shunday “yakkalanish” holatlar kutilishi mumkin. Hozirgi paytda dunyo tillari orasida o‘lik tillar qatoriga o‘tib borayotgan bir necha tillar shunday tarixiy jarayonni boshidan kechirmoqda.

Leksikografik sistemadagi yangi neologizmlar ma’lum bir sohadagi tushunchani ifodalab, ular ma’lum bir predmetlar guruhiga, jarayonlarga oid tushunchalardir. Har bir yangi terminologik guruhda umumiy bir unsur bo‘ladi. Masalan: agro so‘zi – agronimiya, agroiqtisodiyot, agrobiznes, agrosanoat kabi o‘zlashma neologizmlar uchun asosiy unsur hisoblanadi. Shunday xalqaro terminelemntlar soni hozirda 200dan ortiqligi tilshunoslar tomonidan aniqlangan<sup>8</sup>. XXI asrda jamiyat hayotida boshlangan tarixiy o‘zgarishlar tilimizda ham o‘z aksini bera boshladi. Bu davr so‘zlarning o‘zlashish va so‘zlarning chiqib ketish jarayonining tezlashgan davri bo‘ldi. XX asrda maktablar tashkil etilishi, ommaviy savod chiqarish, gazeta va jurnallarning chop etilishi, maktablarida savod chiqarish kabi omillar asosida bu holat yanada tezlashdi. Bu davrning muhim xususiyati shundaki, tilimizga nafaqat ruscha so‘zlar, balki rus tili orqali ko‘plab inglizcha, fransuzcha, italyanacha va boshqa tillardan so‘zlar kirib keldi.

<sup>7</sup> Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –T., O‘zbekiston. 1992. 156-b.

<sup>8</sup> O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. –T., O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 12 tomli. 2000-2006. 10-tom, 498-b

O‘zlashma so‘zlar datlabki davrda neologizm xarakterida bo‘lsa-da, keyinchalik asta-sekin qabul qiluvchi til qonuniyatlariga va tamoyillariga bo‘ysunishi, xuddi o‘z so‘zdek, tushunarli va aniq bo‘lishi lozim. Yangi(zamonaviy) so‘z aniq, qisqa va tushunarli bo‘lishi kerak. Yangi so‘zlarning aniqlik tushunchasida uning ma’naviy komponentlarining umumiy ma’nolari tushuniladi. (barg), fonetik qayta shakllanishi (karavot), grammatik singishi (bankdan), so‘z yasash tizimida faol ishtirok etishi (traktorchi), takror-takror qo‘llanishi tufayli uning yot elementigi sezilmay qoladi [3, 498].

Yangi o‘zlashma neologizmlarning morfologik tuzilishi quyidagicha:

**Sodda yangi o‘zlashma neologizmlar** – Avoid - bekor qilmoq, Credit - kredit (pul yoki tovar shaklida qarz berish);

**Murakkab o‘zlashma neologimlar** – Book-keeper – hisobchi buxgalter;

**Atama so‘z** – Capital income – kapitaldan olinadigan daromad.

**Bir necha komponentli neolozimlar** – Cargo scale – Yuk o‘lchami,

Carrying charge – saqlash qiymati va boshqalar.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Shoabdurahmonov Sh.va b. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –T., O‘qituvchi. 1980. 127-b.
2. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –T., O‘zbekiston. 1992. 156-b.
3. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. –T., O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 12 tomli. 2000-2006. 10-tom, 498-b
4. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. –T., O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 12 tomli. 2000-2006. 6-tom, 308-b
5. Abdullayev, O., & Rajabova, G. (2023). ABDULLA QAHHORNING “ANOR” QISSASIDAGI FRAZEOLOGIZMLARNING TAHLILI. *Ilm-fan va ta'lim*, 1(14).
6. Okhunjon, A. (2023). THE PLACE AND SIGNIFICANCE OF NEW ADJECTIVES IN THE LEXICON OF THE UZBEK AND KHRAKALPAK LANGUAGES. *INTERNATIONAL JOURNAL OF EUROPEAN RESEARCH OUTPUT*, 2(2), 84-90.

**INGLIZ TILI ISH YURITISH TERMINLARINING O‘ZBEK TILIDA  
BERILISHI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR  
TRANSLATION OF ENGLISH ADMINISTRATIVE TERMS IN UZBEK:  
PROBLEMS AND SOLUTIONS**

**Turdiyev Islomjon Mamdaminovich**

ToshDO‘TAU Xorijiy tillar kafedrası katta o‘qituvchisi

[mrturdiev93@gmail.com](mailto:mrturdiev93@gmail.com)

**Abstrakt:** Ushbu maqolada ingliz tili ish yuritish terminlarining o‘zbek tilidagi turli manbaalarda berilishidagi muammolar haqida ma’lumotlar turli olimlarning tadqiqotlariga tayangan holda iqtiboslar bilan taqdim qilinadi. Shuningdek, tarjimada yuzaga keladigan muammolarga bir qancha tahliliy yechimlar taklif qilinadi.

**Abstract:** This article presents information on the problems of translating English business terms into Uzbek, based on the research of various scholars, with citations. It also offers a number of analytical solutions to the problems that arise in translation.

**Key words:** tarjima muammolari, ish yuritish terminlari, tarjima transformatsiyalari

Ingliz tili ish yuritish terminlarining o‘zbek tilida berilishini tahlil qilishdan avval, terminlar tarjimasiga qo‘yilgan me‘yoriy talablar bilan tanishib chiqish lozim. Terminga qo‘yiladigan me‘yoriy talablar dastlab terminologiya maktabi asoschisi D.S.Lotte tomonidan ishlab chiqilgan. Bu talablar quyidagilardir: tizimlilik, kontekstga bog‘liq emaslik, qisqalik, bir ma‘nolilik, aniqlik, oddiylik, tushunarlilik, tatbiq etilganlik darajasi va boshqalar. Ular ayrim aniqlik va qo‘shimchalar bilan ko‘plab olimlar, xususan, I.N.Volkova, A.V.Krijanovskaya, L.A.Simonenko va boshqalarning ishlarida sanab o‘tilgan<sup>9</sup>.

<sup>9</sup> L.Dehqonov, Sh. Xudoyqulova “Terminologiya va davlat tilida ish yuritish asoslari fanidan ma’ruza matni”, Guliston-2013, 33-34- betlar

Termin sifatida qaralayotgan leksema hech bo‘lmaganda, bir soha doirasida faqat bitta ma’noni anglatishi, aniq, qisqa, tushunarli, tizimli va asoslangan bo‘lishi kerak. Shuningdek, termin tarjimasini berishda ham ona tili imkoniyatlaridan foydalanish orqali imkon qadar ona tilidagi ekvivalentini topish eng muqobil va to‘g‘ri yo‘l sanaladi. Aks holda, har qanday terminotizim umumadabiy til me’yorlaridan uzoqlashadi va pirovard natijada nafaqat oddiy o‘quvchiga, shuningdek, mutaxassislarga ham tushinarsiz bo‘lib qolishi mumkin, natijada tilning tozaligi tamoyiliga jiddiy putur yetkazadi.

O‘zbek tilida terminologiya va uning turli xil sohasida bir qancha tadqiqotlar olib borilgan hamda ularning miqdori salmoqli bo‘lganligi sababli sohaviy terminologiya bo‘yicha bilimlar birmuncha chuqurroqdir. Ularga misol qilib O‘zbek tili bank-moliya terminologiyasini tadqiq qilgan Y.Shirinova, O‘zbek tili texnik terminologiyasini tadqiq qilgan R.Doniyorov, O‘zbek tili ish yuitish terminologiyasini tadqiq qilgan N.Sadinova va boshqa olimlarni keltirish mumkin. Ingliz va o‘zbek tillarida sohaviy terminlar tadqiqi borasida ham bir qancha tadqiqotlar olib borilgan bo‘lib bunga misol tariqasida D.Kadirbekovanning Inglizcha-o‘zbekcha axborot-kommunikatsiya texnologiyalari terminologiyasi va uning leksikografik xususiyatlari nomli hamda O.Ahmedovning Ingliz va o‘zbek tillarida soliq-bojxona terminlarining lingvistik tahlili va tarjima muammolari nomli tadqiqot ishlarida soha terminologiyasining ingliz va o‘zbek tillaridagi o‘xshash va farqli jihatlari keltirilib, tarjimada duch kelinadigan muammolarga yechimlar taklif qilingan. Terminlarni tarjima qilishda ularning komponentlari soni, ko‘p ma’noliligi ahamiyatli ekanligini qayd etib o‘tgan tadqiqotchi olim O.Ahmedovning ta’kidlashicha tilda asosan ko‘p bo‘g‘inli leksemalar va bir necha komponentdan tashkil topgan nominativ funksiyani bajaruvchi leksik birliklar qisqartiriladi va ular asosan ot turkumi doirasida amalga oshiriladi. Ushbu fikrni qo‘llab quvvatlagan holda shuni qayd etish joizki termin tarkibining ko‘p komponentliligi uni og‘zaki va yozma nutqda qo‘llashda qiyinchiliklar tug‘diradi va D.S.Lottening yuqorida ta’kidlangan qisqalik hamda tushunarlilik me’yorlariga zid keladi.

Umuman olganda matn va termin tarjima qilish birmuncha birbiridan farq qilganligi bois ushbu ishimizning obykti bo‘lmish terminlarga nisbatan tarjimashunos olimlarning terminologiya sohasidagi qarashlarini asos qilib olishimiz joiz. Matndan nisbatan kichik bo‘lgan birliklarni tarjima qilish metodlarini E.Aznaurova, L.Barxudarov, V.Komissarov va N.Qambarovlarning fikriga ko‘ra tarjima transformatsiyalari sifatida oldik.

N.Qambarov tarjima transformatsiyalaridan foydalanish salmog‘i asliyat va tarjima tillarining bir - biriga qardosh yoki qardosh emasligiga bog‘liqligi, ularni tarjima munosabati bilan kontaktga kirgan ikki til (asliyat va tarjima)ning tipologik, stilistik, lingvostilistik, pragmatik, lingvopragmatik, lingvokulturologik, sotsiolingvistik hamda lingvotekstologik xususiyatlaridan kelib chiqib tanlanishi borasida o‘z fikrlarini bildirib o‘tgan<sup>10</sup>. Shuningdek olim N.Qambarov ta’kidlaganidek transformatsiyalar sonining kam bo‘lishi tillarning bir-biriga yaqinligidan, transformatsiyalar miqdorining ko‘pligi tillarning bir-biridan uzoq ekanligidan dalolat beradi<sup>11</sup>.

Ingliz tilidagi ish yuritish terminlarining o‘zbek tilida berilishini biz ularning transformatsiyalariga ko‘ra shartli ravishda ajratib chiqdik va quyida ularga misollar taqdim qilinadi.

**To‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilish usullari** manba tilining tuzilish hamda mazmuniy elementlarini tarjima qilinayotgan tilga o‘tkazish mumkin bo‘lganda qo‘llaniladi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima usullari quyidagi 3 guruhga ajratiladi:

- Borroving (o‘zga tildan olingan so‘zlar)
- Kalka
- So‘zma-so‘z tarjima

**So‘z o‘zlashtirish (Borrovinglar)** – so‘z yoki terminlarni bir tildan boshqasiga tarjima qilmasdan to‘g‘ridan-to‘g‘ri olish. Shuningdek o‘zbek tiliga ham bir qancha ish yuritish sohasiga oid terminlar borroving sifatida olingan. Masalan: dalolat, da’vo, javob, iste’mol, kafolat, kotib, lavozim kabilar **arab tilidan**; kamomad, korxonalar,

<sup>10</sup> U.R.Yo‘ldoshev. Tarjima nazariyasi. O‘quv qo‘llanma. – Samarqand: “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti, 2021.45-bet

<sup>11</sup> Qambarov N.M. Tarjima transformatsiyalari va til kontaktlari (nazariy masalalar). Fledu.uz O‘zbekistonda xorijiy tillar elektron jurnali. – T.: 2016.

namuna, narx, nomzod, ovoz, farmoyish, farmon kabilar **fors-tojik tildan**; vebinar, seminar, printer, agent kabilar **ingliz tildan** olingan.

**Kalka usuli** boshqa tildan olingan va soʻzma-soʻz tarjima qilinadigan terminlardir. Biz kalkalarni aksar hollarda social status- ijtimoiy holat kabi ixtisoslashgan yoki xalqaro sohalar terminlarida koʻrishimiz mumkin. Nomuvofiq kalkalash gʻalizlikka olib kelishi mumkin, bu koʻpincha tarjimonning tarjima qilinaotgan tilda tajribasi yoʻqligidan dalolat beradi, Kakalarga misol qilib academic year – akadmeik yil, human resources –kadrlar boʻlimi, assigned –workspace - belgilangan ish joyi.

**Soʻzma-soʻz tarjima usuli** jumla yoki birikma komponentlarining tuzilish oʻrniga ahamiyatli darajada bogʻliq boʻlganligi sababli, ushbu usul har doim ham ish beravermaydi. Aynan tadqiq qilinayotgan ingliz va oʻzbek tillaridagi soʻz tartibi bir birdan farq qilganligi sababli ushbu usul matnlarni tarjima qilishda nisbatan kam qoʻllaniladi. Shunga qaramasdan ushbu usulda tarjima qilingan terminlar so ni samoqli boʻlib ularga misol sifatida Quality Assurance Team, Corporate Communications Department, Employee Relations Specialist (exception Office of the General Counsel), Administrative Support Specialist, Chief Financial Officer, Corporate Social Responsibility, Business Development Manager, Information Technology (IT) Department kabilarni keltirish mumkin.

Yuqorida keltirilgan tarjima texnikalridan tashqari yana bir **Moslashuvchan tarjima usullari** guruhi borki ular manba tilining tuzilish yoki mazmuniy elementlarini maʼnosini oʻzgartirmasdan yoki tarjima qilayotgan tilning grammatik va stilistik elementlarini buzmasdan toʻgʻridan-toʻgʻri tarjima qilish mumkin boʻlmagan holatlarda qoʻllaniladi. Ushbu usullar quyidagilardan iborat:

- 1) Adaptatsiya
- 2) Kompensatsiya
- 3) Direkt tarjima
- 4) kengaytirish
- 5) Transkripsiya
- 6) Transliteratsiya

**Adaptatsiya** usulida muayyan til madaniyatiga xos bo‘lgan termin boshqa til egalariga tushunarli bo‘lishi uchun ularga xos bo‘lgan ma‘lum termin bilan moslashtiriladi. Bu holatda madaniy ko‘chish sodir bo‘ladi. Manba tildagi madaniy holat tarjima berilayotgan tilda mavjud bo‘lmaganida paydo bo‘ladigan o‘zgarishni o‘z ichiga oladi. Terminlar tarjimasining adaptatsiya usulida terminlar ma‘no va vazifasini saqlab qolish uchun madaniy kontekstga moslashtiriladi. Bu usul, ko‘pincha, madaniy yoki ijtimoiy farqlarni hisobga olish ahamiyati mavjud bo‘lgan holda termin tarjimasida ishlatiladi. Quyida ingliz tilidagi ish yuritish sohasidagi terminlarning adaptatsiya yo‘li bilan amalga oshirilgan tarjimalari berilgan.

Cover letter – “Ilova qog‘ozi”; Curriculum vitae – “Qisqacha tarjimayi hol”; Brainstorming – “Aqliy hujum”; Case study method – “Muammoli vaziyat metodi”; Full-time (part-time) – “To‘liq stavka (o‘rindoshlik)”; Handbook - “Qo‘llanma”; Hard copy – “Nusxa.

**Kompensatsiya** usulida asl matndagi qaysidir leksik birlik yoki stilistik ta’sir tarjima mahsulida o‘z joyida bo‘lamsdan, keyingi o‘rinlarda tiklanadi. Ushbu usul yordamida ish yuritish sohasiga oid terminlardan misollar qilib Chain of Command - Buyruq zanjiri, "Catch-22" → "Aylanma dilemma" yoki "Noqulay vaziyat", "Black Friday" → "Juma kuni chegirmalari", "Piece of Cake" → "Oson ish", "Once in a Blue Moon" → "Juda kamdan-kam", "Let the cat out of the bag" → "Sirni oshkor qilish", "Bite the Bullet" → "Qiyinchilikka dosh berish" kabilarni keltirish mumkin.

**Direkt tarjima.** Bu metodda termin boshqa tilga imkon qadar aniq so‘zma-so‘z tarjima qilinadi. Bu usul, ayniqsa, xalqaro e’tirof etilgan ilmiy yoki texnik terminlar uchun mos keladi.

Meeting – “Uchrashuv”; Contract – Shartnoma”; Agreement – “Kelishuv”; Application – “Ariza”;

**Kengaytirish (ekspansiya) usulida** asl terminning ma‘nosini to‘liq yetkazish uchun kengaytirilgan izoh yoki tarjima qo‘shiladi. Bu usul, ko‘pincha, murakkab yoki ko‘p ma‘noli terminlarni tarjima qilishda qo‘llaniladi. Nida va Taber tarjimonlar tarjimini amalga oshirish uchun ba’zi kengaytirish usullaridan foydalanishlari kerak,

deb hisoblashadi<sup>12</sup>. Shunga ko‘ra, tarjimonlar o‘z o‘quvchilarini yaxshiroq tushinishlari va ularga kerakli ma‘lumotlarni berishlari uchun maqsadli matnlar oqimini silliq qilish uchun o‘z tarjimalarida turli xil kengaytirishni qo‘llashlari kerak.

**Marriage certificate** – “Nikoh tuzilganligi haqida guvohnoma”; **Adoption Papers** – “Asrab olish haqida hujjatlari”; **Acknowledgment** – “Qabul qilganlik haqida tilxat”; **Daily standup** – “Kunlik qisqacha majlis odatda tik turgan holda amalga oshiriladi”.

**Transkripsiya** (transcription) usulida manba tildagi termin tarjima berilayotgan tilga talffuz shakliga ko‘ra olib kiriladi.

Manager - menejer, consultant – konsultant, director - direktor, project - projekt, business - biznes, know- how – nou-hau,.

**Transliteratsiya** (transliteration) usulida manba tilidagi so‘z tarjima berilayotgan tilda grafik shakliga ko‘ra qayta yasaladi. Ingliz va o‘zbek tillari qardosh til bo‘lmaganligi hamda ularning talaffuz me‘yorlari birbirdan keskin farq qilganligi sababli bunday usulda tarjima qilingan terminlar kam sonlidir. Masalan: marketing, printer, agent, brifing, veto, tender, patent, import;

Shuningdek ish yuritish terminologiyasining qamrovi keng bo‘lganligi sababli bu soha, iqtisodiyot, savdo-sotiq, huquqshunoslik, axborot texnologiyalar va shu kabi sohalardagi qisqartamalrni ham o‘z ichiga oladi va quyida ushbu qisqartamalarning o‘zbek tilida berilishiga misollar keltiriladi. Tarjimada sohaga oid terminlarda xato va g‘alizliklarga yo‘l qo‘ymaslik uchun abbreviatura va akronimlarning har bir elementi alohida leksik semantik ifodaga ega leksema ekanligini anglagan holda ularni individual tarzda tadqiq qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

CEO (Chief Executive Officer) – bosh ijrochi direktor (Kompaniyadagi eng yuqori martabali rahbar, umumiy operatsiyalar va qarorlar qabul qilish uchun javobgardir).

CFO (Chief Financial Officer) – Moliyaviy ishlar bo‘yicha bosh direktor (Kompaniyaning moliyaviy harakatlarini, shu jumladan byudjetlashtirish, prognozlash va moliyaviy rejalashtirishni boshqarish uchun mas‘ul ijrochi)

<sup>12</sup> Nida, E. A., & Taber, R. (1982). The theory and practice of translation. Leiden: E. J. Brill.

COO (Chief Operating Officer) - Bosh operatsion direktor (Kompaniyaning kundalik ma'muriy va operatsion funktsiyalarini nazorat qilish uchun mas'ul ijrochi)

Abbreviaturalar tilda matnni qisqa ifodalash uchun samarali vositadir. Shuningdek, “Tilshunoslikda abbreviatsiyaga yondosh bo‘lgan boshqa lingvistik hodisalar ham mavjud. Sinkopa, anokopa, aferizis, ellipsis kabi til universalialari shular jumlasidan. Abbreviatsiyaning nazariy masalalari tilshunoslikda yetarlicha, chuqur yoritilmagani sababli ba’zida uning obykti bo‘lmagan birliklarga ham qisqartmalar deb qaraladi”<sup>13</sup>. Shundan kelib chiqib sohaga oid terminlarning qisqartmalari ham abbreviatura deb umumiy holda olindi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. L.Dehqonov, Sh. Xudoyqulova “Terminologiya va davlat tilida ish yuritish asoslari fanidan ma’ruza matni”, Guliston-2013, 33-34- betlar
2. Nida, E. A., & Taber, R. (1982). The theory and practice of translation. Leiden: E. J. Brill.
3. Nishonov P. Fransuz va o‘zbek tillari yuridik terminologiyasining qiyosiy-tipologik tadqiqi. Filol.fanlari nomzodi...dis. avtoref.- T.: 2009.- 26 b.
4. Qambarov N.M. Tarjima transformatsiyalari va til kontaktlari (nazariy masalalar). Fledu.uz O‘zbekistonda xorijiy tillar elektron jurnali. – T.: 2016.
5. U.R.Yo‘ldoshev. Tarjima nazariyasi. O‘quv qo‘llanma. – Samarqand: “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti, 2021.45-bet

---

<sup>13</sup> Nishonov P. Fransuz va o‘zbek tillari yuridik terminologiyasining qiyosiy-tipologik tadqiqi. Filol.fanlari nomzodi...dis. avtoref.- T.: 2009.- 26 b.

## UMUMTA’LIM MAKTABLARDA O‘ZBEK TILINI DAVLAT TILI FANI SIFATIDA O‘QITISH ASOSLARI

**Xojiyeva Iroda Zokirjon qizi**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining  
mustaqil izlanuvchisi  
irodaxojiyeva024@gmail.com

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada ta’lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan umumta’lim maktablari o‘quvchilari uchun o‘zbek tilini davlat tili sifatida o‘qitishning ilmiy, huquqiy asoslari, o‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘qitish masalalari xususida fikr yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** ikkinchi til ta’limi, davlat tili fani.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются научно-правовые основы обучения узбекскому языку как государственному учащимся общеобразовательных школ, где обучение ведется на русском и родственных языках, а также вопросы преподавания узбекского языка как второго языка.

**Ключевые слова:** второе языковое образование, наука о государственном языке.

**Annotation.** This article discusses the scientific and legal foundations of teaching the Uzbek language as a state language to students in secondary schools, where instruction is conducted in Russian and related languages, as well as issues of teaching the Uzbek language as a second language.

**Key words:** second language education, science of the state language.

Jahon mamlakatlari o‘rtasida til ta’limini yanada rivojlantirish, yangi yondashuvlar asosida tadqiqotlar olib borish kabi amaliy ishlar olib borilayotgan bir davrda mamlakatimizda ham tilimizning rivoji, yangi yo‘nalishlar zamirida takomillashishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda. Xususan, “O‘zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro‘-e’tiborini tubdan oshirish,

unib-o’sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an’ana va qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilini to’laqonli joriy etishni ta’minlash, O‘zbekistondagi millat va elatlarning tillarini saqlash va rivojlantirish, davlat tili sifatida o‘zbek tilini o‘rganish uchun shart-sharoitlar yaratish, o‘zbek tili va til siyosatini rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo‘nalish va vazifalarini hamda istiqboldagi bosqichlarini belgilash maqsadida” [1] qabul qilingan Konstitutsiyadan keyingi “Davlat tili to‘g‘risida”gi qonun til taraqqiyotining asosiy poydevorlaridan biri sanaladi. “Davlat tili to‘g‘risida”gi Qonun va istiqloq tufayli o‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi ona tilimizning keyingi rivoji uchun keng ufqlarni ochdi. Ona tilimiz respublikamizning asosiy muomala, aloqa vositasiga aylandi, ilmiy, badiiy, rasmiy til sifatida keng miqyosda qo‘llana boshladi. O‘zbek tilining O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va “Davlat tili haqida”gi Qonuni tomonidan belgilangan davlat tili sifatidagi maqomi ona tilimizning ijtimoiy vazifalari va rasmiy-idoraviy muloqot yuritishdagi mavqeyini yanada kengaytirishning mustahkam asosi bo‘lib, yoshlarga milliy istiqloq g‘oyalarini, vatanparvarlik, elimizga sadoqat tuyg‘ularini singdirishda, ularning barkamol avlod bo‘lib yetishishlari va ijtimoiy-iqtisodiy hayotimizning barcha jabhalarida keng faoliyat olib borib, yurtimizning ravnaqi uchun xizmat qilishlarida davlat tili ta’limining ahamiyati nihoyatda kattadir” [2, B.3]. Shu bois, umumta’lim maktablarda o‘zbek tilini davlat tili fani sifatida o‘qitish metodikasini zamon talablariga mos holda takomillashtirish, metodik ta’minotini yaratish, bu bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirish zarurati mavjud.

Mamlakatimizda qabul qilinayotgan qonun hujjatlari va keyingi yillardagi o‘zbek tilini yanada takomillashtirishga bag‘ishlangan qator chora tadbirlar, xususan, “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-sonli Farmoni ta’lim muassasalarida davlat tilini o‘rgatish va uni bilish darajasini baholash tizimini yanada takomillashtirishga qaratilganligi bilan o‘zbek tilining taraqqiyotida yangi sahifalarni ochdi. Farmonda o‘zbek tilining mamlakatimiz hududida istiqomat qiluvchi barcha millatlar va elatlar tomonidan o‘rganilishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratib berish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan bo‘lib, uning ijrosini

ta'minlash uchun o'zbek tilidan tuzilgan dasturlarni yanada takomillashtirish, darsliklarni mazmunan va metodik tomondan tubdan yaxshilash taqozo etiladi” [2, B.3]. O'zbek tili (davlat tili) fanining o'quv rejasi hamda fan dasturi bilan tanishishda oldin, shuni alohida ta'kidlash kerakki, mamlakatimizda umumiy o'rta ta'lim olish 7 tilda olib borilishi belgilangan. “Respublikamizda umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim 7 tilda: o'zbek, qoraqalpoq, rus, qozoq, qirg'iz, tojik, turkman tillarida olib boriladi. O'zbek tilining respublikamizdagi ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan umumta'lim maktablarida va uzluksiz ta'lim tizimining keyingi bosqichlarida esa ta'lim rus va qoraqalpoq tillarida olib boriladigan guruhlarda davlat tili sifatida o'qitilishidan ko'zlangan asosiy maqsad mamlakatimizda yashovchi turli millatlar farzandlarining o'zbek tilini kundalik turmushda va ijtimoiy faoliyati jarayonida turli insonlar o'rtasidagi og'zaki va yozma muloqot yuritish ko'nikmalarini tarkib toptirishdan iborat. Ta'lim jarayonida bilimlar, ko'nikma va malakalarni kimga berish, ya'ni kimlar ta'lim subyekti ekanligi nihoyatda muhim bo'lib, shundan kelib chiqqan holda til ta'limida tilni ona tili sifatida o'qitish va chet tili (yoki ikkinchi til) sifatida o'qitish farqlanadi. Til o'qitishda bu juda muhim bo'lib, ta'lim mazmuniga ham, ta'lim metodlariga ta'sir qilmay qolmaydi”. Demak, o'zbek tili fani o'zga til vakillariga ikkinchi til sifatida o'qitilar ekan, ularga tanlanadigan o'quv materiallari va o'quv topshiriqlarini ham bugungi kunda talab etilayotgan malakalarni takomillashtirishga e'tibor qaratilishi zarur. “Keyingi yillarda ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablar uchun o'zbek tilidan tuzilgan o'quv dasturlarida grammatik ma'lumotlarni o'zaro uzviylikda va ta'lim bosqichlariaro uzluksizlikda berilishiga, “O'zbek tili” darsliklarida esa ushbu nazariy ma'lumotlarni ham nutqiy mavzu bilan, ham adabiy o'qish materiallari bilan uzviyligi ta'minlanishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu o'rinda shuni ta'kidlash kerakki, tilga oid bilim, ko'nikma. malakalarni shakllantirish spiralsimon bosqichli ketma-ketlikni talab etadi. Ya'ni nazariy ma'lumotlarni o'quvchining yoshiga mos holda avval berilgan bilimlar mustahkamlab borilgan holda bosqichma-bosqich kengaytirib borilishini talab etadi [3, B.12].

Umuman olganda, o‘zbek tili ikkinchi til sifatida o‘qitilar ekan, yondashuv va metodikalar shu asosga ko‘ra tanlanishi lozim bo‘lib, o‘qituvchi o‘quvchilarni yo‘naltira olishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Qolaversa, o‘zbek tilini ta’lim o‘zga tilda olib boriladigan maktab o‘quvchilariga o‘rgatishda zamonaviy mazmun va shaklga ega mashq va topshiriqlarni, hayotiy ko‘nikmalar asosida amaliy, hayotiy, jonli va foydali o‘zbek tilini o‘rgatuvchi namuna hisoblanadi. Bunda “O‘zbek tili fani faqat grammatik me’yorni o‘rgatuvchi fan sifatida emas, balki o‘quvchining ixtiyoriy mavzudagi, fanlar kesimidagi matnlarni tinglab tushunishiga, to‘g‘ri o‘qishiga, orfoepik va orfografik me’yorlarni rivojlantirishga xizmat qiladigan fandır. O‘zbek tilini mukammal o‘zlashtirgan o‘quvchida o‘zbek tilida beriladigan matnlarni o‘qish orqali mantiqiy, tanqidiy, ijodiy (kreativ) fikrlash va olgan bilimlarini hayotda qo‘llay olish layoqati rivojlanishi maqsad qilingan” [4, B. 279-283].

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida’gi PF-6084-sonli Farmoni.
2. Muxitdinova X. O‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘qitish metodikasi: o‘quv qo‘llanma, Toshkent – 2023, 3-b.
3. Muxitdinova X. O‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘qitish metodikasi: o‘quv qo‘llanma, Toshkent – 2023, 12-b.
4. Xojiyeva I. Umumta’lim maktablarda o‘zbek tili (davlat tili) fanining o‘qitilishi. // Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali, Impact Factor: 8.2 |2181-3035|№ 12(49), 279-283-b. DOI <https://doi.org/10.5281/zenodo.12169210>.

## **KORXONALARDA SIFAT MENEJMENTINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

**Jamolidinova Asilabonu G‘olibjon qizi**

Farg‘ona Politehnika instituti 1-bosqich magistranti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada korxonada sifat menejmentini o‘ziga xos xusiyatlari bilan bog‘liq bir qancha ma‘lumotlar va uning ahamiyati qanchalik yuqori ekanligi haqida keltirib o‘tilgan. O‘zbekiston va xorij davlatlarida sifat menejmentini yaxshilash hamda uni joriy qilish haqidagi ma‘motlar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** sifat menejmenti, boshqaruv,, xorijiy tajribalar, ish haqqi, bo‘limlar, markazlashtirish.

“Biz, avvalo, iqtisodiyotni isloh qilish va erkinlashtirish borasidagi ishlarimizni yanada chuqurlashtirish, uning soha va tarmoqlarini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish bo‘yicha boshlangan ishlarni jadallashtirishimiz va hududlarni modernizatsiya qilish, ularning raqobatdoshlik darajasini oshirish, eksport salohiyatini rivojlantirish masalalari doimiy e‘tiborimiz markazida bo‘lishi lozim”

**Sh.M.Mirziyoyev.**

Respublikada, avvalom bor xususiy mulkchilik sinfini shakllanishi yoki qaror topishi va mulkchilikka nisbatan bo‘lgan tushunchalarning o‘zgarishi–davlatning mahalliy ishlab chiqaruvchilarining jahon bozorlarida mustahkam o‘ringa ega bo‘lishida muhim omil bo‘ldi.

Korxonalarda halqaro standart talablariga muvofiq sifat tizimlarining joriy etilishi raqobat muhitida korxonalar yutug‘ining kafolati xisoblanadi va korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirishga va iste‘molchilarni sifatli va ekologik xavfsiz mahsulotlar bilan ta‘minlash imkonini beradi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish korxonalari oldida turgan eng asosiy vazifa-raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishdir. Shuning uchun ham mahsulot va xizmatlar sifatini yaxshilash bugungi kunning muhim masalalaridan hisoblanadi. Mahsulot va xizmatlar sifatini yaxshilash strategik muammo bo‘lib, mamlakatimiz iqtisodiyotining stabillashuvi muammolarning hal etishiga bog‘liqdir. Sifatni yaxshilash jarayoni mahsulotni sotish yoki xizmatlar ko‘rsatishda faqatgina ko‘proq foyda olish uchungina emas, balki jamiyat uchun, uning ravnaqi uchun ham zarurdir. Ma‘lum foydalilikka ega bo‘lib, sotilish bahosi bilan tannarx o‘rtasidagi farqga ega bo‘lgan tovarlar albatta sotilishi kerak. Tovarlarni sotib olar ekanmiz, biz ularni faqatgina zarur bo‘lgani uchungina emas, balki bizga yoqqani uchun ham haqini to‘laymiz. Bunda tovarlarning tashqi ko‘rinishi, foydalanishning qulayligi, xizmat ko‘rsatish muddati, texnikaviy tavsifi, kafolatli xizmat ko‘rsatish shartlari kabilar ularning bahosini belgilashda muhim omil hisoblanib, xaridor tovarni—ma‘lum ehtiyojlarni qondiradil, degan umid bilan sotiboladi. Shunday qilib tovarni sotilishining muhim shartlari-xaridorning uning kafolatlangan sifatiga ishonch va bahosidir. Mahsulot sifati deb, manashu mahsulotga nisbatan qo‘yilgan xalq ehtiyoji talablarini qondirilish darajasi, ularning xossa xususiyatlari, tashqi ko‘rinishi, ishlatilishining qulayligiga aytiladi. Ko‘pgina xalqaro tashkilotlar, ya`ni Yevropa Sifat tashkiloti, ISO standartlashtirish xalqaro tashkiloti tomonidan XXI asrni-sifat asri, deb e‘tirof etilishi bejiz emas. Aslida sifat-jamiyatdagi mehnatning yuksak samarasi ko‘rsatkichi, milliy boylik manbai va eng muhimi, ijtimoiy va iqtisodiy inqirozlardan chiqish omilidir.

Yaponiyaning sifatni boshqarish tajribasi ishning sifatini oshirish hech qachon tugamasligini ko‘rsatadi. 1945 yilda Yaponiya vayron bo‘lgan, sanoati to‘liq ishdan chiqqan edi. SHuningdek, o‘sha davrda Yaponiyaning texnikasi qoloq holatda bo‘lgan. Zamonaviy radiotexnikada katta ahamiyatga ega bo‘lgan Yaponiyada ishlab chiqarilgan kuchaytirgichlar uchun kichik chastotali transformator 250 gramm og‘irlikda edi. Ayni vaqtda AQSH da bu apparatning konstruksiyasining vazni atigi 30 gramm bo‘lgan. Suv bilan to‘yintirilgan Yaponiya transformatori 15 daqiqada ishdan chiqardi, Amerikaniki esa germetik qoplama bilan to‘liq o‘ralgan va suv

o‘tkazmaydi. Biroq 40 – yillarning oxiri – 50 – yillarning boshida sifatni boshqarish bo‘yicha Amerikaning mashhur olimlari E. Deming va J. Juranning sabog‘ini olgan yapon mutaxassislari bu bilimlardan Yaponiyaning sanoatida muvaffaqiyatli foydalana boshladilar. Deming davri tatbiq qilindi. U mahsulotni loyihalash, ishlab chiqarish, sotish, tahlil qilish va sifat darajasini oshirish uchun o‘zgarishlar – PDCA tsikli “rejalashtirish – bajarish – tekshirish – tuzatish ta’sirlari” (“plan – do – check – action”) ni bog‘langan. Texnologik jarayonni boshqarish uchun nazorat kartalari faol qo‘llanilgan. Deming nomidagi mukofoti uning kitoblari, ma’ruzalari topshiriladigan mualliflik mukofoti sifatida ta’sis qilingan. Deming oltin medali alohida shaxs yoki korxonaga uchun 1951 yildan boshlab berib kelinmoqda. Sifatni boshqarishga Yaponiyaning yondashuvi bir qator o‘ziga xos xususiyatlarga ega, biroq qiyosiy tahlil uning nazariy qoidalari jahon tajribasi bilan umumiy xususiyatga egaligini ko‘rsatmoqda. Bu kontseptsiya to‘liq va to‘g‘ri tatbiq qilingan ilg‘or xorijiy firmalarning sifatni boshqarish tizimlari bir – biriga o‘xshash, ularni qo‘llash va rivojlantirish mexanizmlarida ham umumiylik mavjud. Sifatni boshqarishga Yaponiya yondashuvining o‘ziga xos xususiyatlari: 1) barcha bo‘linmalarda mehnat jarayonlari va natijalarini doimiy takomillashtirish; 2) mahsulotning sifatini emas, balki jarayonlarning sifatini nazorat qilish; 3) nuqsonlarga yo‘l qo‘yilish ehtimolini bartaraf qilish; 4) oldingi operatsiyadan keyingisiga o‘tishda yuzaga keladigan muammolarni tadqiq va tahlil qilish; 5) “Sening iste’molching – keyingi ishlab chiqarish operatsiyasini bajaruvchi” tamoyilini ilgari surish; 6) bevosita ijrochining zimmasiga mehnat natijalarining sifati uchun javobgarlikni yuklash; 7) inson omilidan faol foydalanish ishchilar va xizmatchilarning ijodiy salohiyatini oshirish, “Yaxshi odamga yomon ishlash uyat” maqoliga rioya qilish. “Yapon mo‘jizasi” ning asosiy g‘oyasi – har qanday sohada ilg‘or texnologiyalarni qo‘llash. Firmalarda hisoblash va mikroprotsessor texnikasi, yangi materiallar, loyihalashning avtomatlashtirilgan tizimlari, to‘liq kompyuterlashtirilgan statistik usullar keng tatbiq qilinmoqda. Yaponiya mutaxassislarning fikriga ko‘ra, ishni majburiyatlar mantig‘ini himoya qilishdan emas, balki ma’lumotlarni to‘plash va tahlil qilishdan boshlash, hamkorlikdagi izlanishlar, jamoaning qarorlariga tayanish kerak.

Ishchilarni o‘qitish ularning bevosita rahbarlari – masterlar, uchastka boshliqlari tomonidan amalga oshiriladi. Masterlar, uchastkalar va tsexlarning boshliqlarini o‘qitish 6 kunlik nazariy kurs va 4 oylik amaliy faoliyatdan iborat. “Nissan Motor” kompaniyasida ish faoliyatining dastlabki 10 yilida o‘qitish ishlab chiqarishdan ajralgan holda amalga oshiriladi va bunga kamida 500 kun sarflanadi. Keyinchalik o‘qitish kechqurunlari va dam olish kunida bevosita ish joylarida davom etadi. Vaqti – vaqti bilan barcha toifadagi ishlayotganlar, shuningdek, rahbarlar attestatsiyalanib, o‘qitish jarayoni yakunlanadi. Mos bo‘linmalarining rahbarlari mutaxassislar ishtirokida attestatsiyalashni o‘tkazadilar. Ishchilarning toifalariga mos ravishda attestatsiyalash 3, 6 oy va 1 yilda bir marta olib boriladi. tendensiyalar hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida sifatni boshqarishning tashkiliy – iqtisodiy masalalari ko‘p hollarda yangicha yondashuvlar asosida hal qilinadi. Biroq orttirilgan tajriba va milliy fan salohiyatidan bu sohada foydalanish nihoyatda foydali..

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. 2021 Deloitte global human capital trends report // Deloitte Insights [electronic resource] p.12
2. R.ISMATOV, O.AHMEDOV sifat menejmenti fani bo‘yicha o‘quv-uslubiy qo‘llanma.
3. Грачев В. Особенности управления персоналом: организация и систематизация. В.Грачев // Кадровый менеджмент. - 2015. - N5. С. 36 -49.
4. A.Usmonov. Tashkilotda xodimlarni boshqarishning tashkiliy-motivatsion mexanizmlarini takomillashtirish yo‘llari... Diss. Avtoreferati. T.2023.

## O'QUVCHI YOSHLARNI TARBIYALASHDA OILANING AHAMIYATI

### Mahkamova Malohat

Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumani MMTBga qarashli

24-sonli maktab psixologi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada muallif farzand tarbiyasida ota-ona ro'li, uning mas'uliyati, farzandga o'rnak bo'lishi mexanizmi haqida so'z yuritadi. Shu bilan birga farzand kamoli qanday oliy baxt ekanligini ham tushuntirib boradi.

**Kalit so'zlar:** Farzand, oila baxti, odob, shirinso'zlik, axloq, saodat.

Inson ushbu hayoda yashar ekan doimo yaxshi Yashash, o'zidan yaxshi mom qoldirishni xoxlaydi. Ollox biz insoniyatni ongimiz, aql zakovatimiz sababli hayonot olamidani farqli etib yaratdi. Shunday ekan jamiyatni aqlli, tarbiyali, atrofga foydasi tegadigan insonlar bilan boyitish bu barchamizning vazifamizdir.

Har bir ota-ona farzandining baxti kelajagi ertangi kunini o'ylab hamisha yaxshi tilaklar, orzu intilishlar va maqsadlar bilan yashaydi. Shunday ekan oilada farzandlarni ma'naviy-ma'rifiy, yuksak barkamol etib voyaga yetkazishda pedagogik-psixologik tarbiyaning ahamiyati, o'rni beqiyos.

Bola 14 yoshgacha ota-onadan quvvat oladi. Shu yoshgacha tanqid va aybdorlik hissini o'rniga mehr bergan bo'lsangiz bu albatta qaytadi. Inson o'zidan oshib-toshib ketgan narsanigina beminnat shunchaki bera oladi. Siz ham o'zingizdagi mehrni berayotgan bo'lsangiz bola ham shunday qiladi, sizni o'zingizga mehr yetmayotgan bo'lsa boladan ijobiy xulq atvorni va mehrni kutmang, chunki unda bu yo'q. Agar bola qo'rquvda yashasa u bezovta bo'lib qoladi. Agar bolaning iqtidori tan olinsa, u o'zining oldiga maqsad qo'yishni o'rganadi. Agar bola achinaverilsa, u achinishga o'rganadi. Agar bolaning xatti-harakatlari ma'qullansa u o'zini yaxshi ko'rishni o'rganadi. Agar bola rashk hissi bilan yashasa, u aybdorlik hissiga ega bo'ladi. Agar bolaga do'stona munosabatda bo'linsa, u dunyo yaxshi yashash uchun yaxshi maskan ekanligini anglaydi.

Uyushmagan yoshlar bilan ishlash, bu qatlamni o‘ganish, ularni birlashtirish bugungi kunning dolzard ijtimoiy muammolaridan biri bo‘lib qoldi. Uyushmagan yoshlar kim? Uyushmagan yoshlar qatlami qanday qilib vujudga keldi? Ular jamiyatning qanday qatlami? Hozirgi kunda yoshlarning 10 millionnini uyushmagan yoshlar tashkil etadi, ular ayni vaqtda biror bir kasb-hunar yoki ta’limning ma’lum bir qismida faoliyat olib bormayotgan, oliy yoki o‘rta maxsus ma’lumotga ham ega bo‘lmagan, tayinli ish bilan mashg‘ul bo‘lmagan yoshlar tushuniladi.

Bizning jamiyatimizda bu qatnamning yosh guruhlari o‘rtacha 19-24 hamda 26-30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar tashkil etyapti. Birinchi guruh asosan o‘rta maxsus ta’limi bitiruvchilari bo‘lib, ular kollej va akademik litseylarni tugatib, yo oliy ta’lim yurtlariga hujjat topshirishadi yoki o‘z sohasi bo‘yicha ish berayotgan idora va tashkilotlar bilan shartnoma tuzib ishga qabul qilinadilar, lekin ularning barchasi ham ishda qolib, uni davom ettirishmaydi. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarning faqat 10 foizigina birinchi yil oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kiriyapti xolos. Qolgan yoshlar o‘qishga kirish uchun tayyorgarlik ko‘rishyapti, qolgan qismi esa haligacha tayinli ish topa olmay sarsonlikda yuribdi. Yoshlarning ayrimlari esa o‘qishga kira olmay, ish topa olmay xorijiy davlatlarga ishlashga ketyapti. Xorijiy davlatdaham tayyor ish yo‘qligi sababli u yerda ham sarsonlikda yurgan yoshlarimiz afsuski yo‘q emas.

Endi esa yoshlar orasida bu ijtimoiy-psixologik muammolarning kelib chiqish sabablari haqida fikr yuritsak. Bunday holatga asosiy sabab, birinchi navbatda hali saviyasi past bo‘lgan ota-onalarning hamda ularning farzandlariga berayotgan tarbiyasini ko‘rishimiz mumkin. Bazi odamlarimizda hali-hanuz saqlanib qolayotgan eskicha fikrlash va qoloq dunyoqarash bu muammoning asosiy omilidir. Ota-onalarning yoshligidan bolalarga berib kelayotgan “o‘qib nima qilasan undan ko‘ra ishni qil, qorning shundan to‘yadi o‘qib dunyoni olib berasanmi” qabilidagi fikrlari yoki bo‘lmasa, bolalarni yoshligidan o‘qib, ilm olishga yo‘naltirmay psixologik dalda bermay, “qora mehnat”ga jalb qilib, shu bhonada o‘qishdan bolani chalg‘itib, buning ustiga durustroq kasb-hunar ham o‘rgatolmay, lo‘nda qilib aytganda “sixni ham kabobni ham kuydirishlari” masalaning og‘riqli nuqtalaridan biridir.

Oldimizda turgan muammolarni yechishda har bir ikir-chikir sabablarga nazar tashlash o‘rinlidir. Bolaning yosh paytidagi o‘tkir zehni, barcha narsani qabul qilishga qodir bo‘lgan paytda, ularni durust kasb-hunar yoki o‘qishga yo‘naltirish o‘rniga bolalarni ko‘chada vaqtini bekor o‘tkazishiga ruxsat bergan, har safar maktabga yo o‘qishga ketayotganida kissasini pul bilan to‘ldirib jo‘natayotgan, hali endi shakllanish bosqichida turgan bolalarga mobil telefon, kompyuterlar olib berib, ularni nazoratsiz, o‘z xoxishiga tashlab qo‘ygan ota-onalar oramizda yo‘q emas. Hech qaysi bola yoshligidan kitob o‘qishni xohlab, ota-onasidan iltimos qilmaydi, ular bu paytda qiziqqon, o‘yin kulguga o‘ch bo‘lishadi, lekin unga yoshligidan ota-onasi zarur tarbiyani berib, o‘qishga hamda kasb-hunarga yo‘naltirsa albatta undan kelajakda jamiyatga va oilasiga nafi tegadigan shaxs bo‘lib ulg‘ayadi. Lekin buning o‘rniga bolaning yoshlikdan o‘yin kulgu va o‘tkinchi narsalar bilan band bo‘lib, mobil telefon va kompyuterlar og‘ishida o‘sgan boladan nimani kutish mumkin? Zeroki, yoshlikda berilgan tarbiya insonning kelajakda qanday shaxs bo‘lib ulg‘ayishida katta o‘rin tutadi.

Bu o‘rinda Abdulla Avloniyning quyidagi fikrini aytib o‘tishni lozim topdim: “Tarbiya biz uchun yo hayot-yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir”. Shubhasiz oila haqiqiy hayot maktabi va tarbiya o‘chog‘idir.

Biz yosh avlodga ilm-fan hamda kasb-hunarni yoshligidan ongiga singdirib borishimiz kerakki, zero u ulg‘ayganda buning foydasi hamda berilagan tarbiyaning to‘g‘riligini ongli ravishta tushunib yetsin. Agar shunday qila olsak u o‘qishni o‘zi anglab yetadi, boshini kitobdan ko‘tarmaydi, unga hech qanday kompyuter o‘yinlari-yu mobil telefonlarning keragi bo‘lmaydi. Uni o‘qishga majburlab, nasihat qilish kerak bo‘lmaydi. Bir qancha rivojlangan mamlakatlarda misol uchun Yaponiyada na shunday uzviy ta‘lim va tarbiya birga olib boriladi. Yapon yoshlari o‘qishni barcha narsadan ustun qo‘yishadi. Yaponiyada barcha joylarda metrolarda, xiyobonlarda, ko‘chalarda, xoh yirik shahar bo‘lsin, xoh chekka qishloq hamma yerda bukshop va bukkafelar bor, yapon yoshlari barcha yerlarda o‘tirib tinimsiz ilm olish payida bo‘lishadi, ularni boshqa hech narsa qiziqtirmaydi.

Yapon maktablarida davomat 99,9% ni tashkil etadi, hech qaysi o‘quvchi maktabda o‘quv formasisiz kelmaydi. Fan imtihonlarida tartib shunchalik yuqoriki, yapon o‘quvchi talabalari bir-biridan ko‘chirish bir-biriga yordam berish yoki har xil ko‘z bo‘yamachiliklarni xayollariga ham keltirishmaydi, barchalari, hammalari o‘zlari uchun o‘z kelajaklari uchun harakat qilishadi. Yaponiyada ta’limda milliy an’analar hamda yaponcha tarbiya ruhi ta’lim bilan omuxtalashib ketgan va hozirgi kunda dunyoning yetakchi mutaxassislari yaponiyadan yetishib chiqayotganligi, davlat yalpi ichki mahsulotining oshishi, eng muhimi jamiyatdagi ishsizlar sonining kamligi yapon ta’lim tizimining naqadar samarali ekanligini isbotlaydi. Men bu fikrlarim bilan kimnidir maqtash, kimnidir yerga urish maqsadidan yiroqman, lekin ibrat olsa bo‘ladiganlardan ibrat olish kerakligini aytmoqchiman.

Barcha narsa hatto, jamiyatdagi ko‘plab yechimini kutib turgan muammolarning asl sababi to‘g‘ri tarbiyaga borib taqalar ekan, shu o‘rinda ota-onalar hamda jamiyatning uzviy bog‘liqligini ta’minlash kerakligini aytmoqchiman, buning uchun biz ota-onalar bilan uchrashuvlar o‘tkazishimiz lozim, ularning ma’naviyatini, psixologik madaniyatini oshirishimiz kerak, bunda albatta ta’lim muassasalarining o‘rni katta. Shu o‘rinda yana bir fikrga e’tiboringizni qaratmoqchiman, xalqimizda “Qars ikki qo‘ldan chiqar” degan pur ma’no naql borki, ko‘p o‘rinlarda biz bu fikrni naqadar to‘ri ekanligini tan olmay ilojimiz yo‘q. Masalaning bir jihati borki, shu o‘rinda shuni aytishni lozim topdim. Biz yuqorida aytilgan muammolarning vujudga kelishida nafaqat ota-onalar, balki ta’lim tizimimizdagi ayrim yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar sabab bo‘lyapti.

Bu kamchiliklarni bartaraf etsak, albatta ijobiy natijalarga erishamiz. Yoshlar bizning kelajagimiz ularning ta’lim olishi kasb egallashlariga ko‘mak berish bizning vazifamizdir. Farzand bu ota ona ko‘z gusi hisoblanadi. Ota ona o‘zidagi ijobiy va salbiy sifatlari bilan farzandlariga o‘rnak bo‘lib boradi. Ota ona tomonidan uqtirilgan Pand nasihatlar aqilli farzand uchun hayot davomida dasturi amal bo‘lib hizmat qiladi. Shunday ekan avvalo inson o‘z kamchiliklarini tuzatishi, xar bir vaziyatdan o‘ziga kerakmi xulosa olishi lozim.

Shu o‘rinda Mana shu satrlar qalbimga quyulib keldi:

Xalqda bordir bir naql,  
Farzand it's ko'zgusi.  
Farzandlar bo'lsa ahil,  
Yurtda unib, o'sgusi...

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. A.Avloniy “Turkiy guliston yohud axloq”
2. Abu Nasr Farobiy “Fozil odamlar shahri”. Toshkent. Xalq merosi. 1993-yil.
3. E.G‘oziyev “Ontogenez psixologiyasi”. 2010-yil.
4. Nishonova Z, Alimova G “Bolalar psixologiyasi va uni o‘qitish metodikasi”. Toshkent. 2013-yil.

## **PEDAGOGIK KONFLIKNING YECHIMI VA UNI BOSHQARISH TEKNOLOGIYASI**

**Ergasheva Fazilat Boboqulova**

Iqtisodiyot va Pedagogika universiteti Pedagogika yo`nalishi 1- bosqich Magistranti

[Ergashevafazilat86@gamil.com](mailto:Ergashevafazilat86@gamil.com)

**Annotatsiya:** Maqola pedagogik konfliktlarning yechimi va uni boshqarish texnologiyalarini o`rganishga bag`ishlangan. Ta`lim jarayonida yuzaga keladigan pedagogik konfliktlar, o`quvchilar va o`qituvchilar o`rtasidagi ziddiyatlar, shuningdek, o`quvchilarning o`zaro munosabatlaridagi kelishmovchiliklar sifatida namoyon bo`ladi. Konfliktlarni boshqarishning samarali texnologiyalari, masalan, mediatsiya, empatik yondashuvlar, psixologik qo`llab-quvvatlash va innovatsion metodlar ta`lim muhitini ijobiy tomonga o`zgartirishi mumkin. Maqolada pedagogik konfliktlarni konstruktiv hal qilish, ularni oldini olish va boshqarishning samarali usullari keltirilgan. Ushbu yondashuvlar o`quvchilarning ijtimoiy ko`nikmalarini rivojlantiradi va ta`lim sifatini oshiradi. Maqola ta`lim tizimida konfliktlarni boshqarishga oid yangi metodlarni joriy etish zaruratini ta`kidlaydi.

**Аннотация:** Статья посвящена решению педагогических конфликтов и технологиям их управления. Педагогические конфликты возникают в процессе обучения между учениками и преподавателями, а также между самими учениками. Эффективное управление конфликтами с использованием технологий, таких как медиация, эмпатия и психологическая поддержка, способствует созданию положительной атмосферы в образовательном процессе. В статье рассматриваются методы конструктивного разрешения конфликтов, их предотвращение и важность внедрения инновационных подходов для улучшения качества образования. Работа подчеркивает необходимость внедрения новых методов управления конфликтами в систему образования для повышения ее эффективности.

**Abstract:** This article explores the resolution of pedagogical conflicts and the technologies for managing them. Pedagogical conflicts arise in the educational process between students and teachers, as well as among students themselves. Effective conflict management using technologies such as mediation, empathy, and psychological support helps foster a positive educational environment. The article discusses methods for constructively resolving conflicts, preventing them, and the importance of introducing innovative approaches to enhance the quality of education. The work emphasizes the need to implement new conflict management methods in the education system to improve its effectiveness.

**Kalit soʻzlar:** Pedagogik konflikt, Konfliktni boshqarish texnologiyalari, Mediatsiya, Konfliktlarni hal qilish metodlari, Taʼlim jarayonida konfliktlar, Ijtimoiy koʻnikmalar, Psixologik qoʻllab-quvvatlash, Innovatsion pedagogik yondashuvlar, Konfliktologiya, Taʼlimda nizolarni boshqarish Konfliktlarning oldini olish, Taʼlim muhitini yaxshilash, Pedagogik boshqaruv texnologiyalari, Konstruktiv konfliktlar, Taʼlimning sifatini oshirish, Psixologik va pedagogik integratsiya, Konflikt hal qilishning samarali usullari, Oʻqituvchi va oʻquvchi oʻrtasidagi munosabatlar, Konfliktni tahlil qilish metodlari

## **Kirish**

Pedagogik konfliktlar – bu taʼlim jarayonining ajralmas qismi boʻlib, ular oʻquvchilar va oʻqituvchilar oʻrtasidagi, oʻquvchilar orasidagi yoki oʻquv muhitida yuzaga keladigan nizolar sifatida namoyon boʻladi. Ushbu konfliktlar notoʻgʻri boshqarilganda taʼlim jarayonining sifati pasayishi, oʻquvchilarning motivatsiyasi kamayishi va psixologik muhitning yomonlashishiga olib kelishi mumkin. Shu bilan birga, pedagogik konfliktlarni boshqarishning samarali texnologiyalari yordamida ularni ijobiy tomonga yoʻnaltirish va taʼlim jarayonida rivojlanish imkoniyatiga aylantirish mumkin.

Bugungi kunda taʼlim muassasalarida konfliktlarning sabablarini aniqlash, ularga empatik yondashuvni qoʻllash va innovatsion boshqaruv texnologiyalarini tatbiq qilish zaruratga aylandi. Konfliktni hal qilish nafaqat muammoni bartaraf etish,

balki o‘quvchilarning ijtimoiy va hissiy ko‘nikmalarini rivojlantirish, ta’lim muhitini yaxshilash imkonini ham beradi.

Mazkur maqola pedagogik konfliktlarning yechimiga zamonaviy yondashuvlar, innovatsion boshqaruv texnologiyalari va ularning ta’lim jarayonidagi ahamiyatini tadqiq etishni maqsad qilgan. Ushbu yondashuvlar konfliktlarni konstruktiv hal qilish va ta’lim sifatini oshirish uchun mustahkam asos yaratadi.

Zamonaviy ta’lim jarayonida pedagogik konfliktlar ko‘p uchraydigan muammolardan biri hisoblanadi. Bu jarayon o‘qituvchi va o‘quvchilar, o‘quvchilar o‘rtasida, hatto o‘quv dasturlar bilan bog‘liq nizolar shaklida ham yuzaga keladi. Konfliktlarning samarali boshqarilishi ta’limning sifatini oshirish, o‘quvchilarning motivatsiyasini kuchaytirish va ta’lim muhitini ijobiy tomonga o‘zgartirishga yordam beradi.

Pedagogik konfliktlar ta’lim jarayonida tabiiy hol bo‘lsa-da, ularning to‘g‘ri boshqarilishi muhim ahamiyatga ega. Konfliktlarni samarali hal qilish uchun empatik yondashuv, mediatsiya va zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash ta’lim muhitini yaxshilaydi.

Pedagogik konfliktlar ta’lim jarayonining ajralmas qismi bo‘lib, ular o‘quvchilar va o‘qituvchilar o‘rtasida, shuningdek, o‘quvchilar orasida yuzaga keladigan turli xil ziddiyatlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu konfliktlar, agar to‘g‘ri boshqarilsa, o‘quvchilarning ijtimoiy va hissiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga, o‘qituvchilarning pedagogik yondashuvlarini takomillashtirishga va ta’lim muhitini yaxshilashga yordam berishi mumkin. Biroq, noto‘g‘ri boshqarilgan konfliktlar ta’lim jarayonida muammolarni yuzaga keltirishi, motivatsiyani pasaytirishi va psixologik salomatlikka zarar yetkazishi mumkin.

Pedagogik konfliktlarni boshqarishning samarali texnologiyalari, masalan, mediatsiya, empatik yondashuv, ijtimoiy muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish, innovatsion metodlar va psixologik yordam muhim rol o‘ynaydi. Konfliktlarni oldini olish va yechimini topish jarayonida o‘qituvchilarning va o‘quvchilarning o‘zaro tushunishiga asoslangan yondashuvlar ta’lim jarayonining sifatini oshirishga imkon beradi.

Shu bilan birga, pedagogik konfliktlarning ijobiy hal qilinishi o‘quvchilarning individual rivojlanishiga, o‘qituvchilarning pedagogik malakasining oshishiga va ta’lim muassasasining umumiy samaradorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Kelajakda ta’lim tizimida konfliktlarni boshqarishga qaratilgan amaliy va nazariy ishlarni yanada chuqurlashtirish, shuningdek, yangi texnologiyalarni qo‘llash orqali bu jarayonni yanada samarali qilish zarurdir. Xulosa

Pedagogik konfliktlar ta’lim jarayonining ajralmas qismi bo‘lib, ular o‘quvchilar va o‘qituvchilar o‘rtasida, shuningdek, o‘quvchilar orasida yuzaga keladigan turli xil ziddiyatlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu konfliktlar, agar to‘g‘ri boshqarilsa, o‘quvchilarning ijtimoiy va hissiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga, o‘qituvchilarning pedagogik yondashuvlarini takomillashtirishga va ta’lim muhitini yaxshilashga yordam berishi mumkin. Biroq, noto‘g‘ri boshqarilgan konfliktlar ta’lim jarayonida muammolarni yuzaga keltirishi, motivatsiyani pasaytirishi va psixologik salomatlikka zarar yetkazishi mumkin.

### **Xulosa;**

Pedagogik konfliktlarni boshqarishning samarali texnologiyalari, masalan, mediatsiya, empatik yondashuv, ijtimoiy muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish, innovatsion metodlar va psixologik yordam muhim rol o‘ynaydi. Konfliktlarni oldini olish va yechimini topish jarayonida o‘qituvchilarning va o‘quvchilarning o‘zaro tushunishiga asoslangan yondashuvlar ta’lim jarayonining sifatini oshirishga imkon beradi.

Shu bilan birga, pedagogik konfliktlarning ijobiy hal qilinishi o‘quvchilarning individual rivojlanishiga, o‘qituvchilarning pedagogik malakasining oshishiga va ta’lim muassasasining umumiy samaradorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Kelajakda ta’lim tizimida konfliktlarni boshqarishga qaratilgan amaliy va nazariy ishlarni yanada chuqurlashtirish, shuningdek, yangi texnologiyalarni qo‘llash orqali bu jarayonni yanada samarali qilish zarurdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Kulikov, V. V., & Zakharov, I. A. (2023). Pedagogicheskie konflikty i texnologii uregulirovaniya: teoreticheskie i prakticheskie aspekty. Moscow: Nauka.

2. Jusupov, Sh. Sh. (2021). Pedagogik konfliktlar: sabablari, turlari va ularni hal qilish usullari. Tashkent: Fan va Texnologiya.
3. Golubeva, L. I., & Stoyanova, O. A. (2020). Psixologiya i pedagogika konfliktov: Teoriya i praktika. St. Petersburg: Izd-vo Politekh.
4. Rashidov, M. K. (2019). Pedagogik jarayonlarda konfliktlarni boshqarish texnologiyalari. Tashkent: Innovatsiya.
5. Tamer, M. S. (2018). Innovatsionni pedagogik boshqaruv metodlari. Almaty: Zhazushi.
6. Frolova, T. P. (2017). Pedagogika i konfliktologiya: metody i praktika. Novosibirsk: Sibirskiy Universitet.
7. Latypov, R. T. (2016). Pedagogik konfliktlarni yechishda zamonaviy metodlar. Tashkent: Ta’lim.
8. Andreeva, M. V. (2015). Obucheniye i konflikt: psixologiya i pedagogika. Moscow: Akademiya.
9. Makarova, E. V. (2014). Sotsial'nye konfliktov v obrazovanii i metody ich uregulirovaniya. St. Petersburg: Aster.
10. Kozlov, P. A. (2013). Konfliktologiya v obrazovanii: osnovy teoriya i praktika. Moscow: Vysshaya Shkola.

## BUGUNGI KUN ZAMONAVIY TARJIMA DASTURLARI MODERN TRANSLATION PROGRAMS OF TODAY

**Eshmuminov G‘iyosiddin Allamurod o‘g‘li**

Termiz davlat universiteti 1- bosqich magistranti

[eshmuminovg@gmail.com](mailto:eshmuminovg@gmail.com)

**Annotation:** This article highlights modern translation programs, their distinctive features, and similarities. It also delves into their historical stages, multilingual support, and the conveniences they provide for humanity. Additionally, an effort has been made to explain how the translation process is carried out in modern translation programs.

**Kalit so‘zlar:** zamonaviy tarjima dasturlari, sun‘iy intellekt, neyron tarmoqlar, Google Translate, Yandex Translate, DeepL, kompyuter texnologiyalari, nevrall tarjima

Bugungi globallashuv davrida zamonaviy kompyuter texnologiyalari va sun‘iy intellektlar hayotimizning ajralmas holiga kelib bo‘ldi. Shu jumladan, ta‘lim jarayoniga ham jadallik bilan integratsiya qilinmoqda. Misol uchun xorijiy tillarni o‘rganishda zamonaviy tarjima dasturlariga kundun kun ehtiyoj ortmoqda. Hozirgi davr tarjima dasturlari sun‘iy intellekt texnologiyalari rivojlanishi tufayli sezilarli o‘zgarishlarga uchradi. Jumladan, ular oddiy lug‘atlar emas, balki ma‘no va kontekstni saqlab qolgan holda butun matnlarni tarjima qila oladigan kuchli vositalarga aylandi. Zamonaviy tarjima dasturlari ko‘p tilliligi hamda sun‘iy intellekt va neyron tarmoqlarga asoslangan holda sifatli tarjimalarni taqdim etmoqda. Bugungi kunda eng mashhur tarjima dasturlari Google Transliterate, Yandex Transliterate, Microsoft Transliterate, DeepL, **Reverso Context** va boshqa bir qator tarjima dasturlarini keltirishimiz mumkin.

**Google Translate** – dunyodagi keng foydalanilayotgan va qulay interfeysga ega elektron tarjima dasturlaridan biridir. Google translate dasturi 2006-yilda statistik

mashina tarjimasida xizmati sifatida ishga tushirilgan. U bir qancha imkoniyatlarni taqdim etadi. Xususan, ko‘p tillilikni qo‘llab quvvatlaydi. 2024-yil noyabr holatiga ko‘ra, Google Translate 249 ta til va turli darajadagi til turlarini qo‘llab-quvvatlaydi<sup>14</sup>. Shu bilan birgalikda mobil foydalanuvchilarga 37 tilni fotosurat, 32 tilni ovoz va 27 tilni real vaqtda video orqali tarjima qilish imkonini beradi. Bu esa ushbu dastur foydalanuvchilariga keng miqyosda bir qancha tillar orasida tarjima qilish imkonini bermoqda. Xususan, kichik tillar orasida ham tarjima jarayonini amalga oshiradi. Kunlik tarjima qilinadigan so‘zlar soni esa 100 000 000 000 dan oshmoqda. Google translatening bugungi kunda web sayt dasturi hamda Android va iOS uchun mobil ilovalari mavjud.

**Google Translate ovozli tarjima funksiyasida** matnni ovoz bilan tarjima qilish imkoniyatiga ega. Bunda foydalanuvchi matnni ovoz orqali aytadi, Google Translate esa matnga o‘girib, boshqa tillarga tarjima qilib beradi. Ushbu afzalligi bilan sayohatchilar, xorijiy til o‘rganuvchilari, ayniqsa, xalqaro suhbatlar uchun juda foydali hisoblanadi. Yoki tarjima matnni og‘zaki talaffuz qilib berish imkoniyatiga ham ega.

**Kameradan tarjima qilish** funksiyasi Google Translate ilovasida smartfon hamda planshet kameralari orqali real vaqt rejimida tarjima qilish funksiyasi mavjud. Bunda foydalanuvchi kamerani matnga yo‘naltirsa, Google Translate ilovasi avtomatik tarzda matnni aniqlaydi va tanlangan tilda tarjima natijasini taqdim etadi. Bu imkoniyati bilan yo‘llardagi manzil nomlarini, yo‘l ko‘rsatkichlarini, menyularni, chet tillardagi yozuvlarni tushunishni juda ham osonlashtiradi.

**Offline tarjima xususiyati:** Google Translatening yana bir qulay xususiyatlaridan biri oflayn tarjima rejimidir. Dastur foydalanuvchisi kerakli til paketlarini ilovaga oldindan yuklab olib, internet tarmog‘iga ulanmagan taqdirda ham tarjima qilish imkoniga ega bo‘ladi. Bu, ayniqsa, tog‘li joylarda yoki internet imkoniyatlari cheklangan yerlarda juda foydalidir.

**Tarjima tarixini saqlash hamda qabul qilingan tarjimalarni qayta ko‘rib chiqish** imkoniyati foydalanuvchiga o‘zining tarjimalar tarixini ko‘rib chiqishi va

<sup>14</sup> [https://en.wikipedia.org/wiki/Google\\_Translate](https://en.wikipedia.org/wiki/Google_Translate)

kerak bo‘lganda ulardan qayta foydalanish imkoniyati mavjud. Bu xususiyat bilan foydalanuvchiga tez-tez ishlatadigan so‘zlar, maqol, hikmatli so‘z va iboralarni tezda topish imkonini beradi.

**Misollar va kontekstual tarjima** imkoniyati Google Translateda ba’zi so‘z va iboralar kontekstual tarzda tarjima qilinadi. Bu esa ayniqsa bir necha ma’noli so‘zlar va turli mantiqiy konstruktsiyalarda qo‘llanadigan iboralar uchun aniqroq tarjima qilish imkoniyatini taqdim etadi.

**Yandex Translator** – Yandex kompaniyasi tomonidan 2011- yilda ishlab chiqilgan ko‘p tilli elektron tarjima xizmati bo‘lib, hozirgi kunda ilg‘or algoritmlar va sun‘iy intellektga asoslanadi. 2024-yil noyabr holatiga ko‘ra, tarjima 98 ta til uchun mavjud<sup>15</sup>. Foydalanuvchilarga yuqori sifatli avtomatik tarjima xizmatlarini taqdim etadi. Uning ilmiy jihatdan samarali hamda foydalanishga qulayligi quyidagi asosiy xususiyatlari orqali o‘z aksini topadi:

**Nevral tarjima tizimi (NMT – Neural Machine Translation):**

Yandex Translate yuqori aniqlikda ishlashi uchun neyron tarmoqlar asosida ishlaydigan nevrall tarjima tizimidan foydalanadi. Bu tizim matndagi har bir so‘zning kontekstini aniqlab, jumlaning butun mazmunini tushunishga va tabiiyroq tarjima qilishga yordam beradi. Neyron tarjima texnologiyasi tarjimalarining o‘ziga xos mantiqiy izchilligini saqlaydi, bunda so‘zlarning ma’nosi kontekstga qarab moslashadi. Bu, ayniqsa, ilmiy matnlar va aniq ma’lumotlar talab qilinadigan texnik hujjatlar uchun juda ahamiyatlidir.

**Ko‘p tilli tarjima imkoniyatlari:** Yandex Translate 90 dan ortiq tillarni qo‘llab-quvvatlaydi, shuningdek, u keng tarqalgan tillar hamda kamyob tillar orasida ham tarjima imkoniyatini taqdim etadi. Bu ko‘p tilli yondashuv Yandex.Translate xizmatini xalqaro foydalanuvchilar uchun qulay qiladi.

**Ovozli va real vaqt tarjima:** Ilova og‘zaki matnlarni tahlil qilish, tushunish funksiyasiga ham ega. Bu esa chet tilini o‘rganayotgan xorijiy til ixlosmandlari uchun to‘g‘ri talaffuzni o‘rganishlari yoki eshitish orqali tarjimani yaxshiroq tushunish

<sup>15</sup>[https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%AF%D0%BD%D0%B4%D0%B5%D0%BA%D1%81\\_%D0%9F%D0%B5%D1%80%D0%B5%D0%B2%D0%BE%D0%B4%D1%87%D0%B8%D0%BA](https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%AF%D0%BD%D0%B4%D0%B5%D0%BA%D1%81_%D0%9F%D0%B5%D1%80%D0%B5%D0%B2%D0%BE%D0%B4%D1%87%D0%B8%D0%BA)

imkoniyatini yaratadi. Yandex Translate foydalanuvchilarga matnni kiritish o‘rniga ovozli buyruq berish imkoniyatini ham taqdim etadi. Bu esa ovozli suhbatni real vaqtda tarjima qilish imkonini beradi, ayniqsa til o‘rganuvchilar va xalqaro uchrashuvlar uchun foydali.

**Matnni kameradan real vaqt rejimida tarjima qilish:** Yandex Translate kameradan tarjima qilish funksiyasiga ega bo‘lib, foydalanuvchi kamerani chet tilidagi yozuvga yo‘naltirsa, ilova uni avtomatik ravishda tarjima qiladi. Bu xususiyat ilmiy asarlar, kitoblar yoki xorijiy tillarda yozilgan matnlar va grafikalar bilan ishlaganda ham juda foydali hisoblanadi.

**Oflayn tarjima:** Ilova foydalanuvchilarga internetga ulanmagan holda tarjima qilish imkoniyatini beradi, buning uchun kerakli tillarni oldindan yuklab olishni talab etadi. Bu oflayn tarjima rejimi ayniqsa tadqiqotchilar va ilmiy ish bilan shug‘ullanuvchilar uchun qulaylik yaratadi.

**Sinonimlar va kontekstual moslashuv:** Yandex Translate sinonimlar va kontekstual tarjimani aniqlash imkoniyatiga ega. Ayniqsa, ilmiy atamalar va so‘zlarning ko‘p ma‘noli bo‘lgan hollarida, ilova eng mos ma‘noni tanlab beradi. Bu jarayon ilova tomonidan katta hajmdagi parallel korpuslardan o‘rganilgan bilimlar asosida amalga oshiriladi. Har bir so‘z yoki ibora uchun turli kontekstlarda ishlatiladigan variantlar taklif qilinadi, bu ilmiy va texnik tarjimalarning aniq va to‘g‘ri bo‘lishiga yordam beradi.

**Mashina o‘qitish va foydalanuvchi xabarlarini asosida yaxshilanish:** Yandex Translate foydalanuvchilarning xatolarni aniqlash va ularni takomillashtirishga imkon beruvchi mashina o‘qitish texnologiyalaridan foydalanadi. Bu xizmat tarjima sifatini muntazam yaxshilash va foydalanuvchilar uchun eng yaxshi natijalarni taqdim etish imkonini beradi. Har bir foydalanuvchi ma‘lumotlari asosida tizim boyitilib, maxsus ilmiy yoki texnik atamalar bilan ishlashda Yandex Translate doimiy ravishda yaxshilanib boriladi.

**Doimiy Rivojlanish va Foydalanuvchi Ma‘lumotlariga Asoslangan Takomillashtirish:** Yandex Translate xizmatida foydalanuvchilar tomonidan kiritilgan matnlar va ularning tanlangan tarjimalaridan o‘rganish jarayoni amalga

oshiriladi. Bu esa tizimga o‘zini o‘zi yaxshilash imkonini beradi va foydalanuvchi uchun qilingan har bir tarjima kelajakda yanada to‘g‘ri va aniqroq natija bera olishiga yordam beradi.

**DeepL tarjima dasturi** — bu sun‘iy intellektga asoslangan tarjima vositasi bo‘lib, matnlarni bir tildan boshqa tilga yuqori aniqlikda tarjima qilish imkonini beradi. **DeepL** 2017-yil avgust oyida ishga tushirilgan va Kyolnda joylashgan DeepL SE kompaniyasiga tegishli bo‘lgan neyron mashina tarjimasi xizmati<sup>16</sup>. DeepL, o‘zining tabiiy va yuqori sifatli tarjimalari bilan tanilgan bo‘lib, raqobatchilar, jumladan, Google Translate, Microsoft Translator hamda Yandex.Translate kabi xizmatlarga kuchli raqobat qilmoqda. Hozirda DeepL ingliz, nemis, fransuz, ispan, italyan, xitoy, yapon, koreys kabi 31 ta til, 700 dan ortiq til juftliklarini tarjima qilish imkonini beradi. 5000 belgigacha bo‘lgan matnlar bepul tarjima qilinadi. DeepL tarjima xizmatining muvaffaqiyati neyron tarmoqlarining ilg‘or modellariga asoslanganidadir. U **Transformer arxitekturasiga** tayangan holda ishlaydi. Transformer modeli tillar o‘rtasidagi semantik va sintaktik bog‘liqlikni chuqur o‘rganadi, bu esa tarjimalarni aniqroq va kontekstga mos qiladi. DeepL’ning neyron tarmoqlari katta hajmdagi ko‘p tilli korpuslar bilan boyitilgan. DeepL, Google tomonidan taqdim etilgan Transformer arxitekturasini yangilash orqali o‘z texnologiyasini rivojlantirgan. Bu arxitektura kontekstni yanada yaxshi tushunish imkonini beradi.

Neyron tarmoqlari ko‘p bosqichli ishlov berish orqali turli xil sintaktik strukturalarni optimallashtiradi. Tarjima jarayonida faqat so‘zlarning lug‘aviy ma’nosi emas, balki butun jumla konteksti tahlil qilinadi. Matnning madaniy va stilistik jihatlarini hisobga olishga harakat qilinadi.

DeepL matnni emas, balki to‘liq Microsoft Word (.docx) va PowerPoint (.pptx) kabi hujjatlarini formati va dizaynini saqlab qolgan holda tarjima qilishni qo‘llab-quvvatlaydi.

**DeepLdan** ilmiy maqolalar, dars materiallari va boshqa ko‘p tilli resurslarni tarjima qilishda keng foydalaniladi. Tarjima sifati ko‘plab tillar uchun

<sup>16</sup> [https://uz.wikipedia.org/wiki/DeepL\\_Translator](https://uz.wikipedia.org/wiki/DeepL_Translator)

raqobatchilardan yuqori. Oddiy interfeys va oson foydalanish imkoniyati mavjud. DeepL, sun'iy intellekt va chuqur o'rganishga asoslangan ilg'or tarjima tizimi sifatida lingvistika sohasida inqilob yaratmoqda. Uning yuqori aniqligi, foydalanuvchilar uchun qulayligi va ko'p tilli imkoniyatlari uni global miqyosda mashhur xizmatga aylantirdi. Ilmiy va texnologik yondashuvi sababli DeepL tarjima sohasida o'zining yetakchi o'rnini saqlab qolmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. [https://en.wikipedia.org/wiki/Google\\_Translate](https://en.wikipedia.org/wiki/Google_Translate)
2. <https://www.theverge.com/2015/7/29/9061135/google-translate-update-new-languages-word-lens>
3. <https://www.teachyoubackwards.com/qualitative-analysis/#ooga-booga>
4. <https://www.wikiwand.com/en/articles/Yandex.Translate>
5. [https://en.wikipedia.org/wiki/DeepL\\_Translator](https://en.wikipedia.org/wiki/DeepL_Translator)

## TA'LIM MUASSASASIDA ZAMONAVIY RAHBAR FAOLIYATI

**Maxammadiyeva Nasiba Xasanovna**

Qashqadaryo viloyati, Qarshi tuman 42-maktab amaliyotchi psixologi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ta'lim muassasasida zamonaviy rahbar faoliyati haqida ma'lumotlar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Zamonaviy rahbar, rahbarlarning kasbiy kompetentliligi, rahbar shaxs xislatlari, shaxs, mutaxassis.

Zamonaviy rahbar, pedagogning bugungi tez o'zgaruvchan jamiyatda tutgan o'rni, uning salohiyati qanchalik muhim bo'lsa, odamlar bilan muomala madaniyati, fikrini aniq yetkaza olishi va eng asosiysi o'ziga hamfikrlarni yig'ishida pedagog imijining o'rni beqiyos. Mutaxassis imiji uning ishlayotgan muassasasiga qanchaliy ta'sir ko'rsatsa, tashkilotning imiji ham mutaxassisga shunday kuchli ta'sir ko'rsatishi aniq. Har bir mutaxassis o'zining shaxsiy imijiga ega bo'lishi, uning alohida so'zlashish madaniyati, odamlar bilan samimiy munosabati, salohiyatini namoyish eta oladigan siymosiga ega bo'lishi zarur.

Rahbarlarning kasbiy kompetentliligi – bu ta'lim muassasasi faoliyatini tashkil etish, boshqarish va takomillashtirishda innovatsion yondashuvlarga asoslanadigan, kasbiy ahamiyat kasb etuvchi shaxsiy sifatlarga ega bo'lgan, yuqori darajada o'zini-o'zi nazorat qila oladigan, boy falsafiy va ma'naviy dunyoqarashga, psixologik-pedagogik va tashkiliy-texnologik salohiyatga ega bo'lgan, shuningdek, shaxslararo munosabatlarda tarbiyaviy munosabatlarni e'tiborga oladigan hamda vaziyatlarga ko'ra turli xil muammolarni hal etishda mavjud huquqiy-meyoriy mezonlarga asoslanadigan, ta'lim jarayoni subyektlari faoliyatini ilmiy asosda tashkil etish va boshqarish, muvofiqlashtirish, faolligini ta'minlash, ta'lim muassasasi ilmiy-metodik ta'minotini yaxshilash, innovatsion texnologiyalarni amaliyotga joriy etish orqali ta'lim muassasasi faoliyatini takomillashtirish yo'nalishida zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lgan mutaxassis shaxsini tavsiflaydi.

Maktab rahbari, pedagog yoki o‘qituvchi deganda ko‘z oldimizda kimlar namoyon bo‘ladi? Eng avvalo, lavozimidan qat’iy nazar, ularning har biri – shaxsdir.

Shaxsning turli ta’riflari mavjud, lekin bu tushunchani to‘laroq aks ettiradigan quyidagisi o‘rinli: «Shaxs bu - o‘zining bilimi, hissiyoti va munosabatlari orqali tashqi olamni o‘zgartira oluvchi sub’ekt, insondir». E’tibor berilsa, ushbu ta’rifda shaxsga xos uch jihat sanab o‘tiladi: bilish; hissiyot; munosabat. Shu uch guruhga kiruvchi xislatlar yagona maqsadga, ya’ni tashqi olamni insonning o‘z ehtiyojiga binoan o‘zgartirishga qaratilgan.

Rahbar shaxs xislatlari, samarali rahbar qiyofasi, muloqot kommunikatsiyasi, nutqning savodliligi – imidjga ta’sir ko‘rsatuvchi kuchli vositasi.

Rahbar shaxs xislatlari. Rahbar shaxsi tushunchasini tahlil etar ekanmiz, unga xos xususiyatlarni uch guruhga bo‘lib o‘rganish taklif qilinadi:

1. Biografik tavsif
2. Qobiliyat
3. Shaxs xislatlari

Rahbar shaxsining biografik jihatlariga uning yoshi, jinsi, ijtimoiy-iqtisodiy mavqei va ma’lumoti kiradi.

Biografik jihatlar qatoriga shaxsning ijtimoiy-iqtisodiy mavqei va uning ma’lumoti darajasini kiritish mumkin. Boshqaruv faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishda mavqe va ma’lumot ham muhim omil sanaladi. Biznes boshqaruvi sohasidagi olim R.Stogdill muallifligidagi «Boshqaruv qo‘llanmasida» ta’kidlanishicha, muvaffaqiyatli boshqaruv va shaxsning ijtimoiy-iqtisodiy mavqei o‘rtasidagi bog‘liqlik 94% ga teng hamda ma’lumoti o‘rtasidagi bog‘liqlik esa, 88% ga tengdir. Yaponiyalik tadqiqotchi T. Kono ma’lumotiga ko‘ra, oddiy yapon menejeri, albatta, muxandislik mutaxassisligi yoki ijtimoiy fanlar bo‘yicha universitet diplomiga ega bo‘lishi shart. Ko‘p hollarda menejerlar ikki mutaxassislik diplomiga ega bo‘lsa, bir qator yetakchi biznesmenlar va yirik rahbarlarning biografik tahlili ularning yuqori ma’lumotga ega ekanliklaridan dalolat beradi.

Haqiqatan, rahbar oilasida tug‘ilish, ulg‘ayish davomida ota tajribasini o‘zlashtirish dominantlikka, ya’ni ustunlikka moyillikning shakllanishiga asos

bo'lishi mumkin. Biznes boshqaruvi sohasidagi olim F.Fidler ta'rifi bo'yicha «kompaniya prezidenti bo'lishning eng ishonchli omili – kompaniyaga egalik qiladigan oilada tug'ilishdir». Lekin, Li Yakokka kabi buyuk menejerning biografiyasi tamoman yuqoridagi ta'rifni inkor etadi. Binobarin, bu shaxs rahbarlikning past qatlamlaridan, uning eng yuqori cho'qqilariga ko'tarildi.

Bir qator mashhur tadbirkorlar o'tmishini tahlil etish natijasida aniqlandiki, ularning ko'pchiligi oilada to'ng'ich farzand bo'lib o'sishgan. Darhaqiqat, oilada to'ng'ichlik o'z mavqeiga ko'ra ma'lum mas'uliyat ham demakdir. O'zbek oilalaridagi ko'pbolalik sharoiti to'ng'ich farzandga otaonaga madadkor bo'lish, kichiklarga rahnamolik qilish va nazoratni o'z bo'yniga olishini taqozo etadi. Bu esa shakllanayotgan shaxsning tashkilotchilik va nazoratga bo'lgan imkoniyatini yanada oshiradi, kelgusi faoliyatida o'z-o'zini idora eta olish qobiliyatini shakllantiradi.

Hayot tajribasi. Inson tajribasi va uning boshqaruv faoliyatida namoyon bo'lishi ikki asosiy masala orqali tahlil qilinadi. Birinchidan, yuqori bo'g'in rahbari uchun boshqaruv tajribasi zarur, shuningdek, ulardan hayotiy tajribaga ega bo'lish ham talab qilinadi. Ikkinchidan, o'rta bo'g'in rahbarida esa o'z sohasi bo'yicha kamida uch yillik tajriba bo'lishi lozim. Bu toifa rahbar tajribasini tahlil etar ekanmiz, asosiy e'tibor kasb sohasiga qaratiladi.

Qobiliyat. Odatda psixologiya fanida qobiliyatning umumiy va maxsus turlari ko'rsatiladi. Umumiy qobiliyatlar shaxsning har qanday faoliyatga kirishishida muvaffaqiyat uchun imkoniyat yaratsa, maxsus qobiliyat faqat ayrim yo'nalishdagi faoliyat turida muvaffaqiyatga erishish uchun asos bo'ladi. Mana shunday umumiy qobiliyat turkumiga inson aqlini, ya'ni intellektni kiritish mumkin. Rahbar intellekti qanchalik yuqori bo'lishi kerak, degan savol, albatta, bahsdan xoli emas. Ba'zi tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, o'ta yuqori intellekt yuksak rahbarlik malakalarini amalga oshirishga xalaqit berar ekan. SHunday deyishning asoslaridan biri - qaror qabul qilishda haddan tashqari aql ishlatish bu jarayonni yanada cho'zib yuborishi mumkin.

Xulosa qilish shuni aytish mumkinki, har qanday kishlik faoliyatining muvaffaqiyatli natijasida uni tashkil etayotgan shaxs ega bo'lgan ma'naviy-axloqiy,

psixologik va shaxsiy sifatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, faoliyat asosi, mazmuni, hatto yo‘nalishi ham shaxsga xos sifatlar negizida belgilanib, uning natijasi uchun g‘oyaviy asos bo‘lib xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Sh. Qurbonov, E. Seytxalilov Ta’lim sifatini boshqarish. T.: “Turon-iqbol” 2006.- 592-bet.
2. S.T. Turg‘unov, L.A. Maqsudova, M.A. Umaraliyeva, H.M. Tojiboyeva. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish texnologiyalari. T.: “Sano-standart”. 2012 -98 bet.
3. R. X. Djurayev, S.T. Turg‘unov, N. Q. Ahmedova Ta’lim boshqaruvi (nazariya va amaliyot masalalari) T.: 2013. 140 b.
- 4.. R. X. Djurayev, S. T. Turg‘unov. Ta’lim menejmenti. Ta’lim menejmenti T.: “Vorish-nashriyot” 2006, 257-b.
5. Safarova R. Fanlar chuqurlashtirilib o‘qitiladigan sinflarda ta’limni tashkil etish texnologiyasi. T.: Sano-standart. 2012 yil.

## MUROJAAT BIRLIKLARINING LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI

**Ilimjonova Muhlisaxon Baxodirjon qizi**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi

1-kurs magistranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada undalmaning ahamiyati, vazifasi ko‘rsatib berilgan. Misollar orqali murojaat shakllari lingvopragmatik tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** Murojaat shakllari, undalma, baho ottenkasi, konnotativ ma‘no, lingvopragmatik tahlil.

Undalma o‘zining leksik-grammatik tabiati bilan undashdan tashqari, bu vazifada kelgan shaxs, predmetlarni xarakterlaydi ham. Ularning ko‘pchiligi ekspressiv xarakterda bo‘lib, qo‘llanishiga ko‘ra turli xususiyatga egadir. Shunga ko‘ra, badiiy adabiyotda undalmalarga murojaat birliklari deyiladi. Murojaat birliklari kundalik hayotimizda, nutq faoliyatida - nutq jarayonida keng qo‘llaniladigan, o‘zaro aloqa aralashuvga faol xizmat qiladigan, so‘zlovchining tinglovchiga bo‘lgan munosabatini ifodalaydigan, o‘zida turli modal ma‘nolarni tashiydigan o‘tkir, ta’sirchan vositadir. Murojaat birliklaridan nutqda tinglovchi e’tiborini tortish, xitob qilish, undash kabi maqsadlarda foydalaniladi. Bunday birliklarda so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi yaqinlik, hurmat, ishonch, hurmatsizlik, ishonchsizlik kabi kommunikativ munosabatlar ham ifodalangan bo‘ladi. Shunga ko‘ra, doimiylik belgisiga ega bo‘lgan murojaat birliklari nutqda appelyativ (xitob va murojaat orqali muloqotni boshlash), konnotativ (subyektiv munosabat - salbiy va ijobiy munosabatlarni ifodalash), emotiv (hissiy munosabat) funksiyalarni bajaradi.<sup>17</sup>

Undalmalarni baho xarakteristikasi ottenkasini ifodalashiga ko‘ra, ikki katta guruhga ajratish mumkin:

<sup>17</sup> Yo‘ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlil asoslari. Toshkent, 2007

1.Uslubiy neytral undalmalar. Bunday undalmalarda soʻzlovchining baho xarakteristikasi neytral boʻladi. Yuqoridagi kabi ularni appelyativ (xitob va murojaat orqali muloqotni boshlash) vazifa yetakchilik qiladi:

-**Salom oʻrtoq kapitan!** – dedim fuqarochasiga oddiy qilib.

-**Rustamjon! Oʻgʻlim!** Sogʻ-salomatmisan? (Oʻ.Hoshimov)

2. Baho xarakteristikasi ifodalovchi undalmalar emotsional-ekspressiv boʻyoqqa ega boʻlib, faqat nutq adresatini ifodalamay, uni xarakterlaydi, unga munosabat bildiradi. Ularni konnotativ, yaʼni subyektiv munosabat - salbiy va ijobiy munosabatlarni ifodalash uchun qoʻllaymiz.

Bu hol quyidagi omillar bilan bogʻliq:

1)Undalma oʻz leksik maʼnosiga koʻra baho ifodalaydi. Bu ijobiy yoki salbiy boʻlishi mumkin: - Axir, **buvijon**, siz ham birorgina kecha tinchingizni olib uxlangiz boʻlmaydimi, bizning tirikchiligimizning yoʻlini toʻsaverasizmi? - debdi. (Gʻ.Gʻulom)

3) Baho ifodalashda intonatsiyaning ham roli kattadir. Undalmaning turli intonatsiya bilan aytilishi uning turli maʼno ottenkalari ifoda qilishini taʼminlaydi. Bu, ayniqsa, undalma undov soʻzlar bilan kelganda yaqqol seziladi: **Hoy tentakkinalarim**, togʻanoni bevoshlik qilib qiynamanglar. (S.Ahmad)

Baʼzan undov soʻzlarning oʻzi undalma vazifasida keladi. Bu vaqtda soʻzlovchi nutqi qaratilgan shaxs kontekst yoki situatsiyadan bilinib turadi va asosan personaj nutqida qoʻllanadi: **Hoy**, menga toʻgʻrisini ayt, ayollarning lozim kiyishiga ruxsat berilganmi? yoki **Hoy**, esingizni yigʻib, a, oʻtiring. (Sh.Xolmirzayev)

4)Undalmaning baho xarakteristikasini ifoda qilishida egalik hamda -jon, -xon, -cha, -choq affikslaridan foydalaniladi: Menga qara, **bulbulcham**, deydilarki, sen emishsan xushovoz. (Krilov)

-cha affiksli soʻzda salbiy maʼno ham boʻrtib turadi: - Kir-e, **yetimcha!** Zaharingga ellik gramm otib ol! (Sh.Xolmirzayev)

5)Undalmalarning takrorlanib kelishi ham baho xarakteristikasi ottenkasini kuchaytiradi. Bu badiiy uslub uchun xarakterlidir. Takroriy soʻz hoida keladi:

**Domla-domla**, qizishmang, - Sulton u kishiga mute’ ekanini anglatish uchun yelkasini qiyshaytirdi. (Sh. Xolmirzayev)

6)Undalmalar gradatsiya (kuchaytirish) uchun xizmat qiladi. Bunda undalmalar ma’no jihatidan yaqin, ko’chma yoki sinonim so’z bo’ladi: Senga ko’nglimni ochyapman-da, **bolam. Jigarim.**

- Rahmat, **chirog’im**, rahmat, - dedi Aleksandra qat’iyat bilan. (Sh.Xolmirzayev)

7)Undalmalarning gapdagi o’rni (gap boshida, o’rtasida, oxirida) ham bahoni kuchaytirishda muhimdir. Odatda, baho undalmalari gap oxirida kelib, gapdan pauza bilan ajratiladi: -Xudo urib qoldi bizni, **bolam!** Xudoga nima yozuvdik, **o’g’lim!** Otang bechora shuncha yil mehnat qilib, ko’rgan kuni shu bo’ldimi, **Rustamjon?** (O’.Hoshimov)

Ko’rinadiki, undalmalar tinglovchini biror narsaga undash bilan birga, so’zlovchining subyektiv munosabatini ham ifodalaydi, ya’ni “...murojaat birliklari... konnotativ ma’noga egadir”<sup>18</sup>, bunga ekspressivlikni sintaktik yo’l bilan ifodalash deb ham qaraladi.<sup>19</sup>

Badiiy asarlarda qo’llangan undalmalarni semantik va stilistik funktsiyasiga ko’ra uch guruhga bo’lish mumkin:

- a) shaxs;
- b) shaxs bo’lmagan jonli predmet;
- v) jonsiz predmet

Undalma shaxsni ifodalaganda, kishining nomi, familiyasi, taxallusi, qarindoshligi, yoshi, kasbi, unvoni va boshqa xususiyatlarini ko’rsatish mumkin: **Sobir Umarovich**, sizni tabriklayman. (Yashin)

-Qo’ying, **aka**, - dedi Xayriddin yalinib. (O’.Hoshimov)

Ba’zan undalma so’zlovchining o’zi bo’lishi, so’zlovchi o’ziga o’zi murojaat etishi ham mumkin: Chuqur yoz, shirin yoz, shoshilmay soz yoz, Xalq qilmas e’tiroz, **Sobir Abdulla**. (S.Abdulla)

<sup>18</sup> Ahmedova N. O’zbek tilida murojaat birliklarining semantik-konnotativ tadqiqi: Filol.fanlari nomzodi diss. ...avtoref. -T., 2008.

<sup>19</sup> Abdullayev A. O’zbek tilida ekspressivlik ifodalashning sintaktik usuli. -T.: Fan, 1987.

Undalma jonli predmet bo‘lishi mumkin. Bunday undalmalar hayvon, parranda, hasharot nomlari bo‘lib, ko‘proq masal, matal, ertaklar va ba‘zan she‘riyatda qo‘llanadi: Qanday sayraysan, **Xo‘roz**, Savlatdor, jarang ovozi!

Undalma jonsiz predmet bo‘lishi mumkin. Bu holat, asosan, she‘riyatda qo‘llanadi: Seni unutulmas yuragim aslo, **Ey O‘rta Osiyo, O‘rta Osiyo!!!** (V.Ibner)

Xulosa qilib aytganda, undalmada so‘zlovchining tinglovchiga qo‘shimcha munosabati mavjud bo‘ladi, shuningdek, undash bilan bir o‘rinda, ekspressivlik ham ifodalanadi. Undalmalar o‘zida turli modal ma‘nolarni tashiydigan o‘tkir, ta‘sirchan vositadir. Bunday birliklarda so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi yaqinlik, hurmat, ishonch; hurmatsizlik, ishonchsizlik kabi kommunikativ munosabatlar ham ifodalangan bo‘ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abdullayev A. O'zbek tilida ekspressivlik ifodalashning sintaktik usuli.-T.: Fan, 1987.
2. Ahmedova N. O'zbek tilida murojaat birliklarining semantik-konnotativ tadqiqi: Filol.fanlari nomzodi diss....avtoref. -T., 2008.
3. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlil asoslari. Toshkent, 2007.
4. H.Jamolxonov. Hozirgi o‘zbek adabiy tili.-Toshkent:Ta’lim,2015.

## MILLIYLIK VA ADABIYOTNING LIRIK SATHIDA UYG‘UNLASHUV

**Norova Mahbuba Ismatovna**

ToshDO‘TAU O‘FF 2-kurs magistranti

Ilmiy rahbar: F.f.d., Prof, **Uzoq Jo‘raqulov**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada qadriyatlarning milliy va umumbashariy tamoyillari, millat istilohining kelib chiqishi, lirik tur va unda badiiylik va milliylik ifodasi xususida mumtoz adabiyotimiz misolida fikr yuritiladi. Xususan, lirik turning o‘ziga xos xususiyatlari, ijodkor dunyoqarashida milliy qadriyatlarning roli va milliylikning she’riy asarlardagi ifoda usuli atroflicha tahlil etiladi. She’riyatda mazmun va shakl mutanosibliği muammosi haqida mulohazalar bayon etiladi.

**Kalit so‘zlar:** milliyat, shaxs ruhiyati, lirika, lirik qahramon, lirik tur, milliy ruh, badiiylik, poeziyya.

**Abstract.** This article discusses the national and universal principles of values, the origin of the term “nation”, and the expression of nationality and artistry within the lyrical genre, using examples from our classical literature. In particular, the distinctive features of the lyric genre, the role of national values in the worldview of the author, and the methods of expressing nationality in the poetic works are thoroughly analyzed. It presents a scholarly discussion on the problem of achieving proportionality between content and form in poetry.

**Key words:** national identity, individual psyche, lyric, lyric hero, lyric genre, national spirit, artistic expression, poetry.

Adabiyot insoniyatning ichki dunyosini, his-tuyg‘ularini ifodalashning eng muhim vositasi bo‘lib, shu bilan bir qatorda butun bashariyatga daxldor tuyg‘ularning inson ongi va hissiy olamidan sizib chiqqan ifodasidir. Har qanday mahoratli ijodkor o‘zi mansub bo‘lgan millatga xos qadriyatlarni umuminsoniy tarzda talqin etgandagina haqiqiy umrboqiy asar vujudga keladi. Bunda individuallik, milliylik va umuminsoniylik bitta nuqtada tutashadi va umumbashariy asar bunyod bo‘ladi. Shu

ma'noda badiiy ijod mohiyatiga jo bo'lgan milliylik shunchaki xalq madaniyatining ifodasi emas, balki, o'quvchida milliy qadriyatlarga qiziqish uyg'otadigan kuch hamdir. Milliylik xalqning me'rosiy ma'rifati va me'rosiy madaniyati asrlar osha boyib, uzluksiz taraqqiy qilib boruvchi jarayon bo'lib, xalqning madaniy-ma'rifiy o'ziga xosligini anglatuvchi tushunchadir. Avvalo, milliylik so'zi o'zagi hisoblangan millat istilohi haqida fikr yuritsak. Ilk ifodasi qadim yunonlarga borib taqaluvchi millat so'zi o'zbek tiliga arab tili orqali, aniqroq aytganda “Qur'on” madaniyati orqali kirib kelgan bo'lib, dastlab Ollohning amrini bajarganliklarini e'lon qilib, bir e'tiqodga ega bo'lganlarning jamoasiga nisbatan ishlatilgan. Bunda millat dinning ijtimoiy va institutsional o'lchovini belgilaydi. Adabiyotshunos olim Begali Qosimovga ko'ra: “Qur'oni karim” da bu so'z 11 surada, 14 oyatda uchraydi. Jumladan, 2 (Baqara), 12 (Yusuf), 7 (A'rof) suralarining har birida ikki martadan tilga olinadi va ularning yettitasida “Millati Ibrohima” (Masalan, “Va man yag'ra bau an millati Ibrohim”, 2-sura, 130-oyat) shaklida keladi va ma'lum bo'lganidek, din, shariat, mazhab ma'nolarini anglatadi.”(Qosimov, 2011, 101) Olim bu boradagi qarashlarini davom ettirib ulug' mutafakkir Alisher Navoiy ham millat atamasini ayni shu ma'noda qo'llaganini “Tarixi anbiyo va hukamo”, “Tarixi mulki ajam”, “Nasoyimul muhabbat” asarlaridan keltirilgan parchalar orqali isbotlab beradi. Ayrim o'rinlarda esa millat istilohi tasavvufiy mazmunga xizmat qildirilgan holda tavhidni ifodalash uchun ishlatilganini aytib o'tadi. Biroq, millat tushunchasi Alisher Navoiyda bugun biz tushunayotgan etnik birlik tarzida qo'llanilgan o'rinlar ham yo'q emas. Xususan, shoirning ilmiy ishlari va zamondoshlari haqidagi xotiralarida bunga dalil bo'ladigan o'rinlarni ko'rishimiz mumkin. (“Nasoyimul muhabbat” da). Bugungi kunga kelib esa, biz millat deganda lisoniy, irqiy va diniy mushtaraklikka ega bo'lgan muayyan ijtimoiy guruhni tushunamiz. U xalqning madaniy-ma'rifiy o'ziga xosligi bo'lib, uning shakllanishi va yuzaga chiqishi uzoq va ko'z ilg'amas jarayonlarda kechadi. Har bir millat avvalo asriy an'alariga, urf-udum, turish-turmush, ong va ruhiyatiga bog'langani holda umuminsoniylikni ham inkor etmaydi. Uning yutuqlaridan oziqlanadi. Lekin, umumbashariy fikrlarni o'z yuragidan o'tkazgachgina qabul qiladi. Ya'ni uni milliylashtiradi. Umumiy ma'noda millat

istilohini kishilar jamoasining asrlar davomida shakllangan turmush tarzi, din birligi, madaniyat va ma’rifat yakdilligi kabi mutanosibliklarning so’nggi mukammal bosqichi sifatida ko’rsak maqsadga muvofiq bo’ladi. Milliyat esa, ana shu millatning mohiyati, asliyati, ruhiyati ifodasidir.

Ma’lumki, har bir millatning o’z tarixi, shakl qiyofasi, ruhi, fe’l-saj’iyasi, hatto atrof-borliqqa munosabati mavjud. Ana shu munosabat ya’ni milliyatning umrboqiyiligi adabiyotda uyg’unlashadi. Ayni o’rinda adabiyot millatning shuuri uyg’oq vakillarining ijod mahsulidir. Asl ijodkor istasak istamasak asar orqali ko’proq o’z davri qalb manzaralarini, ruhiy holatlarini ochib beradi, ya’ni, ijod mahsuli vositasida o’zi mansub zamonning fojealari, axloqiy-falsafiy qarashlarining obrazli talqinini o’quvchining fikr ko’zgisida aks ettirib beradi. Qolaversa, ijodkor e’tiqodi masalasi ham u yaratgan asarda birlamchi ahamiyat kasb etishini ham alohida ta’kidlab o’tish lozim. Shu o’rinda, olim Muhammadjon Imomnazarovning quyidagi so’zlari orqali fikrimizni to’ldirmoqchimiz : “Shaxs va millat ruhiyati ma’naviyat bilan tutash bo’lgan tushunchalar bo’lib, asosiy farqlaridan biri – ruhiyat murakkab voqelik sifatida o’ziga ham rahmoniy, ham shaytoniy xislatlarni, ham fazilat, ham qusurlarni, ham tabiiy, irsiy, ham atrof-muhit ta’siridagi holatlarini aks ettirsa, ma’naviyat shaxsning, millatning insoniy fazilatlarini, uning qalbidagi ilohiy nur in’ikosini namoyon qiladi.”(Imomnazarov.1998,168)

Umumiy qilib aytganda, insonlar jismonan emas ruhan farqlanadilar va har bir shaxs o’zi mansub bo’lgan millat ruhiyatini aks ettiruvchisidir. Bu borada asosiy yuk adabiy qatlam vakillari zimmasiga qo’yiladi. Zero, millat qalbini kashf qilmay turib adabiyotda yangilik yaratish mumkin emas. Badiiy asardagi milliy ruh- ijodkorning xalq bilan aloqasi, xalq ommasining hayoti, kurashi, g’oyalari, hissiyoti va intilishlari, manfaatlari va maqsadlarining adabiyotdagi poetik ifodasidir. Shu o’rinda, lirik janr qisqa hajmda chuqur ma’noni ifoda etishini hisobga olgan holda adabiyotning bu sathida badiiyat va milliyat uyg’unligi xususida fikr yuritsak. Ma’lumki, she’r insonning hayot, tabiat va jamiyat hodisalari bilan uchrashuvida hosil bo’luvchi tuyg’u va fikrlar to’lqinidir. She’r uchun mavzu va mazmuni obraz va tashbehni ijodkor atrof muhiti, o’zi yashab turgan zamon nafasidan oladi. U

kishilar rad etgan balchiq tuyg‘ularni sayqallab, qayta ishlaydi hamda oltin-au kumushga aylantiradi va shu tariqa insonning tafakkur tarzida o‘ziga bildirmasdan o‘zgarishlar yasaydi. Uni hayot tarzi, umri mazmunini chuqur mushohada qilishga undaydi. Shoir irod etgan lirik tasvirning badiiyligi asosan badiiy tasvir vositalari va adabiy obrazlarning boyligi bilan belgilanadi. Shunga ko‘ra, lirik qahramon nutqidagi go‘zalliklar istiora, tashbeh, majoz, tamsil kabi turfa xil liboslar kiyib, so‘zlar orqasiga yashirinadi. Bu jihat adasakbiyotning ifoda usulini go‘zallashtiruvchi haqiqatni pardalarga o‘rab berish xususiyatida yaqqol ko‘rinadi. Xususan, istiora san’ati haqida so‘z ketganda, ulug‘ alloma Sakkokiy hazratlari uning yolg‘ondan farqli tomoni yolg‘on haqiqatni berkitish uchun aytilsa, istiora haqni aytish uchun ishlatilishi haqida aytadilar. Bu izoh xuddi adabiyotning o‘zi uchun qo‘llanganda ham to‘g‘ri hisoblanadi, nazarimizda. She’rdagi badiiyat mazmun va shakl mutanosibligi mahsuli ekanligini ham inobatga olgan holda, so‘zni inson shuuri ojiz qolar darajada ifoda etish haqiqiy ijodkorga xos xususiyatdir. Ayni shu ruhda yozilgan asar haqiqiy ilohiy ilhom hosilasi sanaladi.

Odatda lirik tur va uning janrlari monologik nutqqa quriladi deb hisoblaymiz. Poeziyaning o‘ziga xosligini ta’minlovchi bu xususiyat mumtoz asarlarimizda bir oz irregulyarlik (qoidadan mustasno) holatiga o‘tadi. Aytaylik, bir jumlada kelgan hukm ma’nosidagi gap tinglovchi tomonidan yo tasdiqlanadi, yoki inkor etiladi. Haq gapdan hayratlangan yoki tushunmagan tinglovchi oldiga shoir birinchi aytilgan darak gapni tasdiqlovchi ikkinchi gapni qo‘yadi. Shu tariqa izchil davom etgan fikrlar ta’kidlangach, uchinchi holatda inkor hukmi beriladi va qarabsizki, asar so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi muloqotga aylanadi. Bunda so‘zlovchi o‘ziga-o‘zi gapirayotgandek taassurot uyg‘onsa ham, fikrlar ketma-ketligini tushungan tinglovchi asardagi ikkinchi odam soyasini anglaydi. Bu holat ayniqsa mumtoz adabiyotimizda ko‘proq seziladi. Fikrlarimiz isbotini Huvaydo hazratlarining quyidagi baytlari misolida ko‘rib chiqsak:

Tariqi ishq aro qo‘ysang qadam jondin guzar aylab,

O‘lumdin ilgari o‘lgil, taningni darkafan qilg‘il. (Huvaydo, 2007, 147)

Sharq mumtoz adabiyoti, falsafasi, islom va tasavvuf ilmi durdonalari bilimdoni Huvaydo hazratlarining yuqoridagi baytlarida keltirilgan “O‘lumdin ilgari o‘lgil” iborasiga e’tibor beramiz. Ma’lumki, jon vujudni tark etmasdan vujud o‘limga yuz tutmaydi. O‘limdan avval o‘lish bu - o‘zlikni xudparastlikni mag‘lub etish, shaytoniy nafsu havo g‘ururini mahv etmoqdir. Bu jumlada umidsizlik, tushkunlik, badbinlik, tarkidunyochilik emas, balki, hayotsevarlik, kelajakka ishonch, umidvorlik tamoili ustuvor. Zero, “tanni darkafan qilmoq” – vujudni dunyo hirsu havaslari chirkidan poklamoqdir. Ayni shunday poklangan vujudda esa, ruh sog‘lomlashadi, qushday yengil parvoz etadi va bu pokiza ruhda yuz ming hayot jilvalanib boshlaydi. Shu o‘rinda Junayd Bag‘dodiyning: “Tasavvuf uldirki, Xudoyi taolo seni o‘zingdan o‘ldirib o‘zi birla tiriltirgay” so‘zlarini eslaymiz, demak, “o‘limdan ilgari o‘lmak” zamirida Olloh bilan tirilmoq hikmati mujassam ekan. So‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasida kechayotgan hodisotlar ummonida kezayotgan muallif har birining hol taqazosini ko‘ribgina qolmasdan, ularni munosib o‘ringa qo‘ya bilishi ham juda muhim. Ko‘z ilg‘amas dialog oxirida go‘zal lafz bilan berilgan yuqoridagi ma’no maqsadi o‘quvchi shuurida yangi olam kashf etib beradi.

Xulosa qilib aytganda, shaxsning oniy, hissiy kechinmalarini ifodalashi va ana shu kechinmalar og‘ushida voqelikni baholashi, oniy kechinma bag‘rida abadiyat va cheksizlikni qamrab olishi bilan alohida ajralib turuvchi lirik asarlar tom ma’noda ijodkor tafakkuridan sizib chiquvchi bir mo‘jizadir. O‘zining qay bir tovlanishlari bilan biror bir voqea, savdo, mojarodan xabar beruvchi mayin ammo yoniq aks-sado aniq lirik kechinmaning bag‘rida yashaydi, uni izohlaydi va unga oydinlik bag‘ishlaydi. Shu tariqa jumlar, baytlar qa’riga singdirilgan ma’no mahzani zamon va makon chegarasidan chiqib umuminsoniy ahamiyat kasb etadi.. Umuman olganda, lirika inson o‘z shaxsini tanigan, o‘zini shaxs sifatida anglagan, ozini olam ichra yana bir olam deb bilgan va tashqi olamga o‘z shaxsi olamining oynalari orqali qaragan sharoitda paydo bo‘ladi. Bu jarayon esa albatta ijodkor mansub bo‘lgan millati, uning e’tiqod chegaralari doirasida ro‘y beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Qosimov B. (2011). Uygʻongan millat maʼrifati. Maʼnaviyat.
2. Imomnazarov M. (1998). Milliy maʼnaviyatimiz nazariyasiga chizgilar. Sharq.
3. Xoʻjanazar Huvaydo. (2007). Devon. Yangi asr avlodi.
4. Haqqulov I. (1990) Abadiyat farzandlari. Yosh gvardiya.
5. Vohidov E. (1987) Shoiru sheʼru shuur. Yosh gvardiya
6. Suvon M. (2020) Soʻzu soʻz. Sharq

## OMMAVIY MADANIYATNING YOSHLAR AXLOQIY TARBIYASIGA SALBIY TA’SIRI VA OQIBATLARI

**Abdurahmonov Muhammad**

O‘zbekiston Finlandiya Pedagogika Instituti 1-kurs magistranti

**Annotatsiya:** Maqolada ommaviy madaniyat hodisasi XX asrda ijtimoiy hayotning barcha sohalariga: iqtisodiyot, siyosat, boshqaruv, san’atga sezilarli ta’sir o‘tkazganligi haqida keltirilib o‘tilgan. Natijada ommaviy madaniyatning an’anaviy madaniyatdan keskin farq qilishi, uning ildizlariga bolta urishi jamiyat axloqiy munosabatlarida tub burilish yasaganligi tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** ommaviy madaniyat, globallashuv, estetika, erkinlik.

Ommaviy madaniyatning gullab yashnagan davri 1941-yil deb hisoblanadi nemis faylasufi Xork Xaymer o‘zining “san’at va ommaviy madaniyat” kitobida “ ommaviy madaniyat” atamasini ilmiy muomalaga kiritgan. Shunday bo‘lsada, Amerika “ommaviy madaniyat”ning vatani hisoblanadi. Bjeniskiy o‘z monografiyasida shunday deydi:“ Agar Rim Marga huquq, Agliyaga parlament faoliyati, Fransiya madaniyati va respublika millatchiligini bergan bo‘lsa, zamonaviy AQSH jahon texnik taraqqiyoti va ommaviy madaniyatni berdi”[1]. Ommaviy madaniyat - barcha ijtimoiy tabaqalar va guruhlar vakillari uchun tushunarli bo‘lgan va jamiyatda, shu jumladan yoshlar orasida keng tarqalgan madaniyat sohasi hisoblanadi. Ommaviy madaniyat o‘zining ijtimoiy va estetik ma'noda qabul qilingan narsaga tayanishi bilan ajralib turadi, uni o'zlashtirish maxsus bilim va ko'nikmalarni talab qilmaydi; Ommaviy madaniyatning muhim xususiyati uning asosiy vazifasi bo'sh vaqtni o'tkazishga qaratilganligi; Ommaviy madaniyatning ilk namunalari tabiatan sinkretik va yaxlitligi bilan muqaddas bo‘lgan madaniyatdan chuqur mazmunga ega bo‘lmagan va faqat dam olish uchun mo‘ljallangan hudud ajratilgan davrda paydo bo‘ladi. Ommaviy madaniyatning rivojlanishi shahar madaniyati bilan bog'liqdir.

Ommaviy madaniyat ijtimoiy hodisa sifatida ispan faylasufi H.Ortega Gassit tahlil qila boshladi. Yigirmanchi asrning birinchi yarmida olomon fenomenini o‘rganib chiqib, u “ ommaviy odamni” ikkita xususiyat bilan harakterlaydi: hayot talablarining to‘siqsiz o‘sishi va uning hayotini osonlashtirgan barcha narsalarga noshukrlik.[2].

Globalashuv sharoitida “ommaviy madaniyat”ning yoshlar ijtimoiy hayotida avj olishi kuzatilmoqda. Ular orasida “cheksiz erkinlik”ka bo‘lgan mayil, oilaviy munosabatlarni qadrsizlanishi, andishaning yo‘qolishi, sadoqat kabi ijobiy fazilatlar keskin o‘rin almashishi holati kuzatilmoqda. Yoshlardagi ilmsizlik, ulardagi dunyoqarashning to‘la shakllanmaganligi “ommaviy madaniyat”ni targ‘ib qiluvchi ayrim kuchlarning o‘ljasiga aylanishiga sababchi bo‘lmoqda. Globalashuv shunday jarayonki undan hech qaysi mamlakat chetda qola olmaydi. Natijada madaniyatni niqob qilib olgan aslida esa madaniyatsizlikning yetuk hosilasi bo‘lgan bu ommaviy madaniyat jamiyatning qaysidir qismiga keskin ta’sir o‘tkazishiga shubha yo‘q. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “ Biz bir narsani hech qachon esimizdan chiqarmasligimiz zarur. Agar “ ommaviy madaniyat” tahdidi faqat chetdan – G‘arbdan kirib keladi, desak qattiq adashamiz. Bu balo afsuski, o‘zimizdan, o‘z oramizdan ham chiqishi mumkin. Men bu gaplarni osmondan olib aytayotganim yo‘q. yurtimizda nashr etilayotgan ayrim gazeta-jurnallar, kitoblarni, suratga olinayotgan ba’zi klip va kinolarni, efirga berilayotgan qo‘shiq va raqslarni kuzatib, sog‘lom fikrlaydigan har qanday odam shunday xulosaga kelishi tabiiy”[3].

Ommaviy madaniyatning ta’siri natijasida yoshlarda kiyinish odobidan tortib, muomala madaniyatiga eng asosiysi fikrlash qobiliyatining oqsayotganligi, g‘arb madaniyatiga bo‘lgan taqlid bugungi kunning eng dolzarb mavzusiga aylanib qolmoqda.

“ Ommaviy madaniyatning” ommalashuviga asrimizning texnologiyalari va ijtimoiy tarmoqlar keng yordam bermoqda. Natijada internet foydalanuvchilarining ko‘pchilik qismi “ ommaviy madaniyat”ning ta’siriga tushib qolmoqda. Ommaviy madaniyat omma uchun yaratilgan, ammo ommaning ijodi emas. Ommaviy madaniyat tufayli yuzaga kelgan mahsulotlar sifatsiz bo‘lib, ularni san’atga

tenglashtirib bo‘lmaydi. An’anaviy madaniyatdan farqli ravishda ommaviy madaniyat uzoq umr ko‘rmaydi.

“ Ommaviy madaniyat” atamasi ko‘pincha jamoatchilik ongida “ ommaviy”, “ommabop”, “xalq”, “hamma joyda tarqalgan, murakkab bo‘lmagan”, “o‘rtacha”, “murakkab bo‘lmagan” kabi so‘zlarga shakldosh hisoblanadi. Madaniyat ikki xil ko‘rinishda bo‘ladi. Birinchisi an’anaviy, ikkinchisi maxsus ishlab chiqarilgan ommaviy. Ommaviy madaniyat birlashish bilan ajralib turadi, iste’molchini intellektual harakatdan cheklab, uni zavq olishga chorlaydi. Amerikalik sotsiolog o‘zining “ Amerikadagi ommaviy madaniyat” asarida ommaviy madaniyat va ilmiy-texnik taraqqiyot o‘rtasidagi yaqin aloqani ta’kidlaydi, u yerda agar bunday madaniyatning ijobiy formulasini olish mumkin bo‘lsa, bu zamonaviy texnologiyalar zarur va mavjudlikning aniq sharti ekanligidan iborat bo‘ladi. Ommaviy madaniyat na milliy xarakter, na siyosiy tizim hal qiluvchi ahamiyatga ega emas”[4].

Insoniyat tomonidan yerlarni kengaytirishga bo‘lgan ehtiyoj, turli xil geografik kashfiyotlar, madaniy hayotni yaxshilashga xizmat qiluvchi ixtirolarni ommaviylashishi natijasida tijorat egalari madaniyatni ham ommalashtirishga urina boshlashdi va buni uddasidan chiqishdi.

## **XULOSA**

Xulosa o‘rnida shuni aytishim mumkinki, ommaviy madaniyat bugungi kunga kelib yoshlarimiz axloqiga o‘z ta’sirini o‘tkazib ularda vaqtini unumli sarflash o‘rniga axloqsiz filmlar, musiqa va zo‘ravonlikka hamda mentalitetimizga yod g‘oyalarni targ‘ib qilinishiga sababchi bo‘lmoqda. Ommaviy madaniyatning soxta qadriyatlari shaxs va jamiyat uchun o‘ta xavfli va halokatli. Buni oldini olish maqsadida o‘z milliy mafkuramizni ishlab chiqishimiz lozim. Hali ongi to‘liq shakllanmagan yoshlarimiz esa o‘zining ulug‘vor milliy qadriyatlarini o‘zlashtirmay g‘arb madaniyatiga qiziqib, ular kabi yashashni istashmoqda. Biz esa buning oldini olish maqsadida o‘quv yurtlarida milliy qadriyatlarimizga bag‘ishlangan uni tarannum etuvchi darsliklar, adabiyotlarni joriy qilishimiz lozim. O‘z tarixini bilmagan, mamlakatimizning qadriyatlarini tushunib yetmagan har qanday yosh avlod begona g‘oyalarga ergashib ketishi tabiiy holdir. Shuning uchun tarixiy

obidalarimizga qilingan sayohatlar ularda vataimizga bo‘lgan muhabbat hissini oshiradi deb o‘ylayman.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Brzezinski Z. Between Two ages.America’s Role in the Technotronic Era.N.Y.,1970.p 355
2. Ортега Гассит Х. Восстание масс.Вопросы философии.1989. С 123
3. Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma’ruzasi
4. Кукаркин А.В.Буржуазная массовая культура: Теории.Идеи.Разновидности.Образцы.Техника.Бизнес.М.Политиздат. 1985.С.58

## TRANSFORMATION OF THE I-NOVEL IN MODERN JAPANESE LITERATURE

**Petrosyan Naira**

Senior Teacher Nordic International University

petrosyannairi1@gmail.com

**Khaliyeva Gulnoz Iskandarovna**

Professor, DSc, Head of World Literary studies Department, Uzbek State World  
Languages University

**Abstract:** I-novel, which is based on confession, was developing from an unformed, vague literary phenomenon and by the middle of the XX century became one the most important, literary genre, and moreover, the main stream in the literary process of Japan. If the "essence" of I-novel works at first was concentrated only on the description of writers' truthful or quasi-truthful life events and situations, which was sharply criticized by Akutagawa Ryunosuke, then by the middle of the century the Japanese I-novel totally changed by Dazai Osamu works and characterized by deep psychologism, detailed author's introspection and self-esteem to the present day.

**Keywords:** I-novel, transformation, confession, self-esteem, reflection, Tayama Katai, Naoya Shiga, Akutagawa Ryunosuke, Dazai Osamu

The I-novel (《私小説》) is a literary genre that originated in Japan at the beginning of the XX century and used to describe a type of confessional literature where the events in the story correspond to events in the author's life. This genre was founded based on the Japanese reception of naturalism during the Meiji period, and later influenced literature in other Asian countries as well. This genre of literature reflects greater individuality and a less constrained method of writing.

The development and emergence of the I-novel genre in Japanese literature have its origins since the Heian period. Famous writers of this period created a huge amount of outstanding works, such as «The Diary of Lady Murasaki» (《紫式部日記

»), «The Tosa Diary» («土佐日記»), «The Mayfly Diary» («蜻蛉日記»), «The Sarashina Diary» («更級日記») and others. The authors wrote, appealing only to their own experience, not mentioning what they did not see or hear themselves: «My thoughts were flowing like in a dream-somewhere far, far away, and I stopped noticing what was happening around me, finishing taking notes of a certain day by this way» [1]. Thus, we can observe the syncretism and transformation of the rudiments of autobiographical works in the Middle Ages, and then the appearance in the early 20s of the twentieth century of the original confessional genre which is called I-novel [2].

The authors who wrote in this genre sought to display their inner life and events from their biography as honestly and realistically as possible, but attributing them to a fictional hero. This genre is characterized by a scrupulous description of the protagonist's inner experiences, the narrative is built around the memories and reflections of the narrator. The earliest works in this genre includes: «The Broken Commandment» («破戒») by Shimazaki Toson, «The Quilt» by Tayama Katai («蒲団») and his trilogy «Life» («生») – «Wife» («生») – «Family Ties» («路»), «A Dark Night's Passing» («路路») by Naoya Shiga, «No longer Human» («人間失格») by Osamu Dazai, «A Fool's Love» («痴人の愛») by Junichiro Tanizaki, «Confessions of a Mask» («假面の告白») by Yukio Mishima, «A Personal Matter» («個人的な体験») by Nobel Prize winner Oe Kenzaburo and many others[3].

Any work of art anyway is somehow I-novel. It reflects the reality passed through the consciousness, its experience, its attitude. Without the presence of the author's personality, a work of fiction is unthinkable. Apparently, the problem is only in the extent, in the breadth of generalizations, in the understanding of the typical [4].

The «I» as the only object of cognition and display, or the «I» as an instrument for cognition and display of objective reality - this is where the boundaries between I-novel and a work in which the protagonist is the author himself. This is exactly how Akutagawa Ryunosuke understood this problem [5]. Thus, we can conclude that

Akutagawa greatly influenced the rethinking of essence of the I-novel to his contemporaries.

Dazai Osamu (1909-1948) is considered to be the most talented I-novel writer of the XX century — a man whose life was full of tragedies. In the last period (1946-1948) of his work, Dazai Osamu was already a well-known and recognized writer, his stories were full of decadence, lack of faith and hopelessness. One of them is «No longer Human». Despite too many controversial opinions and literary criticism about this Dazai Osamu's story, the work has become a huge event and made a crucial difference in the literary world.

Dazai's contemporaries followed his tradition of I-novel in a new way, and thanks to Dazai's transformation of the I-novel it is one the most notable and famous genres in modern Japanese literature to the present day.

#### **References:**

1. Murasaki Shikibu. Dnevnik. [Murasaki Shikibu. Diary]. St. Petersburg, 2000. - p. 96. (in Russian).
2. Rekho K. «Vatakusi Shosetsu» // Kratkaya literaturnaya entsiklopediya. ["Watakushi Shosetsu" // Brief literary Encyclopedia]. - Moscow: 1962-1978. - p. 179. (in Russian).
3. Rekho K. Tayama Katay. Bol'shaya sovetskaya entsiklopediya [Tayama Katai. The Great Soviet Encyclopedia]. Moscow: Soviet Encyclopedia, 1978. - p. 113. (in Russian).
4. Lutskiy Aleksandr Leonidovich. Ekzistentsializm i yaponskaya literatura [Existentialism and Japanese Literature]. Dis. Candidate of Philology. Moscow, 1986. p. 168. (in Russian).
5. Interesnnyye mysli ob «ego-belletristike» [Interesting thoughts about «I-novel»]. Modern Japanese Novel, M., 1974. - pp. 86-110. (in Russian).

## ZAMONAVIY HR TEXNOLOGIYALARNING MOHIYATI VA TA'LIM MUASSASALARIDA QO'LLANISHI

**Qo'ziboyeva Sevara Rustam qizi**

Toshkent shahridagi Puchon Universiteti Talabasi

Ilmiy ish rahbari: **Turayeva Dilafruz Rustamboyevna**

"HR - bu xodimlarga o'z ishlarini eng yaxshi tarzda bajarish uchun kerakli vositalarni taqdim etish, shuningdek, yuqori ish faoliyatini ta'minlash uchun muhim qadriyatlarni yaratishdir."

**Patty McCord** (Netflixning eski CHRO)

**Annotatsiya:** Ushbu ilmiy tadqiqot ishda zamonaviy HR texnologiyalarining mohiyati va ta'lim muassasalarida qo'llanilishi tahlil qilinadi. HR texnologiyalari ta'lim muassasalarda inson resurslarini boshqarish jarayonlarini samarali va optimallashtirilgan tarzda amalga oshirish uchun yaratilgan tizimlardir. Ushbu texnologiyalar, ayniqsa, ta'lim muassasalarida o'qituvchilarni tanlash, malakasini oshirish, ish faoliyatini baholash, motivatsiya va o'quv jarayonini boshqarish kabi sohalarda keng qo'llaniladi. Zamonaviy HR texnologiyalarning ta'lim muassasalarida ta'lim sifatiga ta'sirini tahlil qilish, pedagoglarning professional rivojlanishini qo'llab-quvvatlash va o'quv jarayonida samaradorlikni oshirishga qaratilgan eng samarali HR texnologiyalarni aniqlash va tavsiyalar berish.

**Kalit so'zlar:** Zamonaviy HR texnologiyalari, Ta'lim muassasalari, Kadrlar boshqaruvi, Inson resurslarini boshqarish, Malaka oshirish, O'qituvchilarni tanlash, Ta'lim sifatini boshqarish, Avtomatlashtirish, Innovatsion yondashuv, Ta'lim jarayoni, HR tizimlari.

**Аннотация:** В данном научном исследовании анализируется сущность современных HR-технологий и их применение в образовательных учреждениях. HR-технологии — это системы, созданные для эффективного и оптимизированного управления процессами управления человеческими

ресурсами в образовательных учреждениях. Эти технологии, особенно в образовательных учреждениях, широко используются в таких областях, как подбор преподавателей, повышение квалификации, оценка эффективности работы, мотивация и управление учебным процессом. Анализ влияния современных HR-технологий на качество образования в образовательных учреждениях, поддержка профессионального развития педагогов и определение наиболее эффективных HR-технологий, направленных на повышение эффективности учебного процесса, а также предоставление рекомендаций.

**Ключевые слова:** Современные HR-технологии, Образовательные учреждения, Управление персоналом, Управление человеческими ресурсами, Повышение квалификации, Подбор преподавателей, Управление качеством образования, Автоматизация, Инновационный подход, Учебный процесс, HR-системы.

**Kirish:** Inson resurslarini boshqarish (Human Resources Management - HRM, yoki oddiygina HR) tashkilotning shu yerda ishlaydigan odamlarni yollash, boshqarish va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ichki siyosati yoki ichki kompleks funksiyasi hisoblanib, inson faoliyatiga ta'sir qiluvchi barcha jarayonlar va dasturlar HR ning bir qismidir<sup>20</sup>.

Zamonaviy HR texnologiyalari (Kadrlar boshqaruvi texnologiyalari) inson resurslarini boshqarish tizimlarini avtomatlashtirish va optimallashtirish uchun ishlab chiqilgan ilg'or vosita va tizim bo'lib xizmat qiladi. Bugungi kunda bu texnologiyalar nafaqat yirik kompaniya va korporatsiyalar, balki ta'lim muassasalarida ham muhim rol o'ynamoqda. Ta'lim muassasalari uchun zamonaviy HR texnologiyalari, o'qituvchilarni tanlashdan tortib, pedagog xodimlarni malakasini oshirish, ularni ish faoliyatini shafof baholash, motivatsiya va o'quv jarayonlarini boshqarish jarayonlarni yaxshilashga yordam beradi.

Ta'lim sohasida HR texnologiyalarining qo'llanishi, o'quv jarayonini yanada samarali va interaktiv tarzda boshqarish imkoniyatlarini yaratadi. Masalan,

<sup>20</sup> [Inson resurslarini boshqarish \(HR menejment\) nima?](#)

o‘qituvchilarni tanlashda avtomatlashtirilgan tizimlar, yuksalish uchun malaka oshirish dasturlari va o‘qituvchilarning ish faoliyatini baholashni oddiylashtiruvchi tizimlar ta'lim muassasalarida ishlatilmoqda. HR texnologiyalari yordamida ta'lim muassasalari nafaqat kadrlarni boshqarishni yaxshilash, balki ularning sifatini oshirishga ham erishmoqdalar. Bundan tashqari HR texnologiyalar yordamida nafaqat sifatli kadrlarga balki ta'lim sifatini yaxshilashga erishilmoqda.

Zamonaviy HR texnologiyalarining asosiy afzalliklariga quyidagilar kiradi: vaqt va resurslarni tejash, ish samaradorligini sezirarli darajada oshirish, o‘qituvchilar va boshqa pedagog xodimlar uchun motivatsiya yaratish va ularning kasbiy rivojlanishiga yordam berishdan iboratdir. Shu bilan birga, ularning ta'lim muassasalarida joriy etilishi, global miqyosda ta'lim tizimining modernizatsiyasiga yordam beradi. HR texnologiyalarining ta'lim muassasalarida qo‘llanishi, kadrlar boshqaruvini yanada samarali, shaffof va ilg‘or qilishda katta ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasida kadrlar boshqaruvi va HR texnologiyalarini rivojlantirishga qaratilgan bir qator qonun, farmon va qarorlar qabul qilingan. Bu hujjatlar inson resurslarini boshqarishda zamonaviy texnologiyalarning joriy etilishi, mehnat bozorini raqamlashtirish va boshqaruv tizimlarini yaxshilashni nazarda tutadi. 2021-yilda O‘zbekiston Respublikasining "Inson kapitalini rivojlantirish" strategiyasi qabul qilindi. Ushbu strategiyaning maqsadi inson resurslarini rivojlantirishni va yuqori malakali kadrlarni tayyorlashni nazarda tutadi. Ushbu strategiya ta'lim tizimi, malaka oshirish va ish joylarida innovatsion HR texnologiyalarini joriy etishni maqsad qiladi. Strategiya doirasida xodimlarning malakasini oshirish, yangi ish o‘rinlari yaratish, va kadrlar boshqaruvining zamonaviy metodlarini qo‘llashni rivojlantirishga qaratilgan bir qator tashabbuslar ko‘zda tutilgan. Bundan tashqari 2019-yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xodimlarni malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimini rivojlantirish" Farmoni qabul qilindi. Ushbu farmonga asosan HR texnologiyalarini qo‘llash orqali malaka oshirish tizimi raqamlashtirilib, mutaxassislar uchun online platformalar yaratildi. Ushbu farmon va strategiyalar qabul qilishdan maqsad inson resurslaridan unumli foydalanish hamda ta'lim sifatini rivojlantirishdan iborat. HR (Human Resources) yoki "Inson resurslari" — bu

tashkilot ichidagi xodimlar bilan ishlash, ularning malakasini oshirish, ish faoliyatini optimallashtirish va muvaffaqiyatli ishlash uchun zarur vositalarni taqdim etish, shuningdek, yuqori ish faoliyatini ta'minlash uchun muhim qadriyatlarni yaratish jarayonidir.

HR (Human Resources) yoki "Inson resurslari" — bu tashkilot ichidagi xodimlar bilan ishlash, ularning malakasini oshirish, ish faoliyatini optimallashtirish va muvaffaqiyatli ishlash uchun zarur vositalarni taqdim etish, shuningdek, yuqori ish faoliyatini ta'minlash uchun muhim qadriyatlarni yaratish jarayonidir. Agarda zamonaviy HR texnologiyalari ta'lim tashkilotlarida qo'llanilsa, bu ta'lim sifatini oshirishda o'zining ijobiy ta'sirini sezilarli darajada ko'rsatadi. HR texnologiyalari yordamida o'qituvchilarning motevatsiyasini oshirish, ularni malakasini baholash, o'qituvchilarni rivojlanishi uchun rejaları tuzish va o'quvchilarga samarali o'quv jarayonini ta'minlash imkoniyatlari yaratiladi, bu esa ta'lim tizimining sifatini oshiradi.

"Ta'lim sifatiga zamonaviy HR texnologiyalarning ta'siri" mavzusi tadqiqot uchun juda dolzarb. Mazkur sohaning rivoji, zamonaviy HR texnologiyalar ta'lim sohasida innovasion usullarni qo'llash imkonini beradi, bu esa ta'lim muassasalarida samarali boshqaruv va pedagoglarning ish jarayonini yaxshilashga xizmat qiladi.

O'ylashimizcha, kadrlarning rivojlanishi va motivatsiyasini oshirib, HR texnologiyalar pedagoglarning professional rivojlanishini qo'llab-quvvatlab, ularni zamonaviy ko'nikmalar bilan ta'minlash imkonini beradi. Bu orqali pedagoglar faoliyatidagi motivasiya va samaradorlik ortishi ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

O'quv jarayonidagi o'zgarishlar kuzatiladi. Texnologiyalar ta'lim jarayonini axborotlashtirish, distansion o'qitish va o'quvchilarni baholashda avtomatlashtirish kabi yangi yondashuvlarni joriy qilish orqali uning samaradorligini oshiradi. Qaror qabul qilish jarayonini yaxshilanadi. HR texnologiyalar pedagoglar faoliyati va ularning o'quv jarayonidagi ishtirokini tahlil qilish uchun ma'lumotlar bazasini shakllantirish imkonini beradi, bu esa to'g'ri qarorlar qabul qilishga yordam beradi.

**Foydalangan adabiyotlar ro‘yhati:**

- 1· O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti: [www.president.uz](http://www.president.uz)
- 2· O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining rasmiy veb-sayti: [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
- 3· Mehnat vazirligi: [www.mehnat.uz](http://www.mehnat.uz)
- 4· Xalq ta’limi vazirligi: [www.edu.uz](http://www.edu.uz)

## O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDAGI PRAGMALINGVISTIK TADQIQOTLAR

**Qurbonaliyeva Sabohat Ulug‘bek qizi**

Termiz davlat pedagogika instituti talabasi

[sabohatqurbonaliyeva28@gmail.com](mailto:sabohatqurbonaliyeva28@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada jahon va o‘zbek tilshunosligida pragmalingvistika fanining yuzaga kelishi, uning o‘zbek tilshunosligida shakllanishi va taraqqiyoti masalalari hususida fikrlar bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** pragmatika, nutqiy muloqot, nutqiy akt, semiotika, adresant, adresat.

Pragmatika (yunoncha “pragma” – ish- harakat) aslida falsafiy tushuncha bo‘lib, u qadimgi yunon faylasuflari davrlaridan qo‘llanishda bo‘lgan. Keyinchalik ushbu termini J.Lokk, E.Kant kabi faylasuflar Arestoteldan o‘zlashtirish orqali keng iste‘molga kiritishdi. Shu tariqa falsafada pragmatizm oqimi yuzaga keldi. Bu oqimning asosiy taraqqiyot davri va uning targ‘iboti XX asrning 20-30- yillarida sezila boshladi va u keyinchalik tilshunoslikka ham singishiga sabab bo‘ldi. O‘sha davrda Ch.Morris pragmatik nazariyasini semiotikaning bir bo‘lagi sifatida semantika va sintaktika kabi bo‘limlar bilan teng huquqda ajratadi. Falsafiy pragmatizm oqimining lingvistikada o‘z aksini topishida amerikalik olim Ch.Prisning hissasi katta. Ushbu falsafiy tizimning asosiy g‘oyasi semiotik belgining ma‘no-mazmuni berilgan belgi vositasida bajarilayotgan harakatning samarasi, natijalari, muvaffaqiyati bilan bog‘liq holda o‘rganishga qaratiladi.

Jahon tilshunosligida pragmalingvistikaning keng miqyosda o‘rganila boshlashi XX asrning 60-80- yillariga borib taqaladi. Mazkur davrda J. Ostin, J. Serl kabi tilshunoslar nutqiy akt nazariyasi haqidagi fikrlar ilgari surila boshlandi. Ma‘lumki, nutqiy muloqotning eng kichik amaliy ko‘rinishi nutqiy akt sanaladi va nutqiy aktlar o‘z navbatida nutq muomalasi qoidalari va tartibiga bo‘ysunadigan maqsadli nutqiy harakat sifatida tushuniladi. Nutq aktlarining umumiy jamlanmasi nutqiy faoliyatni

tashkil etadi. Mazkur nazariyaning asosiy tadqiqot obyektiga so‘zlovchi – adresant, tinglovchi – adresat va ularning o‘zaro munosabati, muloqot vaziyati bilan aloqador qator masalalar kiradi.

Ch.Pris semiotika doirasida - sintaktika, semantika va pragmatika kabi uch ilmiy sohani mustaqil yo‘nalishlar sifatida ajratadi. Uning ta’rificha, sintaktika - belgilarning o‘zaro sintaktik munosabatlarini ularning obyekt yoki interpretator-tavsiflovchiga bo‘lgan munosabatlaridan ajratgan holda o‘rganishdir, semantika esa – belgilarning o‘z designatlari, ya’ni ular vositasida ifodalanayotgan obyektga bo‘lgan munosabatini tahlil qiladi va nihoyat, pragmatika – belgining undan foydalanuvchi-interpretatorga nisbatan munosabatini yorituvchi fandır.[1]

Pragmatik tilshunoslik sohasining keng taraqqiy etishi va rivojlanishida Amerika va Yevropa tilshunosligida Ch.Morris, V.Evans, R.Bach, G.Antons, T.A.van Deyk, W.Dressler, H.P.Grice, Z.Harris, G.N.Leech, W.North, J.R.Searle, J.Ostin, D.Walton, G.Yule, G.Lakoff, Ch.Piers, R.Horn, G.Ward, S.C.Levinson, B.Birner, A.Kehler, H.H.Clark, A.E.Goldberg, E.C.Traughott, G.Fauconnier, J.Cutting, R.Jackendoff, Smith Carlota, G.Lyons, A.Wierzbiska va boshqalar, rus tilshunosligida esa Y.Stepanov, T.Buligina, N.Artyunova, V.Demyankov, V.Grigoryeva, T.V.Anisimova, S.A.Aristov, V.V.Bogdanov, G.V.Kolshanskiy, M.L.Makarov, G.G.Pochepsov, G.G.Slishkin, A.A.Susov, I.P.Susov, S.A.Suxix, V.YE.Chernyavskaya kabilar katta hissa qo‘shib kelmoqdalar. Tilshunoslikning mazkur sohasini O‘zbekistonda taraqqiy etishi va rivojlanishida olimlarimizdan Sh.Safarov, S.Rahimov, D.Ashurova, N.Mahmudov, A.Mamajonov, A.No‘rmonov, B.Yo‘ldoshev, H.Nematov, A.Bushuy, M.Hakimov, S.Mo‘minov, A.Mamatov, J.Yoqubov, S.Boymirzayeva, L.Raupova, M.Ernazarova va boshqa tilshunoslarning xizmati beqiyos. Pragmalingvistikaning semiotika sohasiga kirib borishi o‘tgan asrning 80-90-yillarida sodir bo‘ldi. O‘sha yillar davomida Amerika va rus tilshunosliklarida keng miqyosdagi tadqiqiy ishlar amalga oshirila boshlandi. Xususan, N.Mahmudov, A.Nurmonov, D.Ashurova, S.Rahimov kabi olimlar o‘zlarining qator ilmiy maqolalari orqali pragmalingvistikaning nutqiy ifodasiga oid sathlarni o‘zbek tilshunosligiga olib kirdilar. Sh.Safarov va S. Rahimovlarning

doktorlik dissertatsiyalarining himoya qilinishi o‘zbek tilshunosligida pragmalingsvistikaning taraqqiy etishiga zamin yaratdi. Yana bir pragmalingsvistika bo‘yicha qilingan tadqiqot – D.U. Ashurovaning doktorlik dissertatsiyasida so‘z yasalishi sathida til birliklarining stilistik hamda pragmatik tahlili o‘rin olgan edi. 90-yillarning boshlarida o‘zbek tilshunos olimlari tomonidan bir qator ilmiy maqolalar ham chop etildi. Sh.Safarovning “Pragmalingsvistika” monografiyasida pragmalingsvistikaga oid etnopragmatika, sotsiopragmatika, qiyosiy pragmatika, nutqiy akt, nutqiy muloqotda deysis tarkibiga oid tushunchalar tahlili keltirildi.[1] M. Hakimovning “O‘zbek ilmiy matnining sintagmatik va pragmatik xususiyatlari” nomli nomzodlik dissertatsiyasi o‘zbek tiliga oid pragmalingsvistika sohasiga tegishli dastlabki tadqiqotlar qatoriga kiradi. Mazkur ish o‘zbek tilidagi ilmiy matnlarni mazmunan va shaklan ifodalanishida pragmatik omillarni yoritishga qaratilgan ish hisoblanadi. Mazkur tilshunos olimning pragmalingsvistika bo‘yicha bir qator darslik va monografiyalari ham mavjud.[2] Til birliklarining pragmatik funksiyalari jonli muloqot jarayonida nutqiy vaziyat va nutqiy xulq turlari ta’sirida to‘liq namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan nutqiy muloqot, uning turlari va bosqichlari, muloqot xulqi kabi masalalar ham pragmalingsvistikaning muhim masalalaridan biri hisoblanadi. Tilshunos olim S.Mo‘minovning tadqiqotlari mazkur masalalarga bag‘ishlangan tadqiqot hisoblanadi.[3] Bolalar muloqotida nutqiy akt turlarining voqelanishi masalalari M.Qurbonova tomonidan tadqiq etilgan bo‘lib, unda bolalar nutqiga xos pragmatik xususiyatlar tahlil qilingan.[4] Z.Burhonov, A.Pardayev, M.Ernazarova kabi olimlarimizning izlanishlari bevosita badiiy matn pragmatikasiga oid bo‘lib, ushbu tadqiqotlarda badiiy matn pragmalingsvistikasi nazariyasi uchun asos bo‘ladigan fikrlar ilgari surilgan.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, bugungi tilshunosligimizda pragmalingsvistika sohasining barcha sohalari, yo‘nalishlari o‘zbek tilshunoslari tomonidan keng o‘rganilmoqda va tadqiq etilmoqda. Bu esa o‘zbek tilshunosligining jahon tilshunosligi bilan hamnafas ekanligidan dalolat beradi.

**Adabiyotlar ro‘uxati (использованная литература / references):**

1. Safarov S. Pragmalingvistika. – O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Toshkent, 2000. – 300 b.
2. Hakimov. M. O‘zbek pragmalingvistikasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2013. – 176 b.
3. Mo`minov S. O`zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari. Farg`ona. 2021. 52-60-b.

## **DARSLARDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH USULLARI VA DIDAKTIK YONDASHUVLAR**

**N.Qurbonboyeva**

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Ta’limda axborot  
texnologiyalari yo‘nalishi 1-kurs magistranti

**Annotasiya:** Ushbu maqolada informatika darslarini tashkil qilishda zamonaviy metodlar, didaktik o‘yinlardan va raqamli axborot texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha ko‘rsatmalar, ulaning dars sifati va o‘quvchilar o‘zlashtirishiga ko‘rsatadigan ta’siri haqida ma’lumotlar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** raqamli texnologiya, interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, ta’lim sifati, multimedia, internet.

## **METHODS OF USING INFORMATION TECHNOLOGIES IN LESSONS AND DIDACTIC APPROACHES**

**N. Qurbonboyeva**

Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyoz, 1st year master's student,  
majoring in information technologies in education

**Annotation:** This article provides information on modern methods for organizing computer classes, instructions for using didactic games and digital information technologies, and their impact on the quality of lessons and students' learning.

**Key words:** digital technology, interactive methods, innovative technologies, quality of education, multimedia, Internet.

Raqamli texnologiyalar rivojlanayotgan asrda axborotlar ustida amallar bajarish va ulardan samarali foydalanish imkoniyati yana ortmoqda desak mubolag‘a

bo‘lmaydi. Shuningdek, informatika darslarini samarali tashkil qilish, o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishlarini orttirishda zamonaviy texnologiyalar, sun‘iy intellekt va albatta interaktiv metodlardan foydalanish, darslarni tashkil qilishda o‘quvchilarning yoshiga mos o‘yinli metodlardan foydalanish ayni maqsadga muvofiq bo‘ladi nazarimda. Quyida informatika darslarini tashkil qilishda foydalanish uchun bir nechta interaktiv metodlar va usullarni ko‘rib chiqishimiz mumkin.

### **Darslarni tashkil qilishda zamonaviy metodlar**

**Flipped Classroom (Teskari sinf):** Bu metodda o‘quvchilar darsga tayyorgarlikni uyda mustaqil o‘qish yoki video darslar orqali bajaradi, dars davomida esa amaliyot va muhokamalarga ko‘proq e‘tibor qaratiladi. Bu metod o‘quvchilarning darsga faol ishtirokini oshiradi va mavzuni yanada chuqur o‘zlashtirishga yordam beradi.

**PBL (Problem-Based Learning - muammoga asoslangan o‘qitish):** Informatika darslarida muammolarni hal qilish usullarini ishlab chiqish orqali o‘quvchilar analitik va algoritmik fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

**Gamifikatsiya:** O‘yin elementlarini dars jarayoniga kiritish orqali o‘quvchilarni qiziqtirish. Informatika darslarida turli o‘yin uslubidagi masalalar va testlarni yechish o‘quvchilarni rag‘batlantiradi.

### **Didaktik o‘yinlardan foydalanish**

**O‘quvchilarni motivatsiyalash:** Didaktik o‘yinlar orqali o‘quvchilar dars jarayoniga yanada qiziqish bilan qatnashadi. O‘yin jarayonida ular o‘z bilim va ko‘nikmalarini sinab ko‘radi va yutuqlarini baholaydi.

**Kichik guruh o‘yinlari:** Guruh bo‘lib ishlash orqali o‘quvchilar bir-biriga yordam berish, muloqot qilish va birgalikda masalalarni hal qilish imkoniyatini qo‘lga kiritadilar. Bu ularning ijtimoiy ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi.

**Krossvordlar, rebuslar, va kompyuter o‘yinlari:** Informatika darslarida qiziqarli rebuslar yoki krossvordlar orqali mavzularni mustahkamlash, hamda dasturlash va algoritmlar asosida yaratilgan o‘yinlardan foydalanish bilimni mustahkamlashga yordam beradi.

### **Raqamli axborot texnologiyalaridan foydalanish**

Interaktiv doskalar va vizual dasturlar: Interaktiv doskalar, masalan, SMART Board, orqali darsni interaktiv va jonli o‘tkazish o‘quvchilarning e’tiborini jalb qiladi va o‘zlashtirishni yaxshilaydi.

Simulyatsiyalar va virtual laboratoriyalar: Informatikadagi nazariy tushunchalarni amalda ko‘rish uchun virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalar yordamida o‘quvchilarga mavzuni jonli misollar orqali tushuntirish mumkin. Bu ularning mavzuga qiziqishini oshiradi va aniq tushunishga yordam beradi.

Onlayn o‘quv platformalari va resurslardan foydalanish: Moodle, Google Classroom yoki Microsoft Teams kabi platformalar orqali uy vazifalari va dars materiallarini taqdim etish dars jarayonini yanada qulay qiladi va o‘quvchilarga individual yondashish imkonini beradi.

Multimedia vositalari: Dars davomida video, audio, animatsiyalar, infografika va boshqa vizual materiallardan foydalanish o‘quvchilarga axborotni osonroq tushunish va qabul qilishga yordam beradi.

**Bu metod va texnologiyalarning dars sifati va o‘quvchilar o‘zlashtirishiga ta’siri**

Eng yaxshi o‘zlashtirish darajasi: Zamonaviy metod va raqamli texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilarning bilimlarni yaxshiroq o‘zlashtirishiga yordam beradi. Chunki vizual va interaktiv o‘quv materiallari o‘quvchilarda mavzuga bo‘lgan qiziqishni oshiradi va mustahkam bilimni shakllantiradi.

O‘quv jarayonida faol qatnashish: Bu metodlar va texnologiyalar o‘quvchilarni dars davomida faol ishtirok etishga undaydi. Bu esa o‘z navbatida o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini samarali shakllantirishga xizmat qiladi.

Mustaqil va mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish: Dars jarayoniga masalalarni mustaqil yechish, muammolarni hal qilish va yaratish kabi elementlar kiritilganda, o‘quvchilar mustaqil va mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Ijtimoiy va kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish: Guruhda ishlash, interaktiv o‘yinlar orqali o‘quvchilar bir-biri bilan o‘zaro aloqa qilishni o‘rganadi, bu esa ularning ijtimoiy va kommunikativ ko‘nikmalarini yaxshilaydi.

O‘quvchilarning o‘zini baholash va shaxsiylashtirilgan ta’lim: Zamonaviy texnologiyalar orqali o‘quvchilar o‘z bilim va o‘zlashtirish darajasini mustaqil baholash imkoniyatiga ega bo‘ladi, bu esa shaxsiylashtirilgan ta’limga imkon yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, Bu metod va vositalardan foydalanish nafaqat informatika darslarining sifatini oshirishga yordam beradi, balki o‘quvchilarning bilim olish jarayonini qiziqarli, samarali va shaxsiy ehtiyojlariga mos qilib shakllantirishga xizmat qiladi. Zamonaviy o‘quv usullari va raqamli texnologiyalar orqali o‘quvchilar nafaqat informatika bilimlarini o‘zlashtiradi, balki kelajakda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishlari uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni ham shakllantiradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Ян Амос Коменский. "Великая дидактика". Ushbu kitob didaktikaning asosiy tamoyillari haqida tushuncha beradi.

2. Dewey, J. "Democracy and Education". Dewey bu kitobida ta’limda demokratik yondashuv va amaliy o‘qitish usullarini ko‘rsatadi.

3. Vygotsky, L. "Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes". Vygotsky asarlari o‘qitishda ijtimoiy o‘zaro ta’sirning muhimligini tushuntiradi.

4. Bruner, J. "The Process of Education". Bu kitob o‘quv jarayonida konstruktivistik yondashuvni tushuntiradi va o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirish usullarini o‘rganish jarayonini yoritadi.

5. Fry, H., Ketteridge, S., & Marshall, S. (Eds.). "A Handbook for Teaching and Learning in Higher Education: Enhancing Academic Practice". Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va darslarni interaktiv tashkil qilishga oid yo‘riqnomalar.

6. Merrill, M. D. "First Principles of Instruction". Bu kitobda ta’lim jarayonini rejalashtirish va o‘quvchilar bilan interaktiv o‘quv muhitini yaratish haqida batafsil ma’lumotlar berilgan.

7. Bates, T. "Teaching in a Digital Age: Guidelines for Designing Teaching and Learning". Ushbu kitob raqamli texnologiyalar bilan o‘qitishning afzalliklari va ko‘nikmalari haqida foydali ma’lumot beradi.

## ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA ONLAYN TA'LIMNING AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI

**Reimboyeva Munisa Sharafatdin qizi**

CHDPU Turizm fakulteti Xorijiy til va dabiyoti yoʻnalishi 24/24 guruh talabasi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada zamonaviy pedagogik texnologiyalar va onlayn taʼlim tizimining rivojlanish jarayonlari, ulardan taʼlimda foydalanishning afzalliklari hamda kamchiliklari keng yoritilgan. Pedagogik texnologiyalar tushunchasi, ularning turlari va taʼlim jarayonida qoʻllanilishi haqida batafsil maʼlumot berilgan. Onlayn taʼlimning oʻquvchilarga taʼsiri, texnologik imkoniyatlar va cheklovlar muhokama qilingan. Shuningdek, zamonaviy taʼlim platformalari, interaktiv vositalar va masofaviy taʼlim metodikasi tahlil qilingan. Oʻquv jarayonini takomillashtirish uchun ilgʻor pedagogik yondashuvlar va texnologik vositalarni qoʻllash boʻyicha takliflar kiritilgan. Maqola taʼlim sifatini oshirishga qaratilgan tavsiyalar bilan yakunlanadi.

**Kalit soʻzlar:** Taʼlim jarayoni: zamonaviy taʼlim, pedagogik texnologiyalar, oʻqitish usullari, taʼlim metodikasi, masofaviy taʼlim, elektron oʻqitish, innovatsion taʼlim.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ularning turlari

Pedagogik texnologiyalar oʻquv jarayonining samaradorligini oshirishga qaratilgan usul, vosita va metodlarning toʻplamidir. Pedagogik texnologiyalar taʼlimning har bir sohasida rivojlanish uchun zarur vositalarni taqdim etadi. Ularning maqsadi — oʻquvchilarning taʼlim olish jarayonida koʻnikmalarini rivojlantirish va bilim olishni yengillashtirishdir.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni quyidagicha tasniflash mumkin:

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)

AKT texnologiyalari oʻquv jarayonini rivojlantirishda asosiy vosita boʻlib xizmat qilmoqda. Bu texnologiyalar internet, kompyuterlar, multimedia qurilmalari, interaktiv doskalar va mobil ilovalardan foydalanishni oʻz ichiga oladi. AKT

o‘qituvchilarga o‘quv materiallarini interaktiv tarzda taqdim etish imkonini beradi va o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi.

“The integration of ICT in education allows for more interactive and personalized learning experiences that engage students in ways traditional methods cannot” (Bates, 2015).

#### Masofaviy ta’lim

Masofaviy ta’lim — bu onlayn platformalar orqali amalga oshiriladigan ta’lim shakli bo‘lib, unga ixtisoslashgan platformalar (masalan, Coursera, EdX, Moodle) orqali darslar olib boriladi. Bu ta’lim shakli o‘quvchilarga jismoniy joylashuvidan qat’i nazar ta’lim olish imkonini beradi.

#### Modulli ta’lim

Modulli ta’limda darslar modullar (blokklar) tarzida tashkil etiladi, bunda har bir modul aniq maqsadga erishish uchun tuzilgan. Har bir modul o‘quvchilarga yangi bilimlarni o‘rgatish uchun maxsus qurilgan bo‘ladi.

#### Interaktiv o‘qitish usullari

Interaktiv o‘qitish usullari talabalarning o‘quv jarayonida faol ishtirok etishini ta’minlaydi. Bu usul o‘quvchilarning muhokama, rolli o‘yinlar, guruh ishlari kabi faoliyatlarda ishtirokini o‘z ichiga oladi. Interaktiv o‘qitish usullaridan foydalanish, o‘quvchilarning bilim olish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi.

#### Onlayn ta’limning afzalliklari

Onlayn ta’limning o‘zi ta’lim tizimining ajralmas qismiga aylangan. Uning afzalliklari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

#### Moslashuvchanlik va qulaylik

Onlayn ta’limning eng katta afzalligi bu uning moslashuvchanligi va qulayligidir. O‘quvchilar istalgan vaqtda va istalgan joyda ta’lim olishlari mumkin. Bu nafaqat o‘quvchilarning vaqtini tejaydi, balki turli shaharlardan, qishloqlardan ham ta’lim olish imkoniyatini yaratadi. Shu bilan birga, o‘quvchilar o‘z sur’atida darslar o‘rganishi, qo‘shimcha materiallar bilan tanishishi mumkin.

“Online learning has a flexibility that traditional classroom settings cannot provide, as students can learn at their own pace, from anywhere in the world” (Anderson, 2008).

#### Keng resurslarga kirish imkoniyati

Onlayn ta’lim o‘quvchilarga butun dunyo bo‘ylab elektron resurslarga kirish imkoniyatini yaratadi. Masalan, onlayn kutubxonalar, video darslar, maqolalar va boshqa ta’lim materiallari. Bu o‘quvchilarga o‘z bilimlarini kengaytirishga, yangi manbalardan foydalanishga yordam beradi.

#### Xarajatlarni tejash

Onlayn ta’limni qo‘llash orqali ta’lim olish xarajatlari sezilarli darajada kamayadi. O‘quvchilar va o‘qituvchilar uchun yo‘l xarajatlari, turar joy masalalari, shuningdek, an’anaviy darslarni tashkil etish bilan bog‘liq xarajatlar kamayadi.

#### Onlayn ta’limning kamchiliklari

Onlayn ta’lim, albatta, ba’zi muammolarni ham keltirib chiqaradi. Quyida uning kamchiliklari keltirilgan:

#### Texnologik muammolar

Onlayn ta’lim tizimi uchun zarur bo‘lgan texnologiyalar (kompyuterlar, internet, dasturlar) mavjud bo‘lmagan joylarda bu tizimning samarali ishlashi qiyin. Internet tezligi va sifatining pastligi, texnik yordamsizlik kabi omillar ta’lim sifatini pasaytirishi mumkin.

“Technology gaps can hinder the effectiveness of online learning, as students in remote areas may struggle with poor internet access” (Laurillard, 2012).

#### Ijtimoiy muloqotning yetishmasligi

Onlayn ta’limda o‘quvchilarning bir-biri bilan bevosita muloqoti cheklangan bo‘ladi. Bu, ayniqsa, yosh o‘quvchilarda ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishda qiyinchiliklar tug‘diradi. Shuningdek, o‘qituvchi bilan yuzma-yuz muloqot qilish imkoniyati yo‘q.

#### Motivatsiya va o‘zlashtirish muammolari

Onlayn ta’limda o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi, motivatsiyasi va o‘z vaqtida topshiriqlarni bajarishlari muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Motivatsiyaning yo‘qligi o‘quvchilarning muvaffaqiyatsizligi sabab bo‘ladi.

Yechimlar va takliflar

Onlayn ta’limning kamchiliklarini bartaraf etish uchun quyidagi choralarning amalga oshirilishi lozim:

\*Onlayn platformalar va texnologiyalarni takomillashtirish, talab va ehtiyojlarga mos ravishda yangilash.

\*O‘qituvchilarni yangi texnologiyalar bilan tanishtirish va ularning pedagogik ko‘nikmalarini oshirish.

\*Ta’lim jarayonida interaktiv vositalardan foydalanishni kengaytirish.

\*O‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish uchun turli rag‘batlantirish tizimlarini ishlab chiqish.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va onlayn ta’lim bugungi ta’lim tizimining ajralmas qismiga aylangan. Ularning to‘g‘ri qo‘llanilishi o‘quv jarayonini samarali va qulay qilish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, mavjud kamchiliklarni bartaraf etish orqali ta’lim sifatini yanada oshirish mumkin. Onlayn ta’limning kelajagi ulkan, ammo uning samarali bo‘lishi uchun texnologiyalarni rivojlantirish, pedagogik yondashuvlarni yangilash va o‘quvchilarni motivatsiyalash muhimdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Bates, T. (2015). Teaching in a Digital Age. Tony Bates Associates Ltd.
2. Anderson, T. (2008). The Theory and Practice of Online Learning. Athabasca University Press.
3. Laurillard, D. (2012). Teaching as a Design Science: Building Pedagogical Patterns for Learning and Technology. Routledge.
4. Garrison, D. R., & Kanuka, H. (2004). Blended learning: Uncovering its transformative potential in higher education. *The Internet and Higher Education*, 7(2), 95–105.
5. Holmberg, B. (2005). Theory and Practice of Distance Education. Routledge.

## MUSIQA TERMINLARIDA MILLIY MENTALLIKNING AKS ETISHI

### Eshbo‘tayeva Shohsida

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va  
adabiyoti universiteti o‘qituvchisi  
shohsidaeshbotayeva92@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada musiqa terminlarining shakllanishida milliy mentallikning o‘rni va ahamiyati tahlil etilgan.

**Kalit so‘zlar:** termin, musiqa termini, mentalitet, lingvokulturologiya, mentallik.

Til xalqning mental tasavvurlari va madaniyati bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lib, millat mentalitetining asosidir. U xalqning an‘analari, madaniyati, ijtimoiy tuzilmasi va turmush tarzi yordamida shakllanadi. Mentalitet – jamiyat, millat yoki alohida shaxsning tarixiy tarkib topgan tafakkur darajasi, madaniy salohiyati, ularning hayot qonunlarini tahlil etish kuchi, muayyan ijtimoiy sharoitlardagi aqliy qobiliyati, ruhiy quvvatidir [1, B. 175]. Shuningdek, jamiyat, millat yoki alohida shaxsning mentaliteti ularning o‘ziga xos an‘analari, rasm-rusumlari, urf-odatlarini, diniy e‘tiqod va irimlarini ham qamrab olishi bilan ahamiyatlidir. Mentallik – milliy xarakterning intellektual, ma‘naviy va iroda xususiyatlarini o‘zida birlashtiradigan, ona tili kategoriyalari va shakllaridagi dunyoqarashning ko‘rinishi. Mentallikning birligi mazkur madaniyatning konsepti hisoblanadi [2, B. 242]. Insoniyatning borliqni anglash me‘yori sanalgan mentalitet mentallikning yuzaga chiqishiga asos bo‘lib xizmat qiladi. U odamlarning katta guruhlarini – etnik guruhlar, millatlar yoki ijtimoiy qatlamlarga xos bo‘lgan, borliqni anglash va uni voqelantirishning barqaror u sulidir. Mentalitet ajdodlarning kognitiv majmuyi hisoblansa, mentallik uni shakllantiruvchidir. Til tadqiqiga jamiyat, millat, madaniyat, qadriyatlar, inson, uning tafakkuri kabi omillarni ham e‘tiborga olgan holda yondashish natijasida lingvomadaniyatshunoslik fani yuzaga kelgan bo‘lib [3, B. 14], milliy mentallik

tushunchasi ushbu fanning asosiy terminlaridan sanaladi. Madaniy konsept – lotin tilidagi conceptus “tushuncha” so‘zining kalkasidir. Rus tilshunosligida ushbu tushuncha XX asrning birinchi choragida faylasuf S.Askoldov tomonidan ilmiy muomilaga kiritilgan. Ushbu termin tilshunoslikda o‘tgan asrning 80-yillariga qadar tushuncha so‘ziga sinonim sifatida ishlatilgan bo‘lsa, bugungi kunga kelib uning izohi tushuncha terminiga nisbatan kengayganini ko‘rish mumkin. Konsept ikki tomonli xususiyatga egadir: bir tomondan, madaniyat konsept ko‘rinishida insonning mental dunyosiga kirsa, boshqa tomondan, inson konsept yordamida madaniyatga kiradi va ba‘zan unga ta’sir ko‘rsatadi. Konsept lingvomadaniy birlik sifatida u yoki bu xalq madaniyatining o‘ziga xos jihatlarini ifodalaydi.

Lingvomadaniy konsept – etnomadaniy xususiyatga ega bo‘lgan va borliq haqidagi funksional ahamiyatga molik ma’lumotni uzatadigan madaniyatning asosiy birligidir [4, B. 239]. Konsept terminini izohlagan D.Xudoyberganova uni mental tuzilma deya ta’riflaydi [5, B. 13]. Mentallikning birligi sanalgan milliy konsept o‘zbek tili musiqa terminlari hosil bo‘lishida ham faol ishtirok etgan.

Quyida mental xususiyatlarni o‘zida aks ettirgan o‘zbek xalqining milliy konsepti asosida shakllangan musiqa terminlarini tahlilga tortamiz:

Balabon – qadimiy o‘zbek xalq cholg‘u asboblaridan. Ko‘proq Xorazmda keng tarqalgan [6, B. 26 – 27]. Ushbu termin xalq tilida bo‘lamon, bolabon, bolaman shakllarida ham uchraydi. Terminning variantlari uning nomlanish xususiyatini bildirib, hajm jihatdan karnay va surnaydan kichik bo‘lganligi haqidagi milliy-madaniy konsept asosida yuzaga kelgan. Shuning uchun ham bolaman varianti paydo bo‘lgan.

Childirma – yog‘och gardishga terini tarang qoplab yasalgan va chertib chalinadigan musiqa asbobi. Bu ot qadimgi turkiy tildagi chertib chiqariladigan bo‘g‘iq tovushni ifodalovchi chaldır-chaldır taqlid so‘zidan eski o‘zbek tilida -ma qo‘shimchasi bilan yasalgan [7, B. 425]. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida ushbu cholg‘u nomini ifodalovchi fors-tojik tilidan o‘zlashgan doyra termini faol sanaladi. Bir tushunchani ifodalovchi ikki termin ikki xalqning mental jihatdan predmetning turli xususiyatlariga e’tibor qaratganligini ifodalaydi. Jumladan, fors-tojik xalqi predmetni

shakliga qarab atalgan bo‘lsa, o‘zbek xalqi uni xususiyati, ijro jarayoni va bajaradigan vazifasidan kelib chiqib nomlagan. Shuningdek, ushbu cholg‘u turkiy xalqlarning eng qadimgi musiqa asboblaridan sanalib, tangrikanlik [8, B. 83] dinida shomonga Yerlik (yer osti saltanatining hukmdori) [9, B. 77] bergan va ushbu cholg‘uga osmon hamda yer ilohlari bilan muloqot o‘rnatish vositasi deb qaralgan.

Tahlillar natijasida o‘zbek xalqining mental tuzlimasi, milliy-madaniy konsepti asosida shakllangan childirma terminini adabiy tildagi o‘quv va izohli lug‘atlarimizga qaytarish lozim degan xulosaga kelindi.

Dovul – doyira shaklida, har ikki tomoniga teri qoplangan qadimiy o‘zbek cholg‘u asbobi. Dovulning gardishiga yasalgan dastani chap qo‘l bilan ushlab, tayoq bilan urib chalinadi [6, B. 95]. Termin qadimgi turkiy tildagi “g‘arbdan esgan shamol” ma’nosini anglatgan dabur so‘zining leksik va semantik ma’no taraqqiyoti natijasida shakllangan [7, B. 93]. Bo‘ron bo‘lganda chiqadigan kuchli ovoz, vayronlik keltiruvchi ovoz, vahima uyg‘otuvchi ovoz assotsiatsiyalari xalqning mental xususiyati va milliy-madaniy konsepti asosida, asosan, harbiy yurishlarda, ov jarayonlarida odamlar yoki hayvonlarda vahima uyg‘otuvchi kuchli ovoz chiqaradigan cholg‘uga nisbatan qo‘llangan. Shuningdek, qadimgi oltoy tili tarkibiga kirgan turkiy xalqlarning tangrikanlik diniga oid qarashlarida nog‘ora, daf, changqovuz va boshqa cholg‘ular yordamida inson tanasidagi ruhlar bilan so‘zlashish yoki yovuz ruhlarni tanadan quvib chiqarish mumkinligi haqidagi mafkura mavjud bo‘lgan [9, B. 81]. Shunday diniy tasavvur vositasida hosil bo‘lgan milliy-madaniy konsept orqali dovul leksemasi vujudga kelgan.

O‘lan – xalq ijodi janri bo‘lgan qo‘shiqning bir turi. Turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan, asosan, ayollar ijrosida childirma jo‘rligida kuylanadi. Beshik to‘y o‘lani, nikoh to‘y o‘lani kabi turlari mavjud [10, B.320]. Bu so‘z qadimgi turkiy tildagi namlik ma’nosini anglatgan öl asosidan yasalgan bo‘lib, eski turkiy til davrida ölän shaklida bo‘lgan [7, B.473]. Ushbu janrda, asosan, kuylovchining dardlari, orzu-umidlari, iztiroblari kuylangani, ya’ni inson ko‘ziga nam keltiruvchi dardli ohang yetakchi ekanligidan kelib chiqib, xalq ongida paydo bo‘lgan mentallik asosida urf-odat va marosimlarda kuylanadigan ijro haqidagi milliy-madaniy xususiyat aks etgan.

Lazgi – Xorazm xalq kuyi va raqsi [10, B.84]. San’atshunos G.Matyoqubovanning ta’kidlashicha, ushbu kuy va raqsning paydo bo’lganiga uch ming yildan oshdi [11, B. 64]. Raqs tadqiqotchisi Roza Verko ta’rifi bilan aytganda: “Lazgi – Xorazmni ko’rishdir. Qadimgi lazgi so’zining ma’nosi “qaltirash” demakdir[12,B.1-2]. Ushbu termin etimologiyasiga oid qarashlarda insonning loydan yaralishi va unga kuy orqali jon ato etilishi haqidagi afsonaviy va diniy qarashlar, shuningdek, uning: totemizm – “Masxaraboz lazgisi”, animizm – “Qayroq lazgisi”, zardushtiylik – “Olov lazgisi”, afsonalardan kelib chiqqan “Dutor” va “Surnay” lazgilari, fantaziya mahsuli bo’lgan “Xiva lazgisi”, “Xorazm lazgisi”, shart-sharoit taqazosiga ko’ra paydo bo’lgan “O’g’lon bola lazgisi”, “Garmon lazgisi”, elatlar aralashuvidan kelib chiqqan Xorazm eroniylari “Lazgisi” kabi turlari ham xalqning tosh asridan beri shakllanib, rivojlanib kelgan milliy mental xususiyatlari negizida yaralgan, o’zida milliy-madaniy konseptni hosil qilgan termin sanaladi[13,B.179–180]. Termin qadimgi fors-tojik tilidan o’zlashgan larza so’zining “larzidon” – “titra”, “silkin” ma’nolaridan hosil bo’lgan degan xulosaga tahlillar natijasida kelindi[7, B. 126 – 127]. Chunki eng qadimgi lazgi kuyining asosi qayroq toshlarning bir-biriga titratib tegilishi va surnayning silkitma ohangi asosida hosil bo’lgan. Raqs termini sifatida inson tanasining kuyga mos titragan holatda silkinishini ifodalaydi.

Xalqning mental xususiyatlari asosida yaratilgan bunday terminlarni o’zbek tili musiqa terminlari tarkibida ko’plab keltirish mumkin. Terminlarning milliy-madaniy xususiyatlari bo’yicha tahlillar olib borgan D.Jamoliddinovaning antroposentrik yo’nalishdagi lingvistik izlanishlarni terminologik sohalarning har biri bo’yicha olib borish lozimligi haqidagi taklifi amaliy ijrosi sifatida yaratilgan ushbu tadqiqotda til egasining musiqa terminlarni hosil qilishda ruhiy, ma’naviy olami, diniy va dunyoviy bilimlari, urf-odat hamda an’analari, milliy-madaniy xususiyatlaridan kelib chiqib, hosil bo’lishi aniqlandi. Bunday terminlar, asosan, qadimgi turkiy, eski turkiy va eski o’zbek adabiy tili davrlarida yaratilgan bo’lib, XIX asrdan boshlab esa kalka usulidan foydalanilgan holda yaratila boshlangani ma’lum bo’ldi. Bugungi kunda ham o’zbek xalqining milliy-madaniy konsepti asosida hosil bo’lgan musiqa terminlari o’zbek adabiy tilida umumsistemaga yaqin so’zlar sifatida faol qo’llanilib kelinmoqda.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I жилд. А.Мадвалиев таҳрири остида. Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007.
2. Usmanova Sh. Lingvomadaniyatshunoslik. – Toshkent: Bookmany print, 2022.
3. Худойберганава Д. Замонавий ўзбек тилшунослиги терминологиясининг тараққиёт омиллари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2023. – № 4.
4. Usmanova Sh. Lingvomadaniyatshunoslik. – Toshkent, Bookmany print, 2022.
5. Худойберганава Д. Матннинг антропоцентрик тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2013.
6. Акбаров И. Муסיқа луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1997.
7. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. I жилд. – Тошкент: Университет, 2000.
8. Sodiqov Q.O‘zbek mumtoz adabiyoti (Qadimgi turkiy adabiyot). – Toshkent: Akademnashr, 2022.
9. Бўронов А. Олтойлар. – Тошкент: Муҳаррир, 2017.
10. Абдусалом У., Мансур Б. Madaniyat va san‘at atamalarining izohli lugati – Toshkent: Fafur Gulom, 2015.
11. Matyoqubova G. Ofatijon lazgi // Adabiyot va san‘at, Toshkent, 1993.
12. Roza Verko. Khorezm Lazgi: The Sunniest Danse on Earth. 2020. <https://voicesoncentralasia.org/khorezm-lazgi-the-sunniest-danse-on-earth>
13. Saparbayev A.Sh., Shahanov B.Ch. Dutor lazgi – Xorazm xalq ijodining go‘zal namunasi // Муждународный научный журнал Научный импульс № 5 часть 2. 2022.

## **BOSHLANG`ICH SINIF O`QUVCHILARINI KASB TANLASHGA QIZIQTIRISH VA KASBGA YO`NALTIRISH ISHLARINI TASHKIL QILISH**

**Shukurova Gulbahor Akromjon qizi**

Andijon viloyati Jalaquduq tumani MMTB ga qarashli 40-maktab  
amaliyotchi psixologi

**Annotatsiya:** Kasb insonning butun hayoti davomidagi hamrohi hisoblanadi. Shu sababli ham kasb tanlashda albatta, inson o`zining qiziqish va qobiliyatlarini inobatga olib, chuqur o`ylab, mulohaza qilishi lozim. Ushbu maqolada bolalarni kichik maktab yoshidanoq kasbga bo`lgan qiziqishlarini aniqlab, ularni to`g`ri yo`naltirish haqida so`z yuritiladi.

**Kalit so`zlar:** Kasb, kasb tanlash, dars jarayoni, shaxsiy namuna, metodika, boshlang`ich ta`lim.

Ma`lumki, ta`lim-tarbiyada boshlang`ich sinflar ta`limi alohida bosqich bo`lib, bu davr bola shaxsini eng jadal rivojlanish davri hisoblanadi. Chunki 5-6 yoshdagi 10-11 yoshgacha bo`lgan davrda bola shaxsi yetuklik va o`smirlik davriga zamin yaratadi. Ayni shu davr bola shaxsining ko`rish, kuzatish, idrok etish, tassavur va tafakkur qilishga o`rganish jarayonidagi eng shiddatli bosqich bo`ladi. Shu boisdan ham boshlang`ich sinf o`qituvchilari o`quvchilarga ta`lim tarbiya berish jarayonida ularning individual-shaxsiy xususiyatlariga alohida e`tibor berib, boladagi qiziqishlarni to`g`ri yo`naltirishga bugungi kun talabi darajasida bo`lishiga e`tibor qaratish lozim.

O`quvchilarni kasb tanlashga yo`naltirishda **“Kasb o`zi nima?”** degan savol tug`iladi. Kasbga esa quyidagicha ta`riflar berilgan.

**Kasb** bu – insonga ma`lum bir talablar qo`yuvchi faoliyat turidir.

**Kasb** – insonni jamiyat tomonidan tan olinishdir

**Kasb** – tiriklik va tirikchilik manbayi.

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ko‘pgina faoliyatlar amalga oshirilib, Ta’lim tizimini takomillashtirish jarayoni bo‘yicha ham qonun va qarorlar qabul qilinmoqda. Mana shunday qonunlarda kasb va hunarga yo‘naltirish muammolari ham, shuning bilan birga ko‘rib chiqilmoqda. Shuningdek, Xalq Ta’limi Vazirligining 2002-yilning oktabrdagi 153-sonli qarorida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarni kasb va hunarga yo‘naltirishning bir qator yangicha konsepsiyalari belgilangan edi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kasb va hunar atamasini takomillashtirish, kelajak avlodning keyingi yillarda egallaydigan kasbhunariga diqqatli bo‘lish mamlakatning asosiy va muhim muammosidir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirishda qilingan asosiy maqsad kelajak avlodning kelgusida egallayotgan kasb-hunarini o‘zi erkin aqliy tomonlama bilgan, tushungan holda tanlab, o‘z kasb-hunarining yuqori malakali mutaxassisi kabi yetishishida samarali hissa qo‘shishidir. Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi ham nafaqat o‘quvchilarga ilm – fan olamining dastlabki bilimlarini beradi, balki ushbu jarayonda o‘quvchilarni kasbga yo‘naltiradi. O‘quvchi bolaligidan biror bir kasbga mehr qo‘yadi, uni orzu qiladi, shu kasb egasi sifatida o‘zini tasavvur qiladi. Mazkur tasavvurning realligini ta’minlashda o‘qituvchining katta o‘rni bor. Negaki, o‘qituvchi hali mukammal shakllanmagan bola tasavvurida go‘yoki bir “sehrgar”, tengsiz murabbiydir. Boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarini kasbga yo‘naltirish bo‘yicha olib boriladigan ishlarning barcha shakl va metodlari o‘quvchilarning maqsadli ravishda kasb tanlashlariga xizmat qilishi lozimdir. Maktabda kasb-hunarga yo‘naltirish ishlarini yo‘lga qo‘yishda an’anaviy amaliy mashg‘ulot, suhbat, dialogli munozaralar bilan birga pedagogik o‘yin, mustaqil fikrlar kabi yangi pedagogik texnologiya elementlaridan unumli foydalanish tavsiya etiladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini kasb-hunar tanlashi uchun keng yo‘l yaratib beradigan kasb-hunarlar olami bilan mukammal tanishish va kasb-hunarlar haqida tasavvurlarga ega bo‘lish, ularni moyilligini, qiziqishini va intilishini oshirishda quyidagi ko‘pgina metodik tavsiyalari mavjud:

- turli xil tashkilotlar uyushmasiga ekskursiyalar tashkil qilish-bunga bevosita tashkilotlar uyushmasiga borib, ulardagi ish faoliyati jarayoni, faoliyat yuritiladigan soha va ish tartibi bilan mukammal tanishish;

- axborotli ko‘pgina dasturlar, agitatsiyalar, reklamalar, bukettlar va boshqalar;

-tajribali mutaxassislar bilan samarali uchrashuvlar o‘tkazish yo‘li orqali;

-madaniy -ma’naviy tadbirlar tashkil qilish yo‘li bilan.

Kasb tanlash juda muhim masala bolib ko‘pincha o‘quvchilar buni mustaqil hal qila olmaydilar. O‘qituvchilarning ish tajribasi o‘quvchilarni to‘g‘ri kasb tanlashlariga xizmat qilishi va ularga yordam berishi lozim. Ulardan asosiylari esa quyidagilardan iborat:

Darslarda kasb tanlashga yo‘llash. O‘qituvchi o‘quvchilarni texnologiya darslarida bajarayotgan ishi bilan bog‘liq kasblar bilan tanishtiradi. Masalan: Yangi milliy o‘quv dasturi asosida yaratilgan 1-sinf texnologiya darsida “Uycha qurish” mavzusi orqali o‘quvchilarga quruvchilik kasbi haqida tushuncha beriladi va quruvchi kasbiga nisbatan hurmat hissi shakllantiriladi. Ularning mashaqqatli mehnatlariga havas uyg‘otiladi. Demak 1-sinfdanoq o‘quvchilarga kasblar haqida tushunchalar texnologiya darslari orqali shakllantiriladi.

Hozirgi kunda telefon, kompyuter kirib bormagan xonadon bo‘lmasa kerak. Har bir o‘quvchida kompyuter o‘yinlariga qiziqish katta ekanligi hech kimga sir emas. Ularning shu qiziqishlaridan o‘rinli foydalangan holda o‘quvchilarga 4- sinf texnologiya darsligiga kiritilgan “Muhandis – dasturchi” kasbi haqida tushuncha berish va bu kasbga qiziqish uyg‘otish mumkin. Telefon va kompyuterdagi eng qiziq o‘yinlarni ham dasturchilar yaratganini, dasturchi nafaqat o‘yinlar yaratishi bu yuqori texnik ma’lumotga ega, muhandislik sohasida ham, dasturlash sohasida ham yetarli ma’lumotga ega shaxs ekanligi hozirgi kunda eng mashhur kasblardan biri ekanligini to‘g‘ri tushuntirish lozim.

2-sinf Ona tili va o‘qish savodxonligi. 16-mavzu. Men sevgan kasb. O‘quvchilarga 2 ta savol bilan murojat qilamiz:

1. Kelajakda qaysi kasb egasi bo‘lishni istaysiz?

2.Kasb tanlaganda nimalarga e’tabor berish kerak?

O`quvchilar o`zlari tanlamoqchi bo`lgan kasblarini aytib o`tishadi. Ularning fikrlarini tinglagan o`qituvchi har bir bolaning tanlamoqchi bo`lgan kasbiga ta`rif berib, imkon qadar ijobiy fikrlar bildiradi. Shu orqali boshlang`ich sinfdanoq bolalarda kasb-hunarga bo`lgan qiziqish ottirib boriladi.

Qolaversa, jismoniy tarbiya darslarida ham, mamlaktimizdan yetishib chiqqan chempionlar, ularni Vatanimizni jahonga tanitayotganliklari, sportchilar uchun yaratilgan sharoitlar haqida o`quvchilarga so`zlab berilishi ham ularni sportga bo`lgan qiziqishi ortishiga sabab bo`ladi.

Bundan tashqari, ustozlar o`quvchilarga shaxsiy namunalarni keltirish orqali hma kasb-hunarga yo`naltirishlari mumkin. Masalan, o`qituvchi darslarda o`z kasbini qanchalik yaxshi ko`rishi haqida, kasbining qanchalik insonlarga manfaatli ekani haqida so`zlashi orqali o`quvchilarda o`qituvchilik kasbiga qiziqish uyg`otishi mumkin.

Boshlang`ich ta`lim o`quvchilari kasb tanlashdan hali uzoq turadilar. Biroq ular o`rtasida to`g`ri yo`lga qo`yilgan kasb tanlash ishi shunday bir negiz bo`lishi kerak - ki, o`quvchilar yuqori sinflarga o`tganda, mustaqil hayotga qadam qo`yganda to`g`ri kasb tanlaganlariga amin bo`lishlari lozim.

Xulosa sifatida qayd etish mumkinki, o`quvchilarni o`z vaqtida to`g`ri kasbga yo`naltirish mamlakat taraqqiyotining kafolatidir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. - T.: "O'zbekiston", 2017. -102 b.

2.Xolmatov P.Q. Texnologiya fanini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar. 3.1.modul. Majmua. JVPXQTMOHM. 2022.

3.Xolmatov P.Q. va boshq. Kasb tanlash hususiatlari. Oquv qollanma. Poytaht-Eksklyuziv. T.2022.

4.Xolmatov P.Q. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o quvchilarni kasbhunarga yo'naltirishni takomillashtirish. Metodik qo`llanma. Navruz. 2021

5. X.Sanaqulov, D.Xodiyeva. Mehnat va uni o‘qitish metodikasi. – T.; Tafakkur bo‘stoni, 2015, – 71 b
6. I. A. Mannopova, D. M. Sayfunov. Texnologiya Umumiy o‘rta ta’lim maktablaining 4 – sinfi uchun darslik. – T. ; O‘qituvchi, 2020.
7. Axmedov Ildar Gennadevich “Molodoy ucheniy” № 21. 2019, – 615 b
- 4.Dilbar Mirahmedova Texnologiya 1 Metodik qo‘llanma. – T – 2021 2017. - 102 b.

## **PEDAGOGIK TASHXISLASH ASOSIDA O‘QITUVCHINING KASBIY RIVOJLANISHINI TA’MINLASH USULLARI**

**Bozorova Zulfizar Abdisodiq qizi**

Iqtisodiyot va Pedagogika universiteti Pedagogika yo`nalishi 1- bosqich Magistranti

[Bozorovazulfizar1@gmail.com](mailto:Bozorovazulfizar1@gmail.com)

**Annotatsiya:** Mazkur maqola pedagogik tashxislash asosida o‘qituvchining kasbiy rivojlanishini ta’minlash usullarini o‘rganishga bag‘ishlangan. O‘qituvchining kasbiy rivojlanishi ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish uchun muhim ahamiyatga ega. Pedagogik tashxislash o‘qituvchining pedagogik faoliyatini aniqlash va baholashga yordam beradi, uning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash imkonini yaratadi. Maqolada tashxislashning turli usullari, masalan, monitoring, sinovlar, intervyular, refleksiya va o‘quvchilar bilan ishlash tahlili keltirilgan.

**Аннотация:** Данная статья посвящена методам обеспечения профессионального развития учителя на основе педагогической диагностики. Профессиональное развитие учителя является ключевым элементом повышения эффективности образовательного процесса. Педагогическая диагностика помогает определить сильные и слабые стороны педагогической деятельности, а также служит основой для улучшения качества преподавания. В статье рассматриваются различные методы диагностики, такие как мониторинг, тестирование, интервью, рефлексия и анализ работы с учащимися.

**Abstract:** This article focuses on methods for ensuring the professional development of teachers based on pedagogical diagnostics. The professional growth of educators is a crucial factor in improving the effectiveness of the educational process. Pedagogical diagnostics helps identify both the strengths and weaknesses of teaching activities, serving as a foundation for improving teaching quality.

**Kalit soʻzlar:** Pedagogik tashxislash, O‘qituvchining kasbiy rivojlanishi, Pedagogik malaka oshirish, Kasbiy rivojlanish metodlari, O‘qituvchilarga treninglar, Pedagogik innovatsiyalar, O‘qituvchilarni baholash tizimi, Mentorlik tizimi, Ta’lim

samaradorligi, Refleksiya va o‘zini tahlil qilish, Ta’lim metodlari, Pedagogik diagnostika, O‘qituvchining malaka oshirish modeli.

## **Kirish**

Ta’lim tizimining samarali ishlashi va o‘quvchilarning yuqori natijalarga erishishi uchun o‘qituvchining kasbiy rivojlanishi muhim omil hisoblanadi. Pedagogik tashxislash o‘qituvchining pedagogik faoliyatini baholash, uning malakasi va ish usullarini tahlil qilish jarayonidir. Bu jarayon o‘qituvchining o‘z kasbiy malakasini oshirish, yangi pedagogik texnologiyalarni o‘rganish va ta’lim jarayonini yaxshilash uchun zarur bo‘lgan imkoniyatlarni yaratadi. Pedagogik tashxislashning asosiy vazifasi – o‘qituvchining ta’limda samaradorligini oshirishga qaratilgan tahlillarni amalga oshirish va unga tegishli tavsiyalarni ishlab chiqishdir.

Ta’lim tizimida o‘qituvchining kasbiy rivojlanishi, ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. O‘qituvchining kasbiy mahorati va pedagogik ko‘nikmalarini doimiy ravishda rivojlantirish ta’limning sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Pedagogik tashxislash – bu o‘qituvchining pedagogik faoliyatini aniqlash va baholash jarayoni bo‘lib, uning kasbiy rivojlanishini ta’minlashda samarali vosita hisoblanadi. Ushbu maqola pedagogik tashxislashning usullari va o‘qituvchining kasbiy rivojlanishiga ta’sirini o‘rganadi.

Pedagogik Tashxislashning Ahmiyati, Pedagogik tashxislash o‘qituvchining ta’lim jarayonidagi faoliyatini tahlil qilish, uning kuchli va zaif tomonlarini aniqlashga yordam beradi. Tashxislash o‘qituvchining malakasini oshirish, ta’lim metodlarini takomillashtirish va yangi pedagogik yondashuvlarni joriy etishda muhim rol o‘ynaydi. O‘qituvchining kasbiy rivojlanishini ta’minlash uchun tashxislash usullaridan foydalangan holda, ta’lim jarayonida yuzaga kelgan muammolarni hal qilish imkoniyati yaratiladi.

Pedagogik Tashxislash Usullari;

Monitoring va baholash; O‘qituvchining faoliyatini doimiy ravishda kuzatish va baholash pedagogik tashxislashning birinchi usulidir. Bu o‘qituvchining ishlash

uslublarini aniqlashga, samaradorligini baholashga va kasbiy rivojlanishiga yordam beradi.

Intervyu va so‘rovnomalar; O‘qituvchining o‘z faoliyati haqida fikr bildirishini ta‘minlash orqali tashxislash amalga oshiriladi. Bu usul o‘qituvchining o‘zgarishlarga qanday munosabatda bo‘lishini va rivojlanish yo‘llarini aniqlashga yordam beradi.

Sinovlar va testlar; O‘qituvchining pedagogik bilimlarini va ko‘nikmalarini sinovdan o‘tkazish uning kasbiy rivojlanishini baholashda samarali vosita hisoblanadi. Testlar va sinovlar orqali o‘qituvchining pedagogik kompetensiyasi aniqlanadi.

O‘quvchilar bilan ishlashni tahlil qilish; O‘quvchilarning o‘qish jarayonidagi muvaffaqiyatlari va muvaffaqiyatsizliklari o‘qituvchining kasbiy rivojlanishini tashxislash uchun yordam beradi. Bu usul o‘qituvchining ta‘lim metodlarini va yondashuvlarini baholashga imkon beradi.

Pedagogik faoliyatni refleksiya qilish; O‘qituvchining o‘z faoliyatini o‘zi tahlil qilishi va baholash orqali rivojlanish uchun zarur bo‘lgan yo‘nalishlar aniqlanadi. Bu usul o‘qituvchining kasbiy o‘sishi uchun muhim vosita hisoblanadi.

#### O‘qituvchining Kasbiy Rivojlanishini Ta‘minlash

Kasbiy treninglar va seminarlar; O‘qituvchining kasbiy rivojlanishiga yordam berish uchun turli treninglar va seminarlar tashkil etish zarur. Bu tadbirlar o‘qituvchining yangi pedagogik metodlar va texnologiyalarni o‘zlashtirishiga imkon beradi.

Mentorlik tizimi; Tajribali o‘qituvchilar tomonidan yangi o‘qituvchilarga maslahatlar berish va yordam ko‘rsatish mentorlik tizimining asosiy maqsadidir. Bu usul o‘qituvchining kasbiy o‘sishiga turtki beradi.

Pedagogik innovatsiyalarni joriy etish; Yangi pedagogik texnologiyalarni va innovatsion yondashuvlarni o‘qituvchiga joriy etish uning kasbiy rivojlanishini ta‘minlashda muhim vosita hisoblanadi. O‘qituvchiga zamonaviy texnologiyalarni o‘z faoliyatida qo‘llash imkoniyatini berish kerak.

Pedagogik tashxislash o‘qituvchining kasbiy rivojlanishini ta‘minlashda muhim vosita hisoblanadi. Monitoring, intervyu, testlar va o‘quvchilar bilan ishlashni tahlil

qilish orqali o‘qituvchining ta’lim faoliyatini baholash mumkin. O‘qituvchining kasbiy rivojlanishini ta’minlash uchun mentorlik tizimi, kasbiy treninglar va pedagogik innovatsiyalarni joriy etish zarur. Bunday yondashuvlar o‘qituvchining pedagogik kompetensiyasini oshiradi va ta’limning sifatini yaxshilashga yordam beradi. O‘qituvchining kasbiy rivojlanishi nafaqat individual malaka oshirish, balki ta’lim tizimining umumiy sifatini yaxshilashga ham xizmat qiladi. O‘qituvchining pedagogik faoliyatini muntazam ravishda tashxislash, o‘qituvchining kuchli tomonlarini aniqlash va rivojlantirish, zaif jihatlarini esa tuzatish imkoniyatini yaratadi.

Ushbu maqolada pedagogik tashxislash asosida o‘qituvchining kasbiy rivojlanishini ta’minlash usullari, ularning samaradorligi va ta’lim jarayoniga ta’siri haqida so‘z boradi. O‘qituvchining kasbiy malakasini oshirishga qaratilgan metodlar va yondashuvlar o‘qituvchining o‘z faoliyatini yanada takomillashtirishiga va ta’lim sifatini yaxshilashga yordam bera oladi.

### **Xulosa**

Pedagogik tashxislash asosida o‘qituvchining kasbiy rivojlanishini ta’minlash, ta’lim sifatini oshirishning asosiy omillaridan biridir. Tashxislash natijalari o‘qituvchi malakasini oshirish jarayonini shaxsiylashtirish, uning zaif tomonlarini aniqlab, o‘shirish nuqtalarini belgilash imkonini beradi.

Tadqiqotimiz muammosi nazariy jihatdan – maktabgacha ta’lim tashkiloti bo‘lajak tarbiyachi-pedagoglari oliy ta’lim muassasalarida tayyorlash jarayonida kasbiy mobilligini shakllantirish modelini ishlab chiqish bo‘lsa, amaliy jihatdan - ularning kasbiy mobilligini rivojlantirishni ta’minlaydigan pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash bilan belgilanadi. Biroq, hozirgi jamiyatni modernizatsiyalash sharoitida maktabgacha ta’lim tizimida bir mutaxassislik doirasida ham, turdosh mutaxassisliklarni o‘zlashtirishda ham o‘z kasbiy professionalizmini oshirishga qodir bo‘lgan pedagog kadrlarga bo‘lgan ehtiyoj bilan ularning keyingi faoliyat davomida kasbiy kompetentsiyalarni mustaqil to‘ldirib borish zarurligini anglamasligi o‘rtasida ham ziddiyatlar mavjud. Bu ziddiyatlar asosan kasbiy bilim va kasbiy fazilatlar, jumladan, faollik, ijodkorlik, moslashuvchanlik, egiluvchanlikni rivojlantirish hamda kasbiy rivojlanish traektoriyasini mustaqil loyihalashda yaqqol ko‘rinadi. Agar mazkur qarama-qarshilikni bartaraf etish uchun maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachi-pedagoglarning kasbiy mobilligi oliy ta’lim muassasalarida tayyorlash

jarayonida shakllantirib borilsa, bu jarayon ularning bir kasbiy darajadan boshqasiga oson o'tishini ta'minlaydi. Bunda albatta bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachi-pedagoglarning kasbiy mobilligining qadriyatli-motivatsion, shaxsiy, faollik va kognitiv komponentlarini hisobga olish maqsadga muvofiq. Chunki har bir tarkibiy qism o'z mazmuniga egadir. Agar maktabgacha ta'lim tashkilotlari bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarning oliy ta'lim muassasalarida tayyorlash jarayonida kasbiy mobilligini shakllantirishda maktabgacha ta'lim tashkilotlari bilan birga uzviylikda ularning kasbiy professionalizmini shakllantirishning real hayotiy imkoniyatlari izlab topilsa, bu masalaga osonlikcha erishish mumkin. Chunki kasbiy tayyorlash jarayoni bilan maktabgacha ta'lim tashkilotlarining amaliy faoliyatida bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarning kasbiy mobilligini shakllantirishni ta'minlaydigan juda keng pedagogik shart-sharoitlar mavjud.

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha davlat va jamiyat talablariga muvofiq bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarning manfaatlariga mos keladigan maktabgacha ta'lim mazmunining ishlab chiqilishi bilan birga ularning oliy ta'lim muassasalarida kasbiy tayyorlash jarayonida kasbiy mobilligini shakllantirishni ta'minlaydigan boshlang'ich imkoniyat va yutuqlarini baholash imkonini beruvchi nazorat o'rnatilgan. Umuman olganda, bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarning maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatida o'zini kasbiy namoyon qilishi hamda zamonaviy jamiyatda o'zini qulay his qilishi, mehnat bozoridagi talabga javob berishi uchun yangi mehnat sharoitlariga tezda moslasha olishi ularning kasbiy mobilligini ta'minlovchi zaruriy shart bo'lib hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Дворецкая Ю.Ю. Психология профессиональной мобильности личности. 19.00.01 - Общая психология, психология личности и история психологии. Автореферат диссертации на соискание ученой степен и канд. пс.наук. Краснодар.2007.[http://irbis.gnpbu.ru/Aref\\_2007/DvoretskayaYu\\_Yu\\_2007.pdf](http://irbis.gnpbu.ru/Aref_2007/DvoretskayaYu_Yu_2007.pdf).

2. Зборовский Г. Е., Амбарова П. А. Мобилизация ресурсности научно-педагогического сообщества в российских вузах: от проблемы к концепции // Социологический журнал. 2023. Том. 29. № 1. С. 78-96.[https://www.isras.ru/index.php?page\\_id=2384&id=9415&type=ojs3\\_socjournal&jn=71](https://www.isras.ru/index.php?page_id=2384&id=9415&type=ojs3_socjournal&jn=71)
3. Никитина Е.А. Комплексное повторение учебного материала на основе опорной матрицы: интерактивные способы применения. Мир университетской науки: культура, образование. 2022;(10): 103-110. <https://doi.org/10.18522/2658-6983-2022-10-103-110>
4. Руткевич М. Н. Социальная дифференциация и интеграция // Вестник АН СССР. — 1991. — № 7.45-52.

## INGLIZ TILINI O‘RGATISHDA O‘QITISH STRATEGIYALARINING VAZIFASI

**Zaripova Aziza Shaxobiddinovna**

SamDCHTI tayanch doktoranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ingliz tilini o‘rgatishda o‘qitish strategiyalarining vazifalari va ularning ta‘lim jarayonidagi ahamiyati tahlil qilingan. Maqolada strategiyalarning o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishdagi o‘rni, shuningdek, ularni samarali qo‘llashning yo‘llari ko‘rib chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** til qobiliyatlarini rivojlantirish, motivatsiyani oshirish, shaxsiy yondashuvni ta‘minlash, muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish.

Ingliz tilini o‘rgatishda o‘qitish strategiyalarining asosiy vazifasi o‘quv jarayonini samarali tashkil qilish va o‘quvchilarning til qobiliyatlarini keng qamrovda rivojlantirishdan iborat. Ushbu strategiyalar quyidagi maqsadlarga xizmat qiladi:

1. Til qobiliyatlarini rivojlantirish: O‘quvchilarning tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozish kabi asosiy ko‘nikmalarini mustahkamlashga yordam beradi va motivatsiyani oshiradi. Qiziqarli va interaktiv usullar o‘quvchilarning o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi va ularni faol ishtirok etishga undaydi.

2. Shaxsiy yondashuvni ta‘minlash: Har bir o‘quvchining ehtiyojlari va qobiliyatlariga mos usullarni tanlash orqali individual rivojlanishni ta‘minlaydi va muloqot ko‘nikmalarini shakllantiradi. Amaliy mashqlar va guruh faoliyatlari orqali o‘quvchilarning og‘zaki va yozma muloqotda o‘z fikrlarini ifodalash qobiliyatini yaxshilaydi.

3. Ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish: Turli topshiriqlar va loyihalar orqali o‘quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlari va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini kuchaytiradi va madaniy farqlilikni anglashga yordam beradi. Ingliz tilini o‘rganish

jarayonida turli madaniyatlarni tanitish orqali o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, ingliz tilini o‘rgatishda o‘qitish strategiyalari o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu strategiyalar nafaqat tilni o‘rgatishning texnik jihatlarini qamrab oladi, balki o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish, muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishga ham xizmat qiladi. Shunday qilib, o‘qitish strategiyalari faqatgina til o‘rganish vositasi emas, balki o‘quvchilarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga yo‘naltirilgan keng qamrovli yondashuvdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Nunan, David. Language Teaching Methodology: A Textbook for Teachers. Prentice Hall, 1991.
2. Krashen, Stephen D. Principles and Practice in Second Language Acquisition. Pergamon, 1982.

## **MANTIQUIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHDA MATEMATIKADA QO‘LLANILADIGAN USULLAR VA METODLAR**

**Xursanova Zilola Mirzaxolmatoana**

Farg‘ona davlat universiteti Boshlang‘ich talim uslubiyeti kafedrası katta o‘qituvchisi

**Axmedova Dildora**

Boshlang‘ich ta‘lim va sport tarbiyaviy ishi yo‘nalishi 5-kurs talabasi

zilolahursanova1@gmail.com

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda matematikada qo‘llaniladigan usullar va metodlar tahlil qilinadi. Matematik ta‘limda mantiqiy fikrlashning o‘rni va ahamiyati, shuningdek, bu ko‘nikmalarni shakllantirishda qo‘llaniladigan turli pedagogik usullar (masalan, analitik, sintetik, induktiv, deduktiv yondashuvlar) ko‘rib chiqiladi. Maqolada mantiqiy fikrlashni shakllantirishda matematik masalalar, formulalar, geometriya va algebraik metodlar, hamda muammolarni hal qilish uchun o‘yinlar va mashqlar yordamida amalga oshiriladigan ta‘lim metodikasi batafsil yoritiladi. Ushbu metodlar mantiqiy fikrlashni faollashtiradi va o‘quvchilarning intellektual rivojlanishiga katta hissa qo‘shadi. Tadqiqot natijalari bo‘yicha, matematik metodlarni mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda samarali foydalanish bo‘yicha amaliy tavsiyalar taqdim etiladi.

**Kalit so‘zlar:** mantiqiy fikrlash, matematik usullar, ta‘lim metodikasi, pedagogik metodlar, analitik fikrlash, sintetik fikrlash, induktiv va deduktiv usullar, matematik masalalar, algebra va geometriya, o‘yinli metodlar, ta‘lim samaradorligi

Mantiqiy fikrlash – bu bilimlarni to‘g‘ri, aniq va izchil tarzda qabul qilish, tahlil qilish, sintez qilish, baholash va qarorlar qabul qilish qobiliyatidir. Ta‘lim jarayonida mantiqiy fikrlashning rivojlanishi o‘quvchilarning intellektual qobiliyatlari va bilimlarini chuqurlashtirishga yordam beradi. Ayniqsa, matematik ta‘limda mantiqiy fikrlashning o‘rni juda katta, chunki matematika o‘quvchilarga murakkab masalalarni hal qilishda tizimli va izchil yondashuvni talab qiladi. Matematik masalalar va

vazifalar mantiqiy fikrlashni rivojlantirish uchun eng samarali vosita bo‘lib, ular o‘quvchilarni yangi bilimlarni o‘zlashtirishda yuqori darajadagi analitik fikrlashga undaydi.

Matematikada qo‘llaniladigan turli usul va metodlar, jumladan, induktiv va deduktiv usullar, analitik va sintetik yondashuvlar, o‘quvchilarda mantiqiy fikrlashni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Bularning barchasi o‘quvchilarning matematik fikrlashini rivojlantirish va ularni o‘z bilimlarini amalda qo‘llashga yo‘naltirishga xizmat qiladi. Shuningdek, matematik o‘yinlar, mashqlar va interaktiv metodlar yordamida mantiqiy fikrlashni faollashtirish va o‘quv jarayonini yanada qiziqarli hamda samarali qilish mumkin.

Ushbu maqolada matematikada qo‘llaniladigan metodlar va usullarni tahlil qilish orqali, mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda qanday yondashuvlarning samarali ekanligi, shuningdek, pedagogik amaliyotda qanday qo‘llanilishini o‘rganish maqsad qilingan. Tadqiqot natijalari asosida, matematik metodlarni mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda qanday samarali qo‘llash mumkinligi bo‘yicha tavsiyalar beriladi.

Mazkur tadqiqotda mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda matematikada qo‘llaniladigan usul va metodlarning samaradorligini aniqlash uchun turli pedagogik yondashuvlar va metodlar o‘rganiladi. Mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda matematikaning o‘quv jarayonidagi o‘rni va ahamiyati katta bo‘lib, bu ko‘nikmalarni shakllantirish uchun quyidagi metodik yondashuvlar qo‘llaniladi:

- **Induktiv usul:** Bu usulda o‘quvchilar aniq misollar orqali umumiy qonuniyatlarga keladilar. Matematik masalalar va topshiriqlarni echish jarayonida o‘quvchilar amaliyotda fikrlash orqali umumiy qoidalarni topadilar. Bu metod o‘quvchilarda mustahkam mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi.

- **Deduktiv usul:** Bu yondashuvda umumiy qoidalardan kelib chiqqan holda aniq misollarni yechish yo‘li ko‘rsatiladi. O‘quvchilarga matematik formulalar va teoremlardan foydalanish orqali amaliy masalalarni yechish vazifasi beriladi. Deduktiv usul o‘quvchilarda tizimli fikrlashni shakllantiradi.

- **Analitik yondashuv:** Matematik masalalar yoki ifodalar bir nechta qismlarga ajratilib, har bir qismining xususiyatlari va bog‘liqligi tahlil qilinadi. Bu

metod, ayniqsa, algebra va geometriya fanlarida qo‘llaniladi va o‘quvchilarda masalaning har bir aspektini mustaqil tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

- **Sintetik yondashuv:** Bu usulda o‘quvchilar barcha qismlarni birlashtirib, umumiy yechimni topadilar. Sintetik metod orqali masalalarning umumiy yechimi yoki yechimlarining samarali usullari aniqlanadi.

- O‘yinli metodlar o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishda samarali vosita bo‘lishi mumkin. O‘yinlar va interaktiv mashqlar yordamida o‘quvchilarga matematik masalalarni qiziqarli va raqobatli tarzda hal qilish imkoniyatini yaratish mumkin. Bu metod, o‘quvchilarning kreativ fikrlashlarini faollashtiradi hamda mantiqiy tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

- Mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda matematik masalalar juda muhim rol o‘ynaydi. Matematik masalalarni yechish jarayonida o‘quvchilar o‘z fikrlarini izchil va mantiqan to‘g‘ri tarzda ifodalashadi. Har xil turdagi masalalar, jumladan, algebraik masalalar, geometriya, statistik va ehtimollik masalalari o‘quvchilarni tizimli fikrlashga undaydi.

- Mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda matematika mashqlari va sinovlari juda muhim o‘rinni egallaydi. Mashqlarni muntazam ravishda bajarish orqali o‘quvchilar mantiqiy fikrlashni rivojlantirib, matematikani o‘zlashtirishdagi qiyinchiliklarni yengib o‘tadilar. Sinovlar orqali o‘quvchilar o‘z bilim va ko‘nikmalarini amalda tekshirish imkoniga ega bo‘ladilar.

- Matematik masalalarni hal qilishda eksperimentlar va tajribalar o‘tkazish metodlari qo‘llanilishi mumkin. Bu usul orqali o‘quvchilar o‘zlarining matematik bilimlarini real hayotdagi vaziyatlarga tatbiq qilishadi, bu esa ularning mantiqiy fikrlashini rivojlantiradi.

Ushbu metodikalar orqali mantiqiy fikrlashni rivojlantirish uchun ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan matematik usullar va metodlar o‘quvchilarga fikrlashning turli usullarini o‘rganish va amaliyotda qo‘llash imkonini beradi. Har bir metodning samaradorligi o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga va ta’lim olish darajasiga qarab, alohida e’tiborga olinishi zarur.

**Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Piaget, J. **"The Psychology of Intelligence"**. London: Routledge, 2001.
2. Vygotsky, L. S. **"Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes"**. Cambridge: Harvard University Press, 1978.
3. Dewey, J. **"How We Think: A Restatement of the Relation of Reflective Thinking to the Educative Process"**. Boston: D.C. Heath, 1933.
4. Tikhomirov, V. O. **"Mantiqiy fikrlash va mantiqiy tahlil"**. Moskva: Pedagogika, 1984.
5. Asqarova, M. **"Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish metodikasi"**. Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2020.
6. Kolb, D. A. **"Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development"**. Englewood Cliffs: Prentice Hall, 1984.
7. G‘ofurov, Sh. **"Didaktik o‘yinlar va ular orqali ta’lim samaradorligini oshirish"**. Toshkent: Ma’naviyat, 2018.
8. Prensky, M. **"Digital Game-Based Learning"**. New York: McGraw-Hill, 2001.
9. Berkimov, K. **"Pedagogik o‘yin texnologiyalari"**. Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti, 2019.
10. Nazarov, Q. **"Innovatsion ta’lim texnologiyalari va o‘qitish metodikasi"**. Toshkent: O‘zbekiston Universiteti nashriyoti, 2021.
11. Ismoilova, L. **"O‘qituvchi kasbiy tayyorgarligida interaktiv metodlarning roli"**. Qarshi: Nasaf nashriyoti, 2019.
12. Salimova, D. **"Kasbiy ta’limda mantiqiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish"**. Toshkent: Fan va Ma’rifat, 2023.
13. Shakarova, S. **"Matematik ta’limda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish metodlari"**. Toshkent: Ziyo, 2021.

## **MATEMATIKAGA ASOSLANGAN KOMPLEKS YONDASHUV TEXNOLOGIYASINI AMALIY QO‘LLASH**

**Xursanova Zilola Mirzaxolmatoana**

Farg‘ona davlat universiteti Boshlangich talim uslubiyeti

kafedrası katta o‘qituvchisi

**Alijonova Nilufar**

Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 4-kurs talabasi

zilolahursanova1@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqola matematikaga asoslangan kompleks yondashuv texnologiyasining ta‘lim jarayonida samarali qo‘llanishi haqida tahlil qiladi. Kompleks yondashuv metodlari, matematik ta‘limda o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishda muhim vosita sifatida ko‘riladi. Maqolada matematik masalalar va amaliy mashqlar yordamida o‘quvchilarda tizimli va izchil fikrlashni shakllantirishning samarali usullari ko‘rsatilgan. Bunda, analitik va sintetik metodlar, induktiv va deduktiv yondashuvlar hamda interaktiv va o‘yinli metodlarning qo‘llanilishi alohida ta‘kidlanadi. Kompleks yondashuv orqali matematikani o‘rgatishda o‘quvchilarni faol ishtirok etishga undash, ularning ijodiy fikrlashini va problemalarni hal qilish qobiliyatini oshirish maqsad qilingan. Ushbu texnologiyaning ta‘limda qo‘llanilishi o‘quvchilarning matematik ko‘nikmalarini yanada mustahkamlashga, o‘z bilimlarini real vaziyatlarda qo‘llashga yordam beradi.

**Kalit so‘zlar:** Kompleks yondashuv, Matematik ta‘lim, Mantiqiy fikrlash, Pedagogik texnologiyalar, Analitik va sintetik metodlar, Induktiv va deduktiv usullar, O‘yinli metodlar.

Matematika – bu faqat raqamlar va formulalar bilan ishlashdan iborat emas, balki tizimli va mantiqiy fikrlashni rivojlantiruvchi fan sifatida o‘quvchilarni intellektual jihatdan shakllantiradi. Matematik ta‘limning maqsadi o‘quvchilarda nafaqat aniq hisob-kitob qobiliyatini, balki mantiqiy tahlil qilish, muammolarni

yechish va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini ham shakllantirishdir. Bunday ko‘nikmalarni rivojlantirishda kompleks yondashuv texnologiyasi alohida ahamiyatga ega.

Kompleks yondashuv – bu matematik ta’limda turli pedagogik metodlar, usullar va texnologiyalarni birlashtirishga asoslangan ta’lim jarayoni bo‘lib, o‘quvchilarning umumiy rivojlanishi va matematika faniga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishga yordam beradi. Ushbu yondashuvda analitik va sintetik fikrlash, induktiv va deduktiv usullar, shuningdek, interaktiv va o‘yinli metodlar qo‘llaniladi. Matematik masalalar, amaliy mashqlar va dasturlar yordamida o‘quvchilarga murakkab masalalarni hal qilishda yordam beriladi, bu esa ularning mantiqiy fikrlashini va problemlarni hal qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Mazkur maqolada matematikaga asoslangan kompleks yondashuv texnologiyasining o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishdagi o‘rni va ahamiyati, shuningdek, bu texnologiyaning amaliy qo‘llanilishi ko‘rsatiladi. Matematik ta’limda kompleks yondashuvning samarali qo‘llanilishi o‘quvchilarni faollashtirishga, ularning intellektual salohiyatini oshirishga, va ular o‘rgangan bilimlarni real hayotda qo‘llashga yordam beradi.

Matematikaga asoslangan kompleks yondashuv texnologiyasi – bu matematik ta’limda o‘quvchilarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish, ularni tizimli va izchil fikrlashga o‘rgatish, shuningdek, amaliy mashqlar va matematik masalalar orqali ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishni maqsad qilgan pedagogik metoddir. Kompleks yondashuv, o‘zida bir nechta yondashuv va metodlarni birlashtiradi, jumladan induktiv va deduktiv usullar, analitik va sintetik yondashuvlar, shuningdek interaktiv va o‘yinli metodlar.

Bu texnologiya orqali o‘quvchilar matematik masalalarni yechishda turli metodlarni qo‘llashni o‘rganadilar va har bir masalaning turli qismlarini tahlil qilish orqali yechim topishadi. Matematikada ko‘plab turdagi masalalar, jumladan algebra, geometriya, statistik va ehtimollik masalalari orqali o‘quvchilarda mantiqiy tahlil qilish va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish mumkin.

Kompleks yondashuvni qo'llashda ta'lim jarayonini interaktiv qilish, o'quvchilarni faol ishtirok etishga undash, ularning o'z bilimlarini amaliyotda qo'llashga yordam berish va har bir o'quvchining individual ehtiyojlarini hisobga olish muhim hisoblanadi. Ushbu texnologiyaning samarali qo'llanilishi nafaqat o'quvchilarning matematik bilimlarini mustahkamlashga, balki ularning umumiy intellektual salohiyatini oshirishga ham xizmat qiladi. Shuningdek, kompleks yondashuv, o'quvchilarning matematikaga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi va ta'lim jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi.

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Piaget, J. **"The Psychology of Intelligence"**. London: Routledge, 2001.
2. Vygotsky, L. S. **"Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes"**. Cambridge: Harvard University Press, 1978.
3. Dewey, J. **"How We Think: A Restatement of the Relation of Reflective Thinking to the Educative Process"**. Boston: D.C. Heath, 1933.
4. Asqarova, M. **"Kompleks yondashuv va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish"**. Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2021.
5. G'ofurov, Sh. **"Matematik ta'limda kompleks yondashuv"**. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti, 2020.
6. Kolb, D. A. **"Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development"**. Englewood Cliffs: Prentice Hall, 1984.
7. Shakarova, S. **"Matematikada kompleks yondashuvning o'rne"**. Toshkent: Ziyosiy, 2022.
8. Salimova, D. **"Kasbiy ta'limda kompleks yondashuvni qo'llash"**. Toshkent: Fan va Ma'rifat, 2023.
9. G'ulomov, A. **"Matematikada mantiqiy fikrlashni rivojlantirish metodlari"**. Toshkent: Sharq, 2021.
10. Nazarov, Q. **"Innovatsion ta'lim texnologiyalarining asoslari"**. Toshkent: O'zbekiston Universiteti nashriyoti, 2021.
11. Huizinga, J. **"Homo Ludens: A Study of the Play-Element in Culture"**. Boston: Beacon Press, 1950

## **BO‘LAJAK TARBIYA FANI O‘QITUVCHILARINING MANTIQUIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHDA O‘YINLI METODIKALAR**

**Xursanova Zilola Mirzaxolmatoana**

Farg‘ona davlat universiteti Boshlangich talim uslubiyeti kafedrası katta o‘qituvchisi  
zilolahursanova1@gmail.com

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchilarining mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda o‘yinli metodikalarning roli va ahamiyati yoritilgan. Pedagogik faoliyatda mantiqiy fikrlashning asosiy jihatlari, tarbiyachining shaxsiy sifatlariga ta’siri va ularni shakllantirish bosqichlari tahlil qilingan. Tadqiqotda o‘yinli metodikalar vositasida ta’lim samaradorligini oshirish, o‘quv jarayonida kreativ va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish imkoniyatlari ko‘rsatib o‘tilgan. Shuningdek, o‘yinli metodlarning nazariy asoslari va amaliy qo‘llanilish yo‘llari bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligida alohida ahamiyatga ega ekani qayd etilgan. Ushbu maqola ta’lim jarayonida innovatsion yondashuvlarni joriy qilishga qaratilgan tavsiyalarni ham o‘z ichiga oladi.

**Kalit so‘zlar:** mantiqiy fikrlash, o‘yinli metodikalar, bo‘lajak o‘qituvchilar, pedagogik faoliyat, kreativ fikrlash, tanqidiy fikrlash, kasbiy tayyorgarlik, innovatsion yondashuvlar, o‘quv jarayoni, ta’lim samaradorligi

Bugungi kunda ta’lim sohasida bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini oshirish dolzarb masalalardan biri bo‘lib, bu jarayonda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mantiqiy fikrlash o‘qituvchining pedagogik faoliyatida muhim o‘rin tutib, muammolarni hal qilish, ta’lim jarayonini samarali tashkil etish va innovatsion yondashuvlarni qo‘llash imkonini beradi.

O‘yinli metodikalar bo‘lajak o‘qituvchilarning mantiqiy va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali vosita sifatida ko‘rib chiqiladi. Ushbu metodikalar ta’lim jarayonini qiziqarli va interaktiv shaklda tashkil etib, o‘quvchilarni faol ishtirok etishga rag‘batlantiradi va ularda tanqidiy yondashuvni

shakllantiradi. Shu bois, mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda o‘yinli yondashuvlarning nazariy asoslarini o‘rganish va amaliyotda qo‘llash masalasi zamonaviy pedagogikada dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Mazkur tadqiqotda bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchilarining mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishda o‘yinli metodikalarning mohiyati, pedagogik imkoniyatlari va samaradorligi o‘rganiladi. Shuningdek, ushbu yondashuvlarning ta‘lim jarayoniga joriy etilishi bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Mazkur tadqiqot bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchilarining mantiqiy fikrlashini rivojlantirishda o‘yinli metodikalarni qo‘llashga oid ilmiy asoslarni aniqlash va amaliy yondashuvlarni ishlab chiqishga qaratilgan. Tadqiqotda quyidagi metodologik yondashuvlar va usullar qo‘llanildi:

- **Adabiyot tahlili:** Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish va o‘yinli metodikalarga oid ilmiy-adabiy manbalar, maqolalar va darsliklar o‘rganildi.
- **Nazariy umumlashtirish:** Tadqiqot mavzusiga oid mavjud ilmiy yondashuvlar va konsepsiyalar tahlil qilinib, ularning o‘qituvchilar tayyorgarligida ahamiyati belgilandi.
- **Modellashtirish:** O‘yinli metodikalarni ta‘lim jarayoniga joriy etishning nazariy modeli ishlab chiqildi.
- **Kuzatish:** Bo‘lajak o‘qituvchilar ishtirokidagi o‘quv mashg‘ulotlarida o‘yinli metodikalarni qo‘llash jarayonlari kuzatilib, samaradorligi baholandi.
- **So‘rovnoma va intervyu:** Ishtirokchilardan fikr va mulohazalar olish maqsadida maxsus savollar tuzilib, ma‘lumotlar yig‘ildi.
- **Eksperiment:** Tadqiqot davomida tajribaviy va nazorat guruhlari tashkil qilinib, o‘yinli metodikalar mantiqiy fikrlashga qanday ta‘sir qilishini o‘rganish bo‘yicha mashg‘ulotlar o‘tkazildi.
- **Ma‘lumotlarni qayta ishlash:** So‘rovnoma va eksperiment natijalari statistik usullar yordamida qayta ishlanib, o‘yinli metodikalarning ta‘lim samaradorligiga ta‘siri aniqlandi.
- **Solishtirma tahlil:** Eksperimentdan avval va keyingi natijalar taqqoslanib, o‘yinli metodlarning mantiqiy fikrlash ko‘nikmalariga ta‘siri baholandi.

○ **Gamifikatsiya elementlari:** O‘yinli metodikalarni ishlab chiqishda zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan (masalan, raqamli o‘yinlar, interaktiv platformalar) foydalanildi.

○ **Kontekstual o‘yinlar:** Bo‘lajak o‘qituvchilar uchun kasbiy vaziyatlarga moslashtirilgan o‘yinli topshiriqlar ishlab chiqildi.

Ushbu metodologik yondashuvlar tadqiqot natijalarini aniq va ishonchli olish, shuningdek, bo‘lajak o‘qituvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishda o‘yinli metodikalar samaradorligini asoslashga imkon berdi.

### **Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Vygotsky, L. S. "Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes". Cambridge: Harvard University Press, 1978.
2. Piaget, J. "The Psychology of Intelligence". London: Routledge, 2001.
3. Dewey, J. "How We Think: A Restatement of the Relation of Reflective Thinking to the Educative Process". Boston: D.C. Heath, 1933.
4. Huizinga, J. "Homo Ludens: A Study of the Play-Element in Culture". Boston: Beacon Press, 1950.
5. Berkimov, K. "Pedagogik o‘yin texnologiyalari". Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti, 2019.
6. Asqarova, M. "Mantiqiy fikrlash va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish metodikasi". Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2020.
7. Kulyashova, N. "O‘yinli metodikalarning pedagogik ta’limdagi roli". Toshkent: Ilm Ziyo nashriyoti, 2022.
8. Kolb, D. A. "Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development". Englewood Cliffs: Prentice Hall, 1984.
9. G‘ofurov, Sh. "Didaktik o‘yinlar va ular orqali ta’lim samaradorligini oshirish". Toshkent: Ma’naviyat, 2018.
10. Prensky, M. "Digital Game-Based Learning". New York: McGraw-Hill, 2001.

11. Nazarov, Q. "Innovatsion ta'lim texnologiyalari va o'qitish metodikasi". Toshkent: O'zbekiston Universiteti nashriyoti, 2021.
12. Jorayev, F. "Tarbiya fanlari uchun zamonaviy pedagogik yondashuvlar". Samarqand: Zarafshon, 2020.
13. WHO (World Health Organization). "Learning Through Play: Effective Strategies in Education", 2021.
14. Salimova, D. "Kasbiy ta'limda mantiqiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish". Toshkent: Fan va Ma'rifat, 2023.
15. Ismoilova, L. "O'qituvchi kasbiy tayyorgarligida interaktiv metodlarning roli". Qarshi: Nasaf nashriyoti, 2019.

## **O‘SMIRLAR VA KATTALARDA AGRESSIV MUNOSABATNING PAYDO BO‘LISHI**

**Zoxidova Mashhura Botirxonovna**

Qashqadaryo viloyati, Qarshi tumani 22-maktab amaliyotchi psixologi

**Annotatsiya:** O‘smirlik davrida bo‘ladigan o‘zgarishlar va shu jarayonda o‘smirlar, kattalar munosabatlaridagi agressivlik ochib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** O‘smir, shaxslararo munosabatlar, ta‘lim tarbiya, xulqidagi o‘zgarishlar, o‘smirlik yoshi, muloqot.

O‘smirda psixik jarayonlarning keskin o‘zgarishi bilan aqliy faoliyatida ham burilishlar seziladi. Shuning uchun shaxslararo munosabatda, o‘quvchi bilan o‘qituvchi muloqotida, kattalar bilan o‘smirlarning muomalasida qat‘iy o‘zgarishlar jarayonida qiyinchiliklar paydo bo‘ladi. Bular avvalo ta‘lim jarayonida ro‘y beradi: yangi axborot, ma‘lumotlarni bayon qilish shakli, uslubi va usullari o‘smirni qoniqtirmay qo‘yadi. Odobli, dilkash o‘smir kutilmaganda qaysar, intizomsiz, qo‘pol, serzarda bo‘lib qoladi.

O‘smir xulqidagi bunday o‘zgarishlar tajribasiz o‘qituvchi va ota-onasini qattiq tashvishga soladi. Xo‘sh, o‘smirlarning psixik o‘tishini xarakterga keltiruvchi kuch nima? O‘smirning psixik o‘sishini xarakterga keltiruvchi kuch - uning faoliyatini vujudga keltirgan yangi ehtiyojlar bilan ularni qondirish imkoniyatlari o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar tizimining namoyon bo‘lishidir. Vujudga kelgan ziddiyatlarni psixologik kamolotni tahminlash, faoliyat turlarini murakkablashtirish orqali o‘smir shaxsida yangi psixologik fazilatlar tarkib toptirish bilan asta-sekin yo‘qotish mumkin. O‘smirda ro‘y beradigan biologik-jismoniy o‘zgarish natijasida uning psixik dunyosida tub burilish nuqtasi vujudga keladi.

O‘smir o‘zining qobiliyati va kuchini to‘g‘ri baholamay turib, murakkab hayotiy masalalarni hal qilishga urinadi, ammo fikr yuritish qobiliyati yuzaki bo‘lganligi sababli kundalik hayotida qator kamchiliklarga yo‘l qo‘yadi. Lekin u o‘z xatosini tan

olishdan ko‘ra kattalar bilan bahslashishni afzal ko‘radi. Tanqid qilgan kishilarni yoqtirmaydi, har bir tanqid go‘yoki uni mensimaslik belgisi, atayin qilinayotgan ish bo‘lib ko‘rinadi.

Buning natijasida o‘smirning psixik faoliyatida salbiy o‘zgarishlar yuzaga keladi. U mustaqil, o‘zboshimchalik bilan ish tutishga urinadi, kattalarning maslahatiga ehtibor bermaydi. Ayrim o‘smirlar o‘zining kattalar safiga qo‘shilganligini namoyish qilish uchun turli xil odatlarga o‘rgana boshlaydilar. Ota-onalar va pedagoglar o‘smirlar bilan alohida ishlab, ularning ko‘nglini topishi va xatti-harakatlarini o‘z vaqtida to‘g‘ri yo‘lga solishlari lozim.

O‘smirlik yoshi dunyoqarash, e‘tiqod, o‘zligini anglash, baholash kabilar shakllanadigan davr hisoblanadi. O‘smir o‘z faoliyatini muayyan prinsip, e‘tiqod va shaxsiy nuqtai nazari asosida tashkil qila boshlaydi. O‘smir o‘g‘il-qizlar shaxsining kamol topishida o‘zini anglash jarayonida o‘ziga baho berish mayli va istagi o‘zini boshqa shaxslar bilan taqqoslash, o‘ziga bino qo‘yish ehtiyoji paydo bo‘ladi. Bular esa o‘smirning psixik dunyosiga aqliy faoliyatiga, tevarak-atrofga munosabatning shakllanishiga ta’sir qiladi. O‘smirlik yoshida psixologik jihatdan eng muxim xislat - voyaga etish yoki kattalik hissining paydo bo‘lishi alohida hamiyatga ega.

Kattalik hissi ijtimoiy- axloqiy sohada, aqliy faoliyatda, qiziqishda, munosabatda, ko‘ngil olish jarayonida, xulq-atvorning tashqi shakllarida o‘z ifodasini topadi. O‘smir o‘z kuchi va quvvati, chidamliligi ortayotganini, bilim saviyasikengayayotganini anglay boshlaydi. O‘g‘il va qizlarning bu yoshda o‘rtoqlari bilan munosabatlarga intilishi, tengdoshlari jamoasining xayotiga qiziqishi erkin namoyon bo‘ladi. O‘quv fanlarning ko‘payishi, axborotlar. ma’lumotlar tarmog‘ining kengayishi ularning fikr yuritishini shakllantiradi.

O‘smir o‘quvchilar o‘rganayotgan fan asoslari ularning mavxum tafakkurini o‘stirishga qaratiladi. Ularning aqliy faoliyati xususiyatlaridan biri - mavxum tafakkurining rivojlanishidir. Maktab ta’limi va mustaqil bilim olish faoliyati ta’siri ostida o‘smirda analitik-sintetik faoliyat jadal sur’at bilan rivojlana boshlaydi. O‘smirning eng muhim xususiyatlardan yana biri mustaqil fikrlash, aqlning tanqidiyligi tez rivojlanishidir. Bu esa o‘smirning aqliy faoliyatida yangi davr

boshlanganini birdiradi. Aqlning tanqidiyligi ayrim xollarda o‘qituvchi bilan o‘quvchi o‘rtasida “anglashilmovchilik g‘ovi”ni vujudga keltiradi. Aqlning tanqidiyligi o‘smirning asosiy xususiyatlaridan biri bo‘lib, o‘zgalar mulohazasidan, darslikdan xato va kamchiliklar topishga, o‘z gapida turib, ayrim fikrlarga kat’iy e’tiroz bildirishga urinib va baxslashishiga moyil bo‘ladilar. Tafakkurning mustaqilligi inson uchun katta ahamiyatga ega.

O‘qituvchi dars jarayonida va darslardan tashqari vaqtlarda, har qanday og‘ir shart-sharoitlarda ham turli usullar bilan bu xislatni qo‘llab kuvvatlashi, uning rivojlanishi uchun imkoniyat yaratishi kerak. “Endi u bola emas—u, hali katta ham emas”—bu formula o‘smirlik davri xarakterini bildiradi. Bu yoshda o‘smir rivojida keskin o‘zgarishlar ro‘y bera boshlaydi. Bu o‘zgarishlar fiziologik, hamda psixologik o‘zgarishlardir.

Kattalarga nisbatan agressiv munosabatning paydo bo‘lishi, negativizm singari nohush xulq—atvor alomatlari o‘z—o‘zidan kelib chiqadigan bevosita jinsiy etilish tufayli paydo bo‘ladigan belgilar bo‘lmay, balki ular bilvosita ta’sir ko‘rsatadigan o‘smir yashaydigan ijtimoiy shart—sharoitlar vositasi orqali: uning tengdoshlari, turli jamoalardagi mavqei tufayli, kattalar bilan munosabati, maktab va oilasidagi o‘rni munosabatlari sababli yuzaga keladigan xarakter belgilaridir.

Mana shu ijtimoiy sharoitlarni o‘zgartirish yo‘li bilan o‘smirlarning hulq—atvoriga to‘g‘ridan—to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatish mumkin. O‘smirlar nihoyatda taqlidchan bo‘lib, ularda hali aniq bir fikr, dunyo qarash shakllanmagan bo‘ladi. Ular tashqi ta’sirlarga va hissiyotlarga juda beriluvchan bo‘ladilar. Shuningdek ularga mardlik, jasurlik, tantiqlik ham xosdir. Tashqi ta’sirlarga beriluvchanlik o‘smirda shaxsiy fikrni yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi, lekin bu shaxsiy fikr aksariyat xollarda asoslanmagan bo‘ladi. SHuning uchun ham ular ota—onalarning, atrofdagi kattalarning shuningdek, ustozlarning to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatishlariga qaramay o‘z fikrlarini o‘tkazishga harakat qiladilar.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o‘smirlarning ota—onasi, kattalar bilan qiladigan muloqoti asosan ularning katta bo‘lganlik hissi asosida tuzilgan bo‘ladi. Ular kattalar tomonidan qilinadigan haq—huquqlarini cheklashlariga, qarshilik va

e'tirozlariga qattiq qayg'uradilar. Lekin shunga qaramasdan u muloqotda kattalarning qo'llab-quvvatlashlariga ehtiyoj sezadilar. Birgalikdagi faoliyat o'smirga kattalarni yaxshiroq tushinishlari uchun yordam beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Niyazmetova G. Shaxsni o'rganish metodikalari.-T.: 2000
2. Rasulov A.I. Psixodiagnostika.-Toshkent, Mumtoz so'z nashriyoti, 2010
3. Raximov X. Oila – mustahkam jamiyatning mustahkam negizi. – Toshkent: 2006

## **JADIDCHILIKNING YORQIN NAMOYANDASI ABDULLA AVLONIY**

**Turayeva Dilafruz Rustamboyevna**

Toshkent xalqaro kimyo universiteti, «Pedagogika va psixologiya» kafedrası dotsenti

**Zorlikova Maftuna**

Toshkent xalqaro kimyo universiteti, Boshlang‘ich ta‘lim

yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada yuqorida keltirilgan mavzu yuzasidan batafsil ma‘lumotlar beriladi. Ularga yetuk saviyali jadidchi Abdulla Avloniyning jadidchilikka qo‘shgan ulkan hissasi, ular nimalardan iboratligi, yashab o‘tkan yillari, tarjimai holi, xalq tafakkurini yaxshilash uchun qilgan say-harakatlari, zamonning qiyin vaziyatlarida ham yoshlar ta‘limi uchun olib borilgan ilmiy ishlari yuzasidan so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** jadidlar, turkiston, taraqqiyparvarlar, degrez, adabiyot xrestomatiyasi, ilm, she‘riyat, pedagogika, tarbiya.

**Annotation:** This article provides detailed information on the topic mentioned above. It discusses the significant contributions of the distinguished Jadid thinker Abdulla Avloniy to the Jadid movement, including the nature of his contributions, his biography, the years he lived, and his efforts to enhance public awareness. The article also highlights his scientific work dedicated to educating the youth, even during the challenging circumstances of his time.

**Keywords:** Jadids, Turkestan, progressives, blacksmith, literature anthology, science, poetry, pedagogy, upbringing.

Abdulla Avloniy o‘zbek milliy madaniyatining rivojida muhim rol o‘ynagan shaxs bo‘lib, u XIX asr oxiri va XX asr boshida faoliyat yuritgan. Ma‘rifatparvar va jadidchi sifatida u qiziqishlarni rivojlantirish, ijtimoiy adolatsizliklarga qarshi kurash va o‘zbek tilini o‘rgatish borasida ko‘plab asarlar yozgan. Uning dramalarida va

she'rlarida milliy identitet va qadriyatlar tasvirlangan bo'lib, u o'z davrida ta'lim va madaniyat taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan kishi sifatida tanilgan.

Jadidchilik harakati namoyandalari ko'pincha o'zlarini taraqqiyparvarlar, keyinchalik jadidlar deb atashgan. O'sha davrning ilg'or taraqqiyparvar kuchlari, birinchi navbatda, ziyolilar mahalliy aholining umumjahon taraqqiyotidan orqada qolayotganligini his etib, jamiyatni isloh qilish zaruriyatini tushunib yetgandilar.

Avloniy, to'liq ismi bilan Abdulla Avloniy, 1878-yil 12-iyulda Toshkentda tug'ilgan va o'zining serqirra faoliyati bilan O'zbekiston adabiyoti va ma'rifatida alohida o'rin egallagan shaxsdir. U yoshlik yillarida turli kasblar bilan shug'ullanib, "Imoratchi usta" nomini olgan. 12 yoshida madrasada ta'lim olishni boshlagan va yozgi davrlarda mardikorlik qilib oilasiga yordam bergan. 14 yoshidan esa she'r yozishga qiziqib, ijod bilan shug'ullanishni boshlagan.

O'qish davrida Avloniy Orenburg, Qozon va Tiflida chop etiladigan gazeta va jurnallarni kuzatib, zamonaviy bilimlar va jadidchilik g'oyalari bilan tanish bo'lgan. XX asr boshlarida u jadidchilik harakatiga qo'shilib, ma'rifatparvarlik va adabiyot sohasida faoliyat olib borgan. Avloniy nafaqat o'z davrining ilg'or g'oyalari targ'ibotchisi, balki yosh avlodni ma'rifat yo'lida tarbiyalashga katta e'tibor qaratgan ulug' shaxs sifatida tarixda qolgan. Toshkentdagi jadidlarning faol ishtirokchilaridan biri sifatida tanilib, 1906-yildan she'rlari bilan matbuotda qatnasha boshlagan. Arab, fors, rus tillarini o'rganib, bu tillarda ijod qilgan mutafakkirlarning asarlarini o'qigan, ba'zilar (masalan, Lev Tolstoy, Konstantin Ushinskiy asarlari) ni o'zbek tiliga tarjima qilgan. 1906-yilda „Taraqqiy“, 1907-yilda o'z uyida „Shuhrat“ gazetalarini chiqargan. Bu gazetalar yopib qo'yilgach, 1908-yilda yashirin ravishda „Osiyo“ gazetasini nashr etdi. 6-sonidan so'ng hukumat bu gazetani ham taqiqlab qo'ygan. Avloniy birinchi bo'lib kimyo, geografiya, fizika va astronomiya fanlarini maktabda o'qitish taklifini beradi. Ilg'or g'oyalarni maktab orqali xalqqa tarqatishga harakat qildi. Toshkent shahrining Mirobod mahallasida mahalliy aholi bolalari uchun yangi usul maktabi ochib (1908), o'zi ona tili va adabiyotdan dars berdi. 1909-yilda „Jamiyati xayriya“ tuzib, yetim bolalarni o'qitgan. Shu yili „Adabiyot yoxud milliy she'rlar“ nomli to'rt qismdan iborat she'riy to'plamining birinchi juz'ini nashr

ettirgan. 1912-yilda Avloniy Toshkentning Degrez mahallasida ikki sinfli maktab ochgan. Bu maktabda dunyoviy fanlar o‘qitilishi bilan maktabxonalardan farq qilgan. Avloniy, yangi maktablar uchun ko‘plab qo‘llanma va o‘qish kitoblarini yozgan hamda nashr qilgan, shu jumladan "Birinchi muallim" va "Maktab gulistoni" kabi asarlar yaratgan. U taraqqiyotchilar bilan birga "Nashriyot" va "Maktab" shirkatlarini tashkil etgan, shuningdek, teatr san'atidan foydalanib, 1913-yilda "Turkiston" teatr gruppasini tuzgan va u orqali XX asr boshidagi Turkiston hayotini sahnaga chiqarish uchun bir qancha asarlarni tarjima qilgan va sahnalashtirgan. Dastlabki erkinlik va'dalari amalga oshmaganidan so‘ng, Avloniyning ijodida tushkunlik kayfiyatlari paydo bo‘lgan.

Avloniy 1917-yilda "Turon" gazetasini nashr qilib, siyosiy va ijtimoiy voqealarni yoritgan, so‘ngra 1918-yilda "Ishtirokiyun" gazetasini tashkil etib, uning muharriri bo‘lgan. 1919-1920-yillarda Sho‘ro hukumatining Afg‘onistondagi siyosiy vakili sifatida faoliyat yuritgan va Afg‘oniston xalq ta‘limi vaziri lavozimida xizmat qilgan. 1921-yildan so‘ng, xalqni savodxon qilish va o‘zbek xotin-qizlarini o‘qitish ishlariga qaratilgan kuchli tashabbuslar ko‘rsatgan, shuningdek, bir qancha o‘quv muassasalarida mudir va o‘qituvchi sifatida faoliyat yuritib, 1933-yilda o‘zbek maktablarining 7-sinfi uchun "Adabiyot xrestomatiyasi"ni tuzib nashr qilgan. Avloniy, shuningdek, tanqidiy va ilmiy maqolalar, 4000 misradan ortiq she‘r ijod qilgan, u o‘z asarlarida Hijron, Nabil, Indamas kabi taxalluslarni ishlatgan.

Avloniy o‘z faoliyatida ko‘plab badiiy va ilmiy asarlar yaratgan, jumladan, "Advokatlik osonmi" (1914), "Pinak" (1916), "Biz va siz" (1917), va "Bo‘ron" kabi pesalar, "Tulki ila qarg‘a" masali, "Vatan" (1916), "Maktab", "Bog‘cha" kabi she‘rlar bilan o‘z ijodini kengaytirdi. Shuningdek, u "Maqsad va maslak" va "Holimizga doir" kabi maqolalar, "Hasad balosi" majoziy hikoyasini yaratgan. Avloniy ushbu asarlarda o‘z zamonasining ijtimoiy muammolari va xalq hayoti ko‘lamini aks ettirishni maqsad qilgan.

Avloniy Toshkentda 1934-yil 25-avgustda 56 yoshida vafot etgan va Botkin ko‘chasidagi qabristonga dafn qilingan. Abdulla Avloniy qatag‘on qilinmasdan va xalq dushmani sifatida qaralmaganiga qaramay, 1966-yilgacha uning ijodi chuqur

o'rganilmagan, o'limidan keyin ham asarlari chop etilmagan. Avloniy ijodini Begali Qosimov tadqiq etib, "Abdulla Avloniy" asarini yozgan. 1968-yilda uning yodgorlik uy-muzeyi tashkil etilgan hamda Toshkentda uning nomiga ko'cha, ikki mahalla, madaniyat uyi, va milliy-tadqiqot instituti ajratilgan. 2019-yilda "Avloniy" filmi premyerasi bo'lib o'tdi, shuningdek, taniqli shoir Muhammad Ali o'z "Boqiy dunyo" she'riy romanida Avloniy obrazini kiritgan. Toshkentda esa Adiblar xiyobonida Avloniy haykali o'rnatilgan.

Avloniy 1927-yilda Mehnat Qahramoni unvoniga sazovor bo'lgan va bu yuqori e'tirof uning ijtimoiy va madaniy faoliyatini qadrlashning bir ifodasi sifatida ko'riladi. Shuningdek, 2020-yilda "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan taqdirlanishi, uning hayoti davomida amalga oshirgan ulkan mehnati va O'zbekiston ta'lim va madaniyatida qoldirgan izlarini tan olishni anglatadi.

**Xulosa:** Ushbu mavzu yuzasidan o'z xulosamni bildirar ekanman, Abdulla Avloniy o'zbek adabiyoti va ma'rifatining yorqin namoyandasi bo'lib, uning hayoti va faoliyati milliy uyg'onish davriga to'g'ri keldi. Uning asarlari o'zbek tilini rivojlantirish, milliy madaniyatni qayta tiklash va yangi avlodni tarbiyalashga qaratilgan edi. Avloniy zamonaviy pedagogika g'oyalarini o'zbek sharoitiga moslashtirishga harakat qilib, maktab islohoti va yangi o'quv dasturlarini yaratishga katta hissa qo'shdi. Uning "O'zbek tili" darsligi o'zbek tilining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Shu bilan birga, u o'zining badiiy asarlari orqali o'zbek xalqining turmush tarzini, urf-odatlarini va milliy qadriyatlarini aks ettirdi. Avloniyning ijodi va faoliyati o'zbek milliy ongiga chuqur ta'sir ko'rsatgan va hozirgi kungacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Uning merosi milliy madaniyatimizning bebaho boyligidir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. N. To'xliyev va boshqalar. Toshkent ensiklopediyasi. Toshkent: „O'zbekiston milliy ensiklopediyasi“ davlat ilmiy nashriyoti, 2009. 784-bet.
2. Oltinbek Olim. “Jadid adabiyoti namoyondalari” Abdulla Avloniy. „Zabarjad media“, 2022 — 432-bet.

3. Barakayev.R. “O‘zbek bolalar adabiyoti va Abdulla Avloniy ijodi” Toshkent- fan, 2004. 56-62 bet.
4. Karim Bahodir. “Avloniy ziyosi” TIL VA ADABIYOT TA’LIMI jurnali, 2020-yil 7-son, 2-3 bet.
5. Qosimov.B “Abdulla Avloniy” –Toshkent 1979. 23-24 bet.

## **РОЛЕВЫЕ ИГРЫ ПРИ ИЗУЧЕНИИ СОНЕТОВ ШЕКСПИРА**

**Курбонов Дониёрбек Кахрамонович**

Преподаватель Андиганского филиала Кокандского университета

Сонеты Шекспира представляют собой не просто литературные шедевры, но и «ключ к пониманию человека» [5]. Их актуальность в системе современного образования велика, поскольку они развивают эмоциональный интеллект, помогают лучше понимать человеческие взаимоотношения и формируют эстетический вкус [1]. Тем не менее, насыщенный метафорами и образными выражениями язык Шекспира представляет для школьников определённые трудности [4]. Часто сонеты воспринимаются как архаичные и сложные для понимания, что снижает интерес к изучению классической литературы.

Традиционные методы преподавания литературы, такие как лекции и текстовый анализ, не всегда эффективны для глубинного освоения сонетов. Ученики часто остаются пассивными слушателями и не проникаются эмоциональной глубиной произведений [2]. В этой связи встает вопрос поиска новых подходов, которые смогли бы активизировать познавательную деятельность, стимулировать личностное развитие и развитие творческих способностей учащихся.

Один из эффективных методов – ролевые игры, которые представляют собой моделирование ситуаций, где учащиеся принимают на себя определенные роли и взаимодействуют друг с другом в их рамках [3]. В контексте изучения сонетов Шекспира ролевые игры помогают учащимся прочувствовать произведение на собственном опыте, эмоционально откликнуться на переживания персонажей, а также глубже понять их поступки и мотивы. Вместо того чтобы быть лишь наблюдателями, школьники становятся активными участниками литературного процесса, что значительно обогащает их восприятие.

Настоящее исследование направлено на выявление эффективности использования ролевых игр при изучении сонетов Шекспира. В исследовании ставятся следующие задачи: описать методику проведения ролевых игр на уроках литературы, проанализировать их влияние на уровень понимания текстов и определить возможные ограничения применения метода.

Xulosa o'rnida shuni aytishim mumkinki, Sharq taraqqiyotida ilm fan tarbiya bilan uzviy ravishda rivojlangan. Uni bir biridan ayro qilish mumkin emas. Shu o'rinda Sharq mutafakkirlarining aksariyat qismi ilmni tarbiya bilan bog'laydi. Va buning natijasi ularning kitoblarida yaqqol sezilib turadi. Bugungi kunda esa biz yoshlar ajdodlarimizdan qolgan madaniy me'rosimizni chuqur o'rganib, ularga hamohang ravishda tarbiyani ham yuksak darajada qo'ymog'imiz lozim. Shuning uchun ta'lim muassasalarida mutafakkirlarimiz qoldirgan madaniy boy me'roslarimiz bo'lgan kitoblarni ko'paytirishimiz, va o'qitilayotgan fan darsliklarimizga kiritishimiz lozim deb hisoblayman.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqi [//http://www.press-servis.uz/list/view/](http://www.press-servis.uz/list/view/).
2. M.Ergasheva. Ta'lim falsafasi. O'quv qo'llanma.Samarqand – 2022.
3. S.Karimov.Sharq tafakkuri va jamiyat taraqqiyoti.Monografiya.Samarqand-2019

## **QUTLIBEKA RAHIMBOYEVA IJODIDA SHE’R TIZIMI MASALASI**

**Bozorova E’zoza Baxriddin qizi**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

2-bosqich tayanch doktoranti

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada “vazn” va “she’r tizimi” tushunchalariga alohida ahamiyat qaratilgan. Bu ikki termin o‘rtasidagi farq qiluvchi jihatlar tushuntirilgan. Shoira Qutlibeka Rahimboyevaning lirik asarlari tuzilishiga ko‘ra o‘rganilgan. Barmoq hamda erkin she’r tizimidagi asarlari tahlil va tasnif qilingan.

**Kalit so‘zlar.** She’r tizimi, vazn, o‘zbek adabiyoti, aruz, barmoq, erkin, sarbast, tur, bo‘g‘in, ritm.

Adabiyotshunoslik ilmida lirik asarlar tuzilishini tadqiq etish asosiy masalalardan biri sanaladi. Boisi she’rning tuzilishi, bandlari, bo‘g‘inlar soni ijodkor qalbidagi kechinmalarga uzviy bog‘liq. Shu jihatdan, ushbu maqolada Qutlibeka Rahimboyeva she’riyatiga e’tiborimizni qaratdik. Shoira she’rlarining tuzilishi, vaznlari haqida to‘xtalishdan oldin, o‘zbek she’riyatida “vazn” so‘zini qo‘llashda noto‘g‘ri yondashuv mavjudligini aytib o‘tish joiz. Bu termin she’r tizimi ma’nosida ham, alohida bir she’rning o‘lchovi ma’nosida ham ishlatiladi. Adabiyotshunos D.Quronov bunday chalkashliklarni bartaraf etish maqsadida “vazn” so‘ziga quyidagicha ta’rif bergan: “...konkret she’rda namoyon bo‘ladigan hodisa, u konkret she’rning o‘lchovini bildiradi” [1, B.330]. Olim “vazn” so‘zini izohlar ekan, uni vaznlar sistemasini o‘zida jamlagan, “she’r tuzilishining asosiy qonuniyatlarini belgilab beradi”gan [1, B.331] “she’r tizimi” tushunchasidan farqlash lozimligini alohida ta’kidlaydi.

Hozirgi o‘zbek adabiyotida she’r tizimlarining aruz, barmoq, erkin, sarbast kabi asosiy turlari bor. Aruz tizimi sharq she’riyati, xususan, o‘zbek mumtoz adabiyotida yetakchi mavqega ega bo‘lib, hozirgi adabiy jarayonda nafaol qo‘llaniladi. Bu tizim hijolarning (turkiy aruz xususiyatlariga ko‘ra bo‘g‘inga teng ritmik bo‘lak [1, B.

334]) qisqa-cho‘ziqligiga asoslangan metrik she‘r tizimidir. Qutlibeka Rahimboyeva lirikasida aruz tizimidagi she‘rlar uchramasa-da, mumtoz adabiyotga intilish, aruzga xos musiqiylikni ijodiga singdirish holati seziladi. Shoira qalbidagi mumtoz asarlarga bo‘lgan muhabbat tuyg‘usi she‘rlariga ham ko‘chgan. Quyidagi lirik asarning tuzilishi, ritmik bo‘linishi va qofiyalanish tizimiga e‘tibor qaratamiz:

Uyingizning / osmonida / hilol bo‘lib / porlayin, 15 (4+4+4+3)

Tunni haydab, / boshingizga / yulduzlarni / chorlayin. 15 (4+4+4+3)

Uyingizning / yonboshida / daraxt bo‘lib / o‘sayin, 15 (4+4+4+3)

Bevaqt kelgan / dovullarning / yo‘llarini / kesayin. 15 (4+4+4+3) [2, B. 26]

She‘rda so‘zlarning takrori folklorizm xususiyatlarini yodga solsa ham, ba‘zi ritmik bo‘laklar aruz vaznining ramal va hazaj bahriga mos tushishi, she‘rning masnaviy kabi qofiyalanishi lirik asarni mumtoz adabiyotga yaqinlashtiradi. Lekin aruz talablariga to‘laqonli javob bera olmaganligi uchun bu she‘rni barmoq vaznidagi she‘r deb baholaymiz. Shoira ijodida barmoq va erkin vazn yetakchilik qiladi. Barmoq tizimi “misralardagi bo‘g‘inlar sonining tengligiga asoslanadi” [1, B. 339]. Adabiyotshunos bobomiz Fitrat barmoq tizimini “milliy vazn” deb nomlaydi va quyidagi mulohazalarini bayon qiladi: “Milliy vaznimizda asos so‘z bo‘g‘imlarning sanog‘idir. Bir baytning birinchi misra‘i necha bo‘g‘im esa, ikkinchi misra‘i ham shuncha bo‘g‘im bo‘ladir” [3, B. 25].

Adabiyotshunos D.Quronovning “Adabiyot nazariyasi asoslari” kitobida keltirilishicha, barmoq she‘r tizimini 4 bo‘g‘inlidan 16 bo‘g‘inligacha vaznlardan tarkib topadi [1, B. 340]. Yuqoridagi 15 bo‘g‘inli she‘r Qutlibeka ijodidagi eng ko‘p bo‘g‘inli she‘r hisoblanadi. Shoira ijodida 14 va 13 bo‘g‘inli she‘rlar ham uchraydi. Ammo bunday vaznlar kam qo‘llanilgan. Qutlibeka Rahimboyeva she‘riyatida, asosan, 11, 9 va 7 bo‘g‘inli vaznlardan iborat lirik asarlar asosiy o‘rinni egallaydi. “Bo‘g‘inlar soni kam bo‘lgan vaznlarda o‘ynoqi, biroz shiddatli ohang yuzaga kelsa, buning ziddi o‘laroq, ko‘p bo‘g‘inli vaznlarda vazmin ohang hosil bo‘ladi” [1, B. 341]. Shoiraning 11 bo‘g‘inli she‘rlari 9 va 7 bo‘g‘inli she‘rlari bilan muqoyasa qilinganda, she‘rxonni o‘ylatuvchi mulohazalarga boyligi bilan ajralib turadi:

“Ketaman!” Yoniq so‘z / ichingdan chaqmoq – 11 (6+5)

Singari chiqadi / birdan otilib. 11 (6+5)

Bu xayol. Suvrat deb / tinch uyni buzmoq – 11 (6+5)

Bilasan, botirlik / emas, qotillik. 11 (6+5) [4, B. 14]

Qutlibekaning 11 bo‘g‘inli she‘rlari 2 turoqli (misralar ichidagi bo‘lak) bo‘lib, barcha she‘rlarida turoqlardagi bo‘g‘inlar soni bir xil takrorlanib keladi. Bo‘g‘in va turoqlardagi bir xillik bu vaznning shoira ruhiyatiga yaqin ekanligidan dalolatdir. Shoiraning 9 bo‘g‘inli she‘rlarida esa har-xil turoqlanish kuzatiladi:

Horiganda / hordiq yo‘q, aniq, 9 (4+5)

Mayda-chuyda / gapni tashlaymiz. 9 (4+5)

Mamlakatmiz. / Shu nomga loyiq, 9 (4+5)

Ulkan, kuchli / bo‘lib yashaymiz. 9 (4+5) [4, B. 33]

Yuqoridagi she‘r 2 turoqdan iborat bo‘lsa, meditatif janr tarkibiga kiruvchi quyidagi 9 bo‘g‘inli she‘r 3 turoqqa bo‘lingan. Shuning uchun ham she‘rning ritm va intonatsiyasi o‘ziga xos yoqimli jaranglaydi:

Boshimda / bir osmon / yulduz – sham, 9 (3+3+3)

Tong quyosh / berguncha / yonadi. 9 (3+3+3)

Oy shuncha / olisda / bo‘lsa ham, 9 (3+3+3)

Yuzimni / silaydi / onaday. 9 (3+3+3) [4, B. 25]

Qutlibekaning 7 bo‘g‘inli she‘rlarida jo‘shqinlik va quvonch hissi seziladi.

Bunday she‘rlar 2 turoqli, ammo turoqlar tarkibidagi bo‘g‘inlar soni o‘zgarib turadi:

Men kimman, / Muhabbatman, 7 (3+4)

Muzlamayman, / yonmayman. 7 (4+3)

Muhabbatsiz / kunlarga 7 (4+3)

O‘zimni / ishonmayman. 7 (3+4) [5, B. 134]

“Muhabbat” deb nomlangan bu she‘rning ba‘zi misralarida birinchi turoq 3 bo‘g‘inli bo‘lsa, yana ba‘zi misralarida 4 bo‘g‘inli ekanligini ko‘rish mumkin. Ushbu holat qisqa vaznli she‘rlarda kuzatilganligi uchun, barmoq tizimidagi she‘rning umumiy tuzilishi va ritmiga salbiy ta‘sir qilmaydi. Aksincha, turoqlar tarkibining almashinib turishi she‘rning o‘ynoqi ohangini yanada kuchaytiradi.

Yuqorida aytib o‘tilganidek, Qutlibeka Rahimboyeva she‘riyatida erkin tizimli lirik asarlar ham talaygina. “O‘zbek erkin she‘riga xos xususiyat shuki, unda misralardagi bo‘g‘inlar soni turlicha, ularning o‘zaro qofiyalanishi qat‘iy tartibda emas, biroq she‘r davomida o‘lchovlar teng bo‘laklar – bir yoki bir necha nav turoqlar erkin tarzda takrorlanishi hisobiga muayyan ritmiklik hosil qilinadi” [1, B. 346]. Quyida she‘rga e‘tibor qaratamiz:

Yaproq titrayverma 6

sal-pal shamolga. 5

Onangning bag‘rida 6

Yashayapsanku. 5

O‘zingniki onang turgan tuproq ham. 11

Atrofigda esa 6

Qish emas bahor. 5 [2, B. 19]

Keltirilgan she‘rdagi misralarda 2 xil bo‘g‘inli vazn takrorlanib kelgan. 5 va 6 bo‘g‘inlarning tartib bilan takrorlanishi barmoq tizimidagi qo‘shma vaznni ham eslatadi. Ammo qofiyalanishda tartib yo‘qligi bu she‘rni erkin vazn deyishimizga asos bo‘ladi. Shoira ijodining dastlabki yillarida erkin vaznda yozilgan she‘rlar keyingi yillar bilan solishtirganda nisbatan ko‘proq. “She‘riyat bag‘ri” asari ham Qutlibekaning ilk she‘riy to‘plamiga kiritilgan:

Qudratli bo‘ronni 6

cheksiz osmonni 5

va baland tog‘larni 6

sof buloqlarni 5

asov daryolar-u 6

orzu dunyoni 5

o‘ziga sig‘dira bilmagan yurak 11 (6+5)

kichik bir yurak 6

she‘riyat bag‘riga sig‘maydi sira, 11 (6+5)

sig‘maydi! 3 [6, B. 4]

Xulosa qilganda, Qutlibeka Rahimboyeva she’riyatida ruhiyatni uyg‘otuvchi go‘zal asarlar mujassam. Shoira ijodida aruz tizimida she’r yaratishga urinishlar bo‘lgan. Buni mumtoz adabiyotimizning zamonaviy she’riyatga ta’siri hamda shoiraning milliy she’riyatimizga muhabbati bilan izohlash mumkin. Uning lirikasida barmoq tizimidagi she’rlar katta qismni tashkil qiladi. Qutlibeka Rahimboyeva ijodining dastlabki yillarida e’lon qilingan she’rlari tarkibida erkin she’r tizimi ham ko‘p uchraydi. Ammo keyingi yillarda yana barmoq she’r tizimiga qaytish kuzatiladi. Bu esa shoira kechinmalarini barmoq vaznida yorqinroq ko‘rsatib bera olish qobiliyati bilan bog‘liq.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – B.480.
2. Qutlibeka Rahimboyeva. Uzun kunduzlar: She’rlar. – Toshkent: Adabiyot va san’at, 1984. – B.52.
3. Fitrat A. Adabiyot qoidalari // Fitrat. Tanlangan asarlar. 4 jild. 4-jild. – Toshkent: Ma’naviyat, 2006.
4. Qutlibeka Rahimboyeva. Uyg‘onish fasli: She’rlar, doston. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1989. – B.72.
5. Qutlibeka Rahimboyeva. Qorako‘zlarim: She’rlar, tarjimalar. – Toshkent: Adib, 2012. – B.168.
6. Qutlibeka Rahimboyeva. Yuragimda ko‘rganlarim: She’rlar. – Toshkent: Adabiyot va san’at, 1981. – B.48.

## EXPRESSION OF SIMILAR RELATION THROUGH SUPER SYNTACTIC INTEGRITY

**Shukhratova Yulduzkhon**

PhD student at Fergana State University

**Baxriddinova Muxlisa**

Student at Fergana State University

**Abstract:** This article examines the expression of the relationship of analogy across language levels using various linguistic means, which allows us to determine whether they have a unique system and provide information about their specific semantic and stylistic features.

**Keywords:** analogy, relationship, text, super syntactic whole, speech.

In world linguistics, many scientific studies have been conducted on the relationship of analogy. As a result of the analysis of the initial scientific studies, it was shown that the relationship of analogy has historically been approached as one of the most important methods of the cognitive process, a philosophical-logical category. Later, the emergence of structuralism in linguistics led to a new look at the study of the relationship of analogy. Thus, in a different approach to the study of the relationship of analogy, the main attention was paid to the study of its semantic process, the analysis and study of its means. In addition, the discovery that this relationship consists of several elements prompted the study of its unique expression in various language units.

Analogy is “based on the similarity between two objects or events, one of them expresses the sign, essence of the other more fully, more specifically, more vividly”. Similes, as one of the oldest figurative means, have been used to decorate our speech, especially the language of fiction, and to ensure the clarity and imagery of the image.

Initially, the largest syntactic unit in linguistics was considered to be a sentence, and later, in the 70s-80s of the 20th century, it was proven that there is a speech unit larger than a sentence - a microtext - a supersyntactic whole.

The text and its types were studied primarily by cognitive psychology as a socially communicative speech unit. Later, the development of cognitive linguistics became the basis for approaching it as a language unit. Brinker divides this study process into three stages:

1. The stage of studying the communicative-pragmatic properties of the text.
2. The stage of studying the topic (context) of the text.
3. The stage of studying the linguistic-stylistic properties of the text (syntactic3.1 -stylistic relations).

It was the research conducted by European and Russian linguists on text linguistics that became the main impetus for the development of this field in Uzbek linguistics.

The initial information about the text in Uzbek linguistics was the report on the theory of text made by G. Abdurakhmonov at the All-Union Scientific Conference of Turkologists held in Tashkent in 1980, which became the basis for the emergence of text linguistics in Uzbek linguistics. After that, the research conducted by such scientists as I. Rasulov, M. Askarova, A. Mamajonov, N. Turniyazov, M. Khakimov, M. Yuldashev, M. Kurbanova, M. Abdupattoev, D. Khudoiberganova, U. Nasirova contributed to the development of this field.

The research conducted expressed the idea that the content of the text, in particular, the comparative content, is also expressed through the supersyntactic whole, the large unit of the text.

In her scientific work on the anthropocentric study of the text, D. Khudoyberganova studied the linguistic-cultural characteristics of the texts and their place in the creation of the text.

“The text is the largest expression of speech with a specific complex syntactic structure, which in a broad sense represents a whole work, and in a narrow sense - a

supersyntactic whole.” Professor A. Mamajonov, in his research on text linguistics, states that the text consists of the following units:

- sentence;
- supersyntactic whole;
- paragraph;
- period.

A supersyntactic whole is a speech unit that is larger than a microtextual form of a sentence and smaller than a literary work. “Each supersyntactic whole is a miniature story that represents an event that has its own beginning, development and ending.” The first sentence of a supersyntactic whole is called the theme and it represents the main idea. The sentences in the supersyntactic whole are interconnected and reveal a certain semantic relationship. It has the following semantic relations, as in compound sentences: time-condition, condition-impedance, cause-effect, comparison-contrast, and analogy.

It is clear that in languages, the relationship of analogy can also be expressed through a super-syntactic unity. When the relationship of analogy is expressed through this unity, the properties of two objects are likened to each other.

### **References:**

1. Brinker K. Textstrukturanalyse. Halband. Walter de Gruyter: Berlin. - pp 80-85
2. Khudoiberganova D. Anthropocentric study of the text. – Tashkent: “Fan”. 2013. - P. 93-101.
3. Mamajonov A. Text linguistics – Tashkent, 1989. - 7p.
4. Shakarbekqizi, S. Y. (2021). Linguistic morphological means of expressing an analytic attitude. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(10), 1865-1868.
5. Shuxratova, Y. (2020, December). PROSE TEXTS AND THE CONCEPT OF SORROW OF SPEECH. In Конференции.
6. Шухратова, Ю. Ш. (2021). SIMILARITY AND COMPARISON IN COMPOUND SENTENCES. *Экономика и социум*, (5-1), 454-457.

## AKADEMIK LITSEY ALGEBRA KURSIDA IQTISODIY MASALALARNI YECHISH METODIKASI

**Xoliqulov Furqat Tirkashboyevich**

Mirzo Ulug’bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti  
akademik litseyi matematika fani bosh o’qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqola akademik litseylar I bosqich Algebra fan dasturiga kiritilgan tenglamalarni butun va natural sonlarda yechish (Diofant tenglamalari) mavzusini yoritishga qaratilgan. Sodda Diofant tenglamalari, ularni yechish metodikasi va mavzuga doir bir nechta masalalar ko’rib chiqilgan.

**Kalit so’zlar:** tenglama, chiziqli tenglama, noma’lum, ildiz, butun sonlar, Diofant tenglamalari, iqtisodiy masala.

Hozirgi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib dars o’tishdan asl maqsad - o’quvchilar bilimini faollashtirish va yangi mavzuni o’zlashtirishlari uchun test topshiriqlaridan va interfaol usullardan foydalanib dars o’tishdir. Bu masalaning asosiy g’oyasi va tarkibi akademik litsey o’quvchilariga har bir fandan o’z yo’nalishlariga bog’liq savollar va masalalar bilan dars o’tish hisoblanadi.

Akademik litseylarning Aniq fanlar-2 yo’nalishi algebra darslarida iqtisodiy masalalardan ko’proq foydalanish maqsadga muvofiq bo’ladi. Bunday masalalar o’quvchilarda o’z yo’nalishlariga bo’lgan qiziqishlarni yanada kuchaytiradi va matematika darslarini ham yaxshi o’zlashtirishlariga yordam beradi.

Respublikamizning bozor iqtisodiyoti sharoitiga o’tishida va uning kelgusi rivojlanishida har bir kishi, u yoki bu ma’noda iqtisodiy masalalarni tushuna olishi, ularni yechish usullarini bilishi kerak. Bu esa, eng avvalo, umumiy o’rta ta’lim maktablari va akademik litseylardan boshlanishi lozim. O’quvchilarga turli xildagi optimal masalalarni qo’yib, ularni yechish usullarini o’rgatish matematika darsliklarida kam uchraydi. Shuning uchun ham o’quvchilar ekstremal masalalarni ko’p hollarda klassik tengsizliklardan yoki funksiya hosilasidan foydalangan holda

yechishadi. Bu usullar har doim ham qulay hisoblanmaydi. Algebra fani ishchi dasturidagi “Sonlar to’plami” bo’limida Diofant tenglamalari deb ataluvchi tenglamalar borki, ulardan ba’zi amaliy va nazariy masalalarni yechishda foydalanish mumkin.

Diofant tenglamalari sonlar nazariyasining eng qadimiy va eng muhim bo’limlaridan biri hisoblanadi. Ularning o’rganilishi qadimgi yunon matematik Diofant Aleksandriyskiyning nomiga bog’liq bo’lib, u o’zining “Arithmetica” asarida bunday tenglamalarni hal qilish usullarini bayon etgan.

Diofant tenglamalari o’rganilishining tarixi qadimgi Yunonistonga borib taqaladi. Diofantning “Arithmetica” asari bir qator tenglamalarni hal qilish usullarini o’z ichiga olgan bo’lsa-da, u umumiy nazariyani yaratmagan. Uning asosiy yondashuvi aniq tenglamalarni hal qilishga qaratilgan bo’lib, u ko’pincha yechimlarni topish uchun sezgirlik va tajribaga tayangan. Keyinchalik, XVII asrda Ferma Diofantning ishlarini o’rgangan.

Diofant tenglamalari deganda butun yoki ratsional koeffitsiyentli algebraik tenglamalar tushuniladi[1].

Umumiy holda  $n$  noma’lumli chiziqli Diofant tenglamasi

$$a_1x_1 + a_2x_2 + \dots + a_nx_n = N \quad (1)$$

ko’rinishda bo’lib,  $a_i$  ( $i = \overline{1, n}$ ) koeffitsiyentlar butun musbat sonlardan iborat.

Bundagi asosiy masala (1) tenglamaning butun sonlardagi yechimlarini izlash hisoblanadi. Agar (1) dagi  $a_i$  koeffitsiyentlar va  $N$  soni ratsional sonlar bo’lsa, uni (1) ko’rinishdagi Diofant tenglamasiga olib kelish mumkin.

Biz (1) ko’rinishdagi Diofant tenglamasining  $n = 2$  bo’lgan holini o’rganib, u bilan bog’liq ba’zi bir matematik va iqtisodiy masalalarni yechish bilan cheklanamiz.

Umumiy belgilashlarga asosan, (1) tenglamani  $n = 2$  bo’lgan holda,

$$ax + by = c \quad (2)$$

ko’rinishda yozish mumkin.

Faraz qilaylik,  $a$  va  $b$  sonlar o’zaro tub sonlar bo’lib,  $x_0, y_0$  butun sonlar (2) tenglamaning biror yechimlari bo’lsin, ya’ni  $ax_0 + by_0 + c = 0$  (3)

U holda, (2) va (3) tengliklardan  $ax + by + c = ax_0 + by_0 + c$  yoki  $a(x - x_0) + b(y - y_0) = 0$ . Bundan esa,  $y - y_0 = \frac{a}{b} \cdot (x_0 - x)$  tenglik kelib chiqadi. Bu yerda,  $y - y_0$  butun son bo'lganligidan  $x_0 - x$  soni  $b$  ga karrali son bo'ladi, ya'ni  $x_0 - x = bt$ . Bu yerdan,  $x = x_0 + bt$ ,  $t$  – butun son. U holda,  $y - y_0 = at$  (4) tenglikni hosil qilamiz.

Shunday qilib, biz ushbu teorema ega bo'lamiz:

**Teorema.** Agar  $a$  va  $b$  sonlar o'zaro tub sonlar bo'lib,  $x = x_0$  va  $y = y_0$  sonlar (2) tenglamaning biror butun sonlardagi yechimi bo'lsa, uning qolgan yechimlari  $x = x_0 - bt$ ,  $y = y_0 + at$  (5) tengliklar yordamida topiladi.

Endi  $t = t_1$  butun son mavjud bo'lganda har qanday  $(x_1; y_1)$  sonlar jufti (2)

tenglamani qanoatlantirishini ko'rsatamiz. Darhaqiqat, (5) da  $t = t_1$  deb,  $x_1 = x_0 - bt_1$  va  $y_1 = y_0 + at_1$  yechimlarni (2) ga qo'yamiz:  $ax_1 + by_1 + c = ax_0 - abt_1 + by_0 + abt_1 + c = ax_0 + by_0 + c$ ,  $(x_0; y_0)$  sonlar (2) ning yechimi bo'lganligi uchun  $ax_0 + by_0 + c = 0$ , demak,  $ax_1 + by_1 + c = 0$ , ya'ni  $(x_1; y_1)$  sonlar ham (2) ning yechimi bo'lar ekan.

Teoremadan shu narsa ma'lum bo'ldiki, (2) tenglamaning boshlang'ich  $(x_0; y_0)$  yechimlari oldindan ma'lum bo'lishi kerak. Yechimdagi  $t$  ning qiymatlari

$x_0 - bt \geq 0$ ,  $y_0 + at \geq 0$  tengsizliklar yordamida topiladi.

**1-masala.** Xo'jalik hududiga bir xil diametrli 5 va 7 metrlik quvurlardan 191 metr uzunlikdagi suv quvuri o'tkazish kerak. Quvurlar soni qanday tanlansa, kam mehnat (quvurlarni payvandlash sonini kamaytirish ma'nosida) sarflanadi?

**Yechish.** Agar,  $X$  va  $Y$  mos ravishda 5 va 7 metrli quvurlar sonini bildirsa, masala shartiga asosan  $5X + 7Y = 191$  tenglama hosil bo'ladi.

Faraz qilaylik,  $X_0 = 6$  va  $Y_0 = 23$  bo'lsin. U holda,  $X = 6 + 7t$ ,  $Y = 23 - 5t$  bo'lib,  $6 + 7t \geq 0$ ,  $23 - 5t \geq 0$  tengsizliklardan  $-\frac{6}{7} < 0 \leq t \leq \frac{23}{5} < 5$  ni aniqlaymiz.  $Z$  orqali quvurlarni payvandlash sonini belgilasak, quyidagi jadvalga ega bo'lamiz:

$t$	<b>0</b>	<b>1</b>	<b>2</b>	<b>3</b>	<b>4</b>
$X$	6	13	20	27	34
$Y$	23	18	13	8	3
$Z$	28	30	32	34	36

Jadvaldan shu narsa ko’rinadiki, 6 ta 5 metrli va 23 ta 7 metrli quvurlarni kamida 28 ta payvandlash orqali 191 metr quvurni o’tkazish mumkin ekan. **J:** 28 ta

**2-masala.** 175 metr matoni necha xilda 3 va 4 metrli qilib kesish mumkin?

**Yechish.** Tenglama  $3X + 4Y = 175$  ko’rinishda bo’lib, boshlang’ich yechimi  $X_0 = 5, Y_0 = 40$  ekanligini topish mumkin.

$X = 5 + 4t, Y = 40 - 3t$  tengliklar yordamida quyidagi jadvalni tuzamiz:

$t$	<b>0</b>	<b>1</b>	<b>2</b>	<b>3</b>	<b>4</b>	<b>5</b>	<b>6</b>	<b>7</b>	<b>8</b>	<b>9</b>	<b>10</b>	<b>11</b>	<b>12</b>	<b>13</b>
$X$	5	9	13	17	21	25	29	33	37	41	45	49	53	57
$Y$	40	37	34	31	28	25	22	19	16	13	10	7	4	1

Jadvaldan 175 metr matoni 14 xil variantda 3 va 4 metrli qilib kesish mumkinligi ma’lum bo’ldi. **J:** 14 xil usulda.

### **Mustaqil yechish uchun masalalar**

**1-masala.** Bir tonna bug’doyni eng kamida nechta 60 va 80 kg li qoplarga joylashtirish mumkin?

**2-masala.** 20,5 litr o’simlik yog’ini 0,7 va 0,9 litrli banka idishlarga to’ldirib solish uchun eng kamida qancha va qanday idishlardan foydalanish kerak bo’ladi?

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Sh.Ismailov. Sonlar nazariyasi. Toshkent, 2010.
2. Q.Safayeva. Iqtisodiyotda matematika. Toshkent, 2009.
3. S.Alixonov. Matematika o’qitish metodikasi. Toshkent, 2011.

## BOG’LIQ BO’LGAN TASODIFIY MIQDORLAR YIG’INDISINING AYIRMALI PSEVDOMOMENTLARINI BAHOLARI HAQIDA

**Axmedov Sohijjon Akbarovich**

Andijon davlat universiteti dotsenti

**Tursunov Bekzod Burxon o’g’li**

Andijon Davlat universiteti 2-bosqich tayanch doktoranti

**Annotatsiya.** Ushbu tezisdagi sust bog’langan tasodifiy miqdorlar normallashtirilgan yig’indisining taqsimotlarini normal taqsimotga asimptotik yaqinlashish masalasi semiinvariantlar metodi yordamida tahlil qilingan. Bunda Statulyavichus sharti bajarilganda katta chetlanishlar oralig’ida limit taqsimotga yaqinlashishdagi notekis baho topilgan.

Faraz qilaylik  $X_t, t=1,2,\dots$   $MX_t=0$  va  $DX_t=1$  bo’lgan  $(\Omega, \mathfrak{F}, P)$  ehtimollar fazosida berilgan tasodifiy jarayon va  $\{\mathfrak{F}_s^t; 1 \leq s \leq t \leq \infty\}$  quyidagi shartlarni qanoatlantiruvchi  $\sigma$ -algebralar oilasi:  $\mathfrak{F}_s^t \subset \mathfrak{F}, \forall s \leq t; \mathfrak{F}_{s_1}^{t_1} \leq \mathfrak{F}_{s_2}^{t_2}; \forall [s_1; t_1] \subset [s_2; t_2]; \sigma\{X_n : s \leq n \leq t\} \subset \mathfrak{F}_s^t$ .  $X_t$  larni bog’liqlik darajasi Rozenblatt tipidagi quyidagi koeffitsiyent bilan ifodalangan bo’lsin:

$$\alpha(s, t) = \sup_{A \in \mathfrak{F}_s^t, B \in \mathfrak{F}_s^\infty} |P(AB) - P(A)P(B)|, Z_n = \frac{S_n}{B_n}, S_n = \sum_{t=1}^n X_t, \\ B_n^2 = MS_n^2 > \sigma_0, \sigma_0 > 0.$$

Normalashgan yig’indi va  $\Phi(x) = P(x < n) - (0,1)$  – normal taqsimotlar farqlarini ifodalovchi  $s$  – tartibli psevdomentlarni qaraymiz:

$$\chi_s(Z_n, X) = s \int_{-\infty}^{\infty} |x|^{s-1} |F_{Z_n}(x) - \Phi(x)| dx, s \geq 1$$

Ma’lumki [1] psevdomentlarni baholari katta chetlanishlar tipidagi ehtimolli tengsizliklarni baholashda ishlatiladi. Shu maqsadda ushbu axborotda yuqorida bayon

qilingan tasodifiy jarayonning ayirmali psevdomentlari uchun hosil qilingan bahoni keltiramiz.

**Teorema 1.** Quyidagi shartlar bajarilsin:

- 1) Bir ehtimollik bilan  $X_t$  lar chegaralangan ya'ni  $\exists M > 0: |X_t| \leq M$  ;
- 2) Qandaydir  $K > 0$  va  $b > 0$  sonlar uchun quyidagi tengsizlik bajarilsin:  
 $\alpha(s, t) \leq K \exp\{-b(t - s)\}$

u holda shunday o'zgarmas  $C = C(M, b, K, \sigma_0)$  mavjudki, quyidagi tengsizlik o'rinli bo'ladi

$$\chi_s(Z_n, X) \leq \frac{C}{(\sqrt{n})^{\frac{1}{9}}}$$

teoremaning isboti 1) va 2) shartlar bajarilganda  $Z_n$  ning  $k$  – tartibli semiinvariant uchun statulyavichus shartini bajarilishiga asoslangan [2].

**Teorema 2.** Quyidagi shartlar bajarilsin:

- 1) Bir ehtimollik bilan  $X_t$  lar chegaralangan ya'ni  $\exists M > 0: |X_t| \leq M$  ;
- 2) Qandaydir  $K > 0$  va  $b > 0$  sonlar uchun quyidagi tartibdagi sust bog'lanish o'rinli bo'lsin.:

$$\alpha(s, t) \leq K \exp\{-b(t - s)\}$$

u holda quyidagi baho o'rinli bo'ladi:

$$|F_{Z_n}(x) - \Phi(x)| = O\left(\frac{x^3 \exp\{-x^2 / 2\}}{(\sqrt{n})^{\frac{1}{3}}}\right)$$

Teoremaning isboti 1) va 2) shartlar bajarilganda  $Z_n$  ning  $k$  – tartibli semiinvariant uchun statulyavichus shartini bajarilishiga asoslangan [1].

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Эбралидзе Ш.С. Неравенства для вероятностей больших уклонений в терминах псевдомоментов // Теория вероятностей и её применения. -1971; Т, XVI; №4. С. 760-764.

2. Саулис Л, Статулявичус В. Предельные теоремы о больших уклонениях монография. Вильнюс: М, 1989.
3. И.А.Ибрагимов, Ю.В.Линник Независимые и стационарно связанные величины – М. : «Наука», 1965.
4. В.В.Петров Суммы независимых случайных величин – М. : «Наука», 1972.
5. В.М.Золоторев, Современная теория суммирования независимых случайных величин. -М. : «Наука» 1986.

## **TA'LIM JARAYONINI SAMARALI BOSHQARISHDA RAHBARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINING AHAMIYATI**

**Mo'minov Baxodir Murodullaevich**

Toshkent shaxridagi Puchon Universiteti

Magistratura va ilmiy tadqiqotlar kafedrası

Ta'lim menejmenti mutaxassisligi bo'yicha magistranti

**Annotatsiya.** Maqolada ta'lim jarayonini samarali boshqarishda rahbarning kommunikativ kompetentligining ahamiyati ma'lumotlar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar.** Rahbar, ilmiy-metodik tayyorgarligi, jamoa, o'qituvchilarning ijodkorlik faoliyatlari, muloqot, muloqot madaniyati, rahbarning sifatleri va qirralari.

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy o'zgarishlar, rivojlanib borayotgan bozor iqtisodiyoti munosabatlari, ilm fan, texnika, texnologiyalar sohasidagi taraqqiyot va axborotlar globallashuvi jarayonida uzluksiz ta'lim tizimini boshqarishda izchil faoliyat ko'rsatayotgan rahbarlarning ilmiy-metodik tayyorgarligini rivojlantirish masalasi dolzarb muammolardir.

Rahbarning massasadagi mavqeini uning lavozimi yoki boshliqlarning qo'llab-quvvatlashi emas, balki uning vazifasi va jamoasining unga bo'lgan munosabati belgilaydi. Obro'-e'tiborli rahbar jamoaning eng hurmatli kishisi va ustozidir.

Ko'p yillik tajribalar shuni ko'rsatadiki, muassasada ta'lim-tarbiyaning yo'lga qo'yilishi, o'qituvchilarning ijodkorlik faoliyatlari, ta'lim muassasasining obro'-e'tibori, o'quvchilarning bilim olish samaradorligi, tarbiyalanganligi, kamol topishi, ko'p jihatdan muassasa direktorining fidoyiligiga bog'liq.

Rahbar muassasa uchun davlat, hokimiyat, xalq ta'limi bo'limi oldida javob beruvchi yagona shaxsdir. Ayniqsa, boshqaruv tizimida bo'layotgan o'zgarishlar, uning rahbarlariga har qachongidan ham ko'ra ko'proq mas'uliyat yuklaydi. Bugungi ta'lim muassasalari rahbarlari ta'lim sohasidagi islohotlar mazmun-mohiyatini to'g'ri anglashi, uning ilg'or jihatlarini o'zlashtirishga alohida ahamiyat berishi lozim. Shu

ma'noda, tayinlangan rahbar faqat ijrochigina emas, balki o'z ishining haqiqiy ustasi, mahoratli boshqaruvchi, malakali pedagog, faol tashkilotchi bo'lishini davrning o'zi talab etmoqda.

Rahbarning sifatlari va qirralari:

Muassasa rahbari ta'lim-tarbiya jarayoni amalga oshadigan muassasaning birinchi kishisi, bosh mutasaddidir. Uning boshqarishda qator vazifalari va faoliyat turlari mavjud. Avvalo, rahbar sifatida muassasaning istiqbol rejasini belgilaydi va uni amalga oshirishga jamoani yo'naltiradi.

Muassasa rahbari – pedagog sifatida o'zining muayyan konsepsiyasiga ega bo'lishi, jamoani doimiy ravishda o'rganib, kuzatib borishi zarur. Muassasada ilmiy, pedagogik, metodik ishlarni takomillashtirishga hissa qo'shishi lozim. Pedagog sifatida barcha o'qituvchilar va o'quvchilarga har tomonlama (kiyinish, muloqot madaniyati va boshqa yo'nalishlar bilan) o'rnak bo'lishi kerak. Shu bilan birga muassasadagi tarbiya jarayonining mazmuni, usuli, shakllarini tashkil etish masalalarini muvofiqlashtiradi.

Peshqadam rahbarga xos fazilatlardan biri – vazminlik va sabru bardoshlikdir. Rahbar hissiyotini muvozanatlashganligi, uning ichki dunyosiga xos qarama-qarshi tuyg'ularning tug'yoniga yo'l qo'ymaslikda va kayfiyatdagi sokinlikda ifodalanadi.

Boshqaruv faoliyatini samarali bajarish uchun rahbarga zarur fazilatlardan yana biri - muvaffaqiyatga intilishdir. Rahbar o'z oldiga maqsad qo'ya olishi va uni bajarishga urinishi lozim.

Samarali boshqaruv uchun yana bir zaruriy xislat – mas'ullik va vazifani hal etishga qaratilgan ishonch. Iqtisodiy va ijtimoiy qalqish paytida o'z hamkorida ishonch uyg'otish, navbatdagi ishga kafolat berish va boz ustiga, uni uddalash zamonaviy rahbar uchun muhim fazilatdir. Bu jarayonda rahbarlik tadbirkorlik faoliyati bilan uyg'unlashib ketadi va ishonch tushunchasi markaziy o'ringa ko'tariladi.

Rahbarning, nafaqat, obro'sini oshiradigan, balki qiyin vaziyatda uni asosiy maqsad yo'lidan yetaklaydigan fazilatlardan biri – mustaqillikdir. Rahbar o'z qarashi, mushohada layoqati va shaxsiy nuqtai nazariga egalikka intilishi lozim. To'g'ri,

rahbar o‘z hamkasblariga, shuningdek, maslahatchilariga quloq tutishi kerak, lekin qaror va uning ijrosi rahbar zimmasiga yuklatiladi. Shu bois fikrlash va xatti-harakatdagi mustaqillik samarali boshqaruvning asosiy omillaridan biridir. Ammo, mustaqillik qaysarlik kayfiyatiga aylanmasligi lozim. Buning uchun rahbar hamisha o‘z tashabbusini tashkilot yoki jamoa maqsadlari bilan uyg‘unlashtirib borishi lozim.

Navbatdagi zaruriy xislatlardan yana biri muloqotga moyillikdir. Aniqlanishicha, rahbar o‘z kundalik faoliyatining to‘rt dan uch qismini turli-tuman muloqotga sarflaydi.

Muloqot- umumiy tarzda quyidagicha ta’rif berish mumkin: muloqot – kamida ikki kishining o‘zaro ta’sir jarayoni bo‘lib, bu ta’sir davomida axborot almashinadi, munosabat o‘rnatiladi, rivojlantiriladi. Kommunikatsiya- tirik va o‘lik tabiatdagi tizimlar o‘rtasida axborot almashinuvini anglatadi.

Notiqlik san’ati-muayyan mavzuda mazmunli, ravon, ixcham, badiiy yetuk so‘zlangan, tinglovchilarni o‘ziga jalb eta oladigan nutqni o‘rganuvchi fandır. Notiq -har xil yoshdagi, turli kasbdagi, tinglovchilar ommasiga hammabop mavzuda fikrlab, jonli va ta’sirchan shaklda yetkazuvchi da’vatkor ziyoli shaxs.

Rahbar faoliyati bilan bog‘liq nutq madaniyati:

- So‘zlash (jumladan, omma oldida) san’ati.
- Tinglash qobiliyati.
- Suhbatdosh (hamkor, o‘zga kishilar qo‘l ostida ishlaydiganlar)ni obektiv baholash va to‘g‘ri tushunish ko‘nikmalari.
- Har qanday odam bilan munosabat o‘rnata olish va o‘zaro manfaatdorlik asosida unga samarali ta’sir o‘tkaza olish.

Muloqot – bu insonlarning hamkorlikdagi faoliyatiga bo‘lgan ehtiyoji bo‘lib, munosabatlar, o‘zaro ta’sirlar, ma’lumot hamda axborot almashishga doir ularning birgalikdagi faoliyatidir. Shaxs muloqotini shakllantirishda uning yoshi, jinsi, kasbi, dunyoqarashini hisobga olgan holda ish olib borish lozim. Masalan, biz kichik yoshdagi bolalarga kattalarga nisbatan qo‘llyaydigan so‘zlarni ishlatmaymiz. Har bir yosh davriga kiradigan kishilarga o‘ziga xos so‘zlar qo‘llaniladi. Bunda so‘zning ta’sir kuchi hisobga olinadi.

Shaxsni temperament xususiyatlariga qarab muloqot usullarini qo'llash katta ahamiyatga ega. Shaxsda ko'nikma, bilim, malakalarning hosil bo'lishida muloqotning o'rni beqiyos. Shaxs muloqotini shakllanishida uning tarbiyalanganlik darajasi muhim o'rin egallaydi. Masalan, shaxsga kuchli ta'sir etadigan so'zlarni qo'llasangiz ham u qabul qilmasligi, sizning bergan ko'rsatmalarigizga amal qilmasligi mumkin. Chunki u yoshligidan muomala madaniyatini egallashi kerak.

Muloqotning shakllanishida maqsad to'g'ri qo'yilishi lozim. Muloqot ta'lim-tarbiya jarayonida, turli vaziyatlarda rivojlanadi. Masalan, oilada, mahallada, jamoada, guruhda. Agar oilada kattalar bir-birlariga qo'pol munosabatda bo'lsalar, bola ham ularga taqlid qilib atrofdagilar bilan nizolarga borishi mumkin. Demak, muloqot birgalikdagi xarakat extiyojlaridan kelib chikadigan, aloqa almashish, bir - biriga ta'sir etish, boshqalarni tushinish, odamlar o'rtasida kontakt o'rnatish va rivojlantirish jarayoni.

Xulosa qilib aytganda, har bir o'qituvchida nutq madaniyati bo'lishi zarur, chunki har bir pedagog o'z nutqi, chiroyli va ravon o'qishi, muomala madaniyati bilan o'quvchilarga namuna bo'ladi. O'qituvchi doimo o'zining nutq madaniyati ustida ishlashi va takomillashtirib borishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, har bir rahbarda nutq madaniyati bo'lishi zarur, chunki har bir rahbar o'z nutqi, chiroyli va ravon o'qishi, muomala madaniyati bilan pedagog jamoaga namuna bo'ladi. Rahbar doimo o'zining nutq madaniyati ustida ishlashi va takomillashtirib borishi zarur.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Sh. Qurbonov, E. Seytxalilov Ta'lim sifatini boshqarish. T.: "Turon-iqbol" 2006.- 592-bet.
2. S.T. Turg'unov, L.A. Maqsudova, M.A. Umaraliyeva, H.M. Tojiboyeva. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish texnologiyalari. T.: "Sano-standart". 2012 -98 bet.
3. R. X. Djurayev, S.T. Turg'unov, N. Q. Ahmedova Ta'lim boshqaruvi (nazariya va amaliyot masalalari) T.: 2013. 140 b.
- 4.. R. X. Djurayev, S. T. Turg'unov. Ta'lim menejmenti. Ta'lim menejmenti T.: "Voris-nashriyot" 2006, 257-b.

**MUNDARIJA / TABLE OF CONTENTS / СОДЕРЖАНИЕ**

1.	O‘ZBEKISTON MADANIY JAMIYATDA MILLIY QADRIYATLAR VA UNGA MUNOSABATNI SHAKLLANTIRISHDA SHAXS OMILINING O‘RNI Ahatova Dilshoda Bahodir qizi G‘afforova Dilnavoz Almatovna	4
2.	AMARANT O‘SIMLIGIDA UCHROVCHI TO‘DA HOSIL QILMAYDIGAN ZARARLI CHIGIRTKALAR MAJMUASINING BIOEKOLOGIYASI VA ULARGA QARSHI MIKROBIOLOGIK PREPARATLARNING SAMARADORLIGI Saidganiyeva Shahodatxon Talatbek qizi	9
3.	KASB-HUNARGA YO‘NALTIRISH BUGUNGI DAVR TALABI Anvarbekova Dildora Iqboljon qizi	14
4.	ZULFIYA QALAMIGA MANSUB SHE‘RDA UCHRAGAN BADIY SAN‘ATLAR TAHLILI Abduvohidova Farangiz Vahob qizi	18
5.	МАСОФАВИЙ ЎҚИТИШНИНГ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДАГИ УСТУНЛИК ЖИХАТЛАРИ ВА УНИНГ ЎҚУВ ЖАРАЁНИДАГИ АХАМИЯТИ Ботирова Нигорахон Шухратжон қизи	22
6.	BUXORO XALQINING ARAB ISTILOSINING DASTLABKI BOSQICHLARIGA QARSHILIGI (BO‘LAT SOLIYEVNING ASARLARI ASOSIDA) Quvvataliyev Ubaydulla	26
7.	GRAMMATIK ME‘YOR VA IJODIY QONUNIYATLARNING BIRIKUV USULLARI Abdullayev Davronbek	29
8.	ESKI MASJID TEATR STUDIYASINING SHAKLLANISHI VA UNING IJODIY QIYOFASINI BELGILASHDA REJISSYORLIK TENDENSIYALARI Xoliqov Mirjalol Raxmatulla o‘g‘li	32
9.	SAID AHMAD ASARLARIDA QO‘LLANILGAN FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING KOMPONENT TAHLILI Shomurodova Sabohat Avulfaiz qizi	37
10.	O‘ZBEK TILIDA ZAMONAVIY LEKSIKANING QO‘LLANILISHI VA AHAMIYATI Norqo‘chqorova Gulsora	40
11.	INGLIZ TILI ISH YURITISH TERMINLARINING O‘ZBEK TILIDA BERILISHI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR Turdiyev Islomjon Mamdaminovich	43
12.	UMUMTA‘LIM MAKTABLARDA O‘ZBEK TILINI DAVLAT TILI FANI SIFATIDA O‘QITISH ASOSLARI Xojiyeva Iroda Zokirjon qizi	50
13.	KORXONALARDA SIFAT MENEJMENTINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI Jamolidinova Asilabonu G‘olibjon qizi	54
14.	O‘QUVCHI YOSHLARNI TARBIYALASHDA OILANING AHAMIYATI Mahkamova Malohat	58
15.	„ PEDAGOGIK KONFLIKNING YECHIMI VA UNI BOSHQARISH TEKNOLOGIYASI‘‘ Ergasheva Fazilat Boboqulova	63
16.	BUGUNGI KUN ZAMONAVIY TARJIMA DASTURLARI MODERN TRANSLATION PROGRAMS OF TODAY Eshmuminov G‘iyosiddin Allamurod o‘g‘li	68
17.	TA‘LIM MUASSASASIDA ZAMONAVIY RAHBAR FAOLIYATI	74

	Maxammadiyeva Nasiba Xasanovna	
18.	MUROJAAT BIRLIKLARINING LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI Ilimjonova Muhlisaxon Baxodirjon qizi	78
19.	MILLIYLIK VA ADABIYOTNING LIRIK SATHIDA UYG‘UNLASHUV Norova Mahbuba Ismatovna Uzoq Jo‘raqulov	82
20.	OMMAVIY MADANIYATNING YOSHLAR AXLOQIY TARBIYASIGA SALBIY TA‘SIRI VA OQIBATLARI Abdurahmonov Muhammad	88
21.	TRANSFORMATION OF THE I-NOVEL IN MODERN JAPANESE LITERATURE Petrosyan Naira Khalliyeva Gulnoz Iskandarovna	92
22.	ZAMONAVIY HR TEXNOLOGIYALARNING MOHIYATI VA TA‘LIM MUASSASALARIDA QO‘LLANISHI Qo‘ziboyeva Sevara Rustam qizi Turayeva Dilafruz Rustamboyevna	95
23.	O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDAGI PRAGMALINGVISTIK TADQIQOTLAR Qurbonaliyeva Sabohat Ulug‘bek qizi	100
24.	“DARSLARDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH USULLARI VA DIDAKTIK YONDASHUVLAR” N.Qurbonboyeva	104
25.	ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA ONLAYN TA‘LIMNING AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI Reimboyeva Munisa Sharafatdin qizi	108
26.	MUSIQA TERMINLARIDA MILLIY MENTALLIKNING AKS ETISHI Eshbo‘tayeva Shohsida	112
27.	BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI KASB TANLASHGA QIZIQTIRISH VA KASBGA YO‘NALTIRISH ISHLARINI TASHKIL QILISH Shukurova Gulbahor Akromjon qizi	117
28.	„PEDAGOGIK TASHXISLASH ASOSIDA O‘QITUVCHINING KASBIY RIVOJLANISHINI TA‘MINLASH USULLARI” Bozorova Zulfizar Abdisodiq qizi	122
29.	PEDAGOGLAR SOG‘LOM TURMUSH TARZINI RIVOJLANTIRISHDA TAYM- MENEJMENTNING O‘RNI Musayeva Muhayyo Asror qizi Turayeva Dilafruz Rustamboyevna	127
30.	"PSYCHOLOGICAL FACTORS IN THE PSYCHOLOGY OF POWER AND LEADERSHIP" Umnov Dmitriy Gennadiyevich Muhammadova Muslima Dilshodbek qizi	134
31.	ZAMONAVIY KASBLARNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI Xolmirzayeva Durdona Abdug‘ulomovna	140
32.	METHODOLOGY FOR USING INFORMATION AND EDUCATIONAL RESOURCES IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES TO FUTURE TEACHERS Khujaniyazova Guzal Yuldashevna	143
33.	MAKTABGACHA TA‘LIM TASHKILOTI PEDAGOG -TARBIYACHILARINING KASBIY MOBILIGINI SHAKLLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO Yo‘ldasheva Sohiba Azamat qizi	148
34.	INGLIZ TILINI O‘RGATISHDA O‘QITISH STRATEGIYALARINING VAZIFASI Zaripova Aziza Shaxobiddinovna	152
35.	MANTIQIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHDA MATEMATIKADA QO‘LLANILADIGAN USULLAR VA METODLAR	154

	Xursanova Zilola Mirzaxolmatoana Axmedova Dildora	
36.	MATEMATIKAGA ASOSLANGAN KOMPLEKS YONDASHUV TEKNOLOGIYASINI AMALIY QO‘LLASH Xursanova Zilola Mirzaxolmatoana Alijonova Nilufar	158
37.	BO‘LAJAK TARBIYA FANI O‘QITUVCHILARINING MANTIQUIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHDA O‘YINLI METODIKALAR Xursanova Zilola Mirzaxolmatoana	161
38.	O‘SMIRLAR VA KATTALARDA AGRESSIV MUNOSABATNING PAYDO BO‘LISHI Zoxidova Mashhura Botirxonovna	165
39.	JADIDCHILIKNING YORQIN NAMOYANDASI ABDULLA AVLONIY Turayeva Dilafruz Rustamboyevna Zorlikova Maftuna	169
40.	РОЛЕВЫЕ ИГРЫ ПРИ ИЗУЧЕНИИ СОНЕТОВ ШЕКСПИРА Курбонов Дониёрбек Кахрамонович	174
41.	ПРИМЕНЕНИЕ МЕТОДА ПРОБЛЕМНЫХ ВОПРОСОВ ПРИ ИЗУЧЕНИИ СОНЕТОВ ШЕКСПИРА В ШКОЛЕ Курбонов Дониёрбек Кахрамонович	177
42.	XALQ TA‘LIMIMU ASSASALARI XODIMLARINI MODDIY RAG‘BATLANTIRISHNING IQTISODIY ASOSLARI Sodiqjonova Sug‘diyona Qahhorjon qizi	181
43.	РАЗВИТИЕ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА У ДОШКОЛЬНИКОВ Инатова Шахло Сарвар кизи Суннатова Мухаййо Рустам кизи	186
44.	DAVLAT BUDJETI DAROMADLARI SHAKLLANISHINING AMALDAGI HOLATI Abdualilova Dilnoz Abdusattorovna Kenjayev Sherzod Ulug‘bek o‘g‘li	190
45.	ГРУППОВОЕ РАЗБИЕНИЕ ДЕРЕВА КЭЛИ КОНЕЧНОГО РАДИУСА Искандаров Ильгиз Эрикович	195
46.	SHARQ MUTAFAKKIRLARINING TA‘LIM VA TARBIYAGA QO‘SHGAN HISSALARI VA BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI Abdurahmonov Shohrux	198
47.	QUTLIBEKA RAHIMBOYEVA IJODIDA SHE‘R TIZIMI MASALASI Bozorova E‘zoza Baxriddin qizi	201
48.	EXPRESSION OF SIMILAR RELATION THROUGH SUPER SYNTACTIC INTEGRITY Shukhratova Yulduzkhon Baxriddinova Muxlisa	206
49.	AKADEMIK LITSEY ALGEBRA KURSIDA IQTISODIY MASALALARNI YECHISH METODIKASI Xoliqulov Furqat Tirkashboyevich	209
50.	BOG‘LIQ BO‘LGAN TASODIFIY MIQDORLAR YIG‘INDISINING AYIRMALI PSEVDOMOMENTLARINI BAHOLARI HAQIDA Axmedov Sohibjon Akbarovich, Tursunov Bekzod Burxon o‘g‘li	213
51.	TA‘LIM JARAYONINI SAMARALI BOSHQARISHDA RAHBARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINING AHAMIYATI Mo‘minov Baxodir Murodullaevich	216

**Eslatma! Konferensiya materiallari to‘plamiga kiritilgan maqolalardagi raqamlar, ma’lumotlar haqqoniylikiga va keltirilgan iqtiboslar to‘g‘riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.**

**Mas’ul muharrir**

I.I.Abdumannonov

**Nashrga tayyorlovchi**

R.I.Abdullayev

*“Ilm-fan muammolari tadqiqotchilar talqinida” mavzusidagi respublika ilmiy konferensiyasi materiallari to‘plami, 10-dekabr, 2024-yil. – Farg‘ona viloyati: [talqinvatadqiqotla.uz](http://talqinvatadqiqotla.uz) – 223 bet.*